O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
**OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

***Qo'lyozma xuquqida***

***UDK*** ___________

# MATKARIMOVA MARYAMJON ZARIPOVNA

## "XALQARO TURIZM BOZORIGA CHIQISHDA "O'ZBEKTURIZM" MILLIY KOMPANIYASI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI"

***Ixtisoslik: "Turizm" (faoliyat turlari bo'yicha)***

***Turizm magistri akademik darajasini olish uchun***

**D I S S E R T A T S I Y A**

| | |
|---|---|
| Ish ko'rib chiqildi va himoyaga qo'yildi. | **Ilmiy rahbar** |
| "Turizm" kafedrasi mudiri, | ________dots. Abdullaev F.O |
| dots. Abdullaev F.O._________ | **Ilmiy maslahatchi** |
| "____"__________2016 y. | ________ prof.Do'stchanov T. |

TASDIQLAYMAN

**Urganch – 2016 y.**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

Fakultet: Turizm va iqtisodiyot. Magistratura talabasi: Matkarimova M.
Kafedra: "Turizm". Ilmiy rahbar: dots. Abdullaev F.
O'quv yili: 2014-2016 Mutaxassisligi: "Turizm" (xalqaro va ichki)

## Magistrlik dissertatsiya annotatsiyasi.

**Mavzuning dolzarbligi.** Hozirgi kunda, butun dunyoda xalqaro turizm muntazam ravishda ommaviy ijtimoiy hodisaga aylanib bormoqda. Bunga sabab, insonlarning hordiq chiqarish va mehnat qobiliyatlarini tiklashga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish orqali o'z yashash sharoitlarini o'zgartirishga bo'lgan intilishlarining ommaviy tus olib borayotganligidir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida O'zbekistonda xalqaro turizm sohasini rivojlantirish uchun qulay imkoniyatlar mavjudligi, turizmning respublika iqtisodiyotiga yanada integrasiyalashuvi, mamlakat iqtisodiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasida xalqaro turizmni rivojlantirish orqali chet el valyuta tushumini oshirish va qo'shimcha ish o'rinlarini yaratish mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

**Tadqiqotning maqsadi:** O'zbekiston Respublikasida xalqaro turizmning holati, mavjud imkoniyatlarini, turistik salohiyatini, turizmning mamlakat iqtisodiyotiga ta'siri, turizmni boshqaruvchi tashkilot "O'zbekturizm" MK faoliyatini takomillashtirish yo'llarini o'rganish.

**Magistrlik dissertatsiyasining asosiy vazifalari quyidagilar:**

- Xalqaro turizm va uning turizm sohasida tutgan o'rnini yoritib berish;
- Xalqaro turizmni rivojlantiruvchi omillarni tasniflash;
- Xalqaro turizmda Yevropa mamlakatlari tajribalarini o'rganish;
- O'zbekiston iqtisodiyotida turizmning tutgan o'rni;
- O'zbekistonda ichki va milliy turizmni rivojlantirishning hozirgi holati tahlili;
- O'zbekistonda turizmni rivojlantirish shart-sharoitlari va asosiy yo'nalishlari;
- "O'zbekturizm" MKning tashkil topish tarixi va asosiy rivojlanish bosqichlari;

- _O'zbekturizm'' MKni turizmni rivojlantirishdagi asosiy vazifalari va mavjud imkoniyatlari;
- _O'zbekturizm'' MKning turizmni rivojlantirishdagi strategik dasturlari va faoliyatini takomillashtirish istiqbollari.( Respublika va Xorazm viloyati misolida).

**Tadqiqot obyekti.** Tadqiqotning obekti bo'lib, O'zbekiston Respublikasidagi turistik firmalar, "O'zbekturizm" Milliy Kompaniyasi va rivojlangan mamlakatlardagi turistik firmalar, tashkilotlar hisoblanadi.

**Tadqiqotning predmeti.** Tadqiqotning predmeti bo'lib respublikamizda turizmni rivojlantirish, turistik faoliyatni takomillashtirish bo'yicha qabul qilingan qonunlar, Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, shuningdek, "O'zbekturizm" Milliy Kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan yo'riqnoma va harakat dasturlari hisoblanadi.

**Ilmiy ishning yangiligi:** Tadqiqotning ilmiy yangiligi xalqaro tajribalardan foydalangan holda turizmni rivojlantirishda "O'zbekturizm" MKsini faoliyatini takomillashtirish yo'llarini ishlab chiqish, Kipr turizmni boshqaruv organi bilan qiyosiy tahlil qilish. Shuningdek, ishda quyidagi muammolar o'z yechimini topgan:

- O'zbekiston Respublikasida xalqaro turizmni rivojlantirish shart-sharoitlari va istiqbollari aniqlandi;
- O'zbekiston iqtisodiyotida xalqaro turizmni rivojlantirishning ahamiyati aniqlandi;
- Respublika xalqaro turizm salohiyatini oshirishda yangi turistik marshrutlarni ishlab chiqish istiqbollari va yo'nalishlari o'rganildi.
- O'zbekistonning xalqaro turizm bozoriga chiqishda to'siq bo'layotgan muammolar o'rganildi;
- "O'zbekturizm" MKsining turizmni rivojlantirish borasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish yo'llari taklif qilindi

Tadqiqot natijalarining **ilmiy va amaliy ahamiyati** shundaki, undan olingan ilmiy xulosalar va tavsiyalardan, viloyatlar va Respublika darajasida xalqaro turizmni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturini ishlab chiqishda foydalanish

mumkin. Bundan tashqari, tadqiqotning ilmiy-amaliy tavsiyalari, mavjud statistik ma'lumotlari oliy o'quv yurtlari hamda litsey va kollejlarning o'quv jarayonini amalga oshirishda ko'mak beradi.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Ilmiy ish, kirish, 3 ta bob, 9 ta paragraf, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat bo'lib jami hajmi 101 betni tashkil etadi. Unda 8 dan ortiq jadval va 4 ta rasm, hamda 4 ta ilova keltirilgan.

**Ilmiy rahbar: dots. Abdullayev F.** ____________

**Magistratura talabasi: Matkarimova M** ____________

**THE MINISTRY OF HIGHER AND SECONDARY SPECIAL EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

**URGENCH STATE UNIVERSITY**

Faculty: Tourism and Economics Student of master's degree: Matkarimova M.
Department: "Tourism". Scientific supervisor: dots. Abdullayev F.
Academic year: 2014-2016 Specialty: "Tourism"

**Annotation of master's dissertation**

**Actuality of the topic:** At present, international tourism is turning into regularly mass social procedure in the world. The main reason of that, it is being more common for people to change their lifestyle by means of satisfying demand for relaxation and the recreation of labour skills. Uzbekistan has vital opportunities to develop international tourism sector in the market economy condition, more integration of tourism in republic economy, play significant role in the economy of country. By the means of improving international tourism rising foreign currency and creating additional work places in Uzbekistan republic determines actuality of the topic.

**Aim of the research:** We aimed to investigate all tourism resources and determining opportunities in Uzbekistan Republic, also through increasing the effectiveness of using in the tourism development and marking its improvement prospects in this dissertation.

**The main tasks of the dissertation are the following:**

❖ Illustrating international tourism and the establishment specificity;

❖ Informing about international tourism industry;

❖ Investigating completely social-economic and natural factors in the international tourism development;

❖ **The significance of tourism in Uzbekistan economy;**

❖ Current condition analysis of inbound and national tourism in Uzbekistan;

❖ Main directions and condition of developing tourism in Uzbekistan;

❖ The history of establishment and main development steps of "Uzbektourism" NC;

- ❖ Main functions and opportunities in "Uzbektourism" NC tourism development;
- ❖ The comparison of "Uzbektourism" NK and Cyprus tourism organizations;
- ❖ Strategic projects and prospects of its activity improvement in "Uzbektourism" NC tourism development.

**Object of the research:** The object of the research is "Uzbektourism" NK, also touristic firms in the Republic of Uzbekistan and tourism organizations and firms in tourism developing countries.

**Subject of the research:** The subject of the research are the orders which accepted for develop and improve its activity, President's decrees, The Cabinet of Minister's resolutions, strategic projects and programms of "Uzbektourism" NK.

**Scientific novelty of the work:** Scientific novelty of the work is classified using international experiences and producing new directions of tourism development in improving activity "Uzbektourism" NK and compare with Cyprus tourism organization.

Also, the following problems have been solved in the work:

- ➢ The conditions and prospects of international tourism development has been identified in Uzbekistan Republic;
- ➢ The significance of international tourism development has been identified in Uzbekistan economy;
- ➢ The prospects and directions of producing new tourism itineraries in rising republic international tourism potentials has been learned;
- ➢ Proposals and recommendations have been given about improve the activity of "Uzbektourism" NK to develop the tourism.
- ➢ **The scientific-practical value** of the results of the research is that the scientific suggestions, recommendations, and theoretical materials gained can be used in producing social-economic development project of international tourism in republic and regions. In addition to that, scientific – practical recommendations and statistical datas of the work can be extensively used in teaching process at lyceums and colleges, higher educational establishments.

**The content of the research:** The paper consists of 101 pages including introduction, three chapters, 9 paragraphs, conclusion and suggestions, the list of references and appendices. It has more than eight tables, four drawings and four appendices.

**Scientific supervisor:** docent Abdullayev F. ______________________

**Student of master's degree:** Matkarimova M. ______________________

## MUNDARIJA


**KIRISH**

**I-BOB. XALQARO TURIZM RIVOJLANISHINING NAZARIY USLUBIY ASOSLARI**

1.1. Xalqaro turizm va uning turizm sohasida tutgan o‘rni

1.2. Xalqaro turizmni rivojlantirish omillari

1.3. Xalqaro turizmni rivojlantirishning xorijiy rivojlangan mamlakatlar tajribalari

**II-BOB. O’ZBEKISTONDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH YO’NALISHLARI VA XUSUSIYATLARI**

2.1. O‘zbekiston iqtisodiyotida turizmning tutgan o‘rni

2.2. O‘zbekistonda ichki va milliy turizmni rivojlantirishning hozirgi holati tahlili

2.3. O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish shart-sharoitlari va asosiy yo‘nalishlari

**III-BOB. XALQARO TURIZMDA “O’ZBEKTURIZM” MK FAOLIYATINING O’RNI VA RIVOJLANTIRISH YO’NALISHLARI**

3.1. „O‘zbekturizm“ MKning tashkil topish tarixi va asosiy rivojlanish bosqichlari

3.2. „O‘zbekturizm“ MKni turizmni rivojlantirishdagi asosiy vazifalari va mavjud imkoniyatlari

3.3. „O‘zbekturizm“ MKning turizmni rivojlantirishdagi strategik dasturlari va faoliyatini takomillashtirish istiqbollari.(Respublika va Xorazm viloyati misolida)

**XULOSA VA TAKLIFLAR**

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI**

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi.** Dunyodʘgi rivtsjlʘnʘyotgʘn mʘmlʘkʘtlʘr uchun Ξʘlqʘrts turizm chȷt el vʘlyutʘsi kȷlib tushishi vʘish jtsylʘri yarʘtilishining muhim mʘnbʘi histsblʘnʘdi. Bugungi kungʘ kȷlib, Ξʘlqʘrts turizm hʘm yuqtsri dʘrtsmʘdlʘr vʘ hʘm bir qʘtsr muʘmmtslʘr bilʘn btsgʻliq boʻlgʘn iqtistsdiyotning zʘmtsnʘviy vtssitʘsiga ayland. Dȷyarli bʘrchʘ rivtsjlʘnʘyotgʘn mʘmlʘkʘtlʘrdʘ Ξʘlqʘrts turizmni rivtsjlʘntirishning mʘmlʘkʘt iqtistsdiyoti uchun muhim ʘhʘmiyatgʘ egʘligi tʘn tslinib btsrmtsqdʘ. Bunga sabab, hozirda turizm sohasi ichki vʘ jʘhtsn sʘvdtssining stimulyattsri rtslini oʻynʘyapti. Koʻplʘb mʘmlʘkʘtlʘrdʘ yalpi milliy mʘhsultstning bȷshdʘn bir qismidʘn ttsrtib yarmigʘchʘ boʻlgʘn miqdtsri turizm hissʘsigʘ toʻgʻri kȷlmtsqdʘ.

ʌʘlqʘrts turizm ijtimtsiy-mʘdʘniy vʘ Ξoʻjʘlik-iqtistsdiy mʘjmuʘni fʘtsllʘshtirʘdi, kishilʘrning mʘdʘniy vʘ mʘʼnʘviy htsrdiq chiqʘrishini koʻrsʘtilʘdigʘn Ξizmʘtlʘrning miqdtsri vʘ sifʘti hʘmdʘ mʘdʘniy Ξizmʘt koʻrsʘtish vʘ htsrdiq chiqʘrish tʘdbirlʘrining turli-tumʘnligi bilʘn yanʘdʘ btsyitʘdi. MutʘΞʘssislʘrning tʘʼkidlʘshichʘ, htszirgi kundʘ, hʘr qʘndʘy mʘmlʘkʘtning mʘdʘniyati ushbu mʘmlʘkʘtgʘ tʘshrif buyuruvchi kishilʘr tsqimining oʻsib btsrishi histsbidʘn yanʘdʘ rivtsjlʘnib btsrʘdi. Bundʘn kȷlib chiqib ʘytish mumkinki, Ξʘlqʘrts turizm oʻzidʘgi imktsniyat vʘ rȷsurslʘr mʘnbʘi bilʘn mʘmlʘkʘtlʘr mʘdʘniyatining yanʘdʘ btsyib btsrishidʘ muhim rtsl oʻynʘydi.

Btsztsr iqtistsdiyoti shʘrtsitidʘ Oʻzbȷkisttsndʘ turizm stshʘsini rivtsjlʘntirish uchun qulʘy imktsniyatlʘr vʘ shʘrt-shʘrtsitlʘr yuzʘgʘ kȷlʘyotgʘnligi, turizmning rȷspublikʘ iqtistsdiyotigʘ yanʘdʘ intȷgrʘsiyalʘshuvi, mʘmlʘkʘt iqtistsdiyotidʘ muhim ʘhʘmiyat kʘsb etʘdi.

Rȷspublikʘmiz Ξʘlqʘrts turizm stshʘsidʘgi imktsniyatlʘrining kʘttʘligi bilʘn qoʻshni mʘmlʘkʘtlʘrdʘn tubdʘn fʘrq qilʘdi. Oʻzbȷkisttsn bȷtʘkrtsr, ʘjtsyib tʘriΞiy ʘrΞitȷkturʘ yodgtsrliklʘri, shirin-shʘkʘr mȷvʘlʘri, Ξilmʘ-Ξil milliy tʘtsmlʘri, ʘjtsyib milliy ʘnʼʘnʘlʘri, urf-tsdʘtlʘrigʘ egʘ boʻlgʘn mȷhmtsndoʻst Ξʘlqigʘ egʘ. Bulʘrning bʘrchʘsi chȷt ellik turistlʘr eʼtibtsrini oʻzigʘ ttsrtʘdi vʘ kishilʘrni ltsl qtsldirʘdi. ʌʘlqʘrts turizmni rivtsjlʘntirishdʘ Oʻzbȷkisttsndʘ mʘvjud boʻlgʘn siyosiy

bΘrqΘrtsrlik hΘm muhim oȏrin egΘllΘydi. Bundan tashqari iqtisodiyotimiz ham rivojlanib, uning tarkibida xizmatlar sohasining ulushi ortib bormoqda. Xususan Respublikada 2014-yil yakunlariga koȏra, koȏrsatilgan xizmatlar hajmi 13,5 % ga ularning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi esa 2000-yillardagiga nisbatan 37 % dan 54% ga oȏsdi. Bu raqam va koȏrsatkichlar mamlakatimizda xizmat koȏrsatish sohasini rivojlantirishda taraqqiy topgan davlatlar darajasiga tobora yaqinlashib borayotganligidan dalolat beradi.[1]

Oȏzbj kisttsn Rj spublikΘsidΘ turizmni rivtsjlΘnishidΘ turistik tΘshkiltstlΘr vΘ tΘdbirktsrlΘrning oȏrni kj lΘjΘkdΘ yanΘdΘ tsrtib btsrishi kutilmtsqdΘ. Buni «Oȏzbj kturizm" MK fΘsliyati mistslidΘ koȏrish mumkin. Htszirgi kundΘ rj spublikΘdΘ 865 dΘn tsrtiq turistik tashkilotlar mΘvjud boȏlib, ulΘrning ish jΘrΘyoni Milliy KtsmpΘniya ttsmtsnidΘn nΘztsrΘt qilinib btsrilmtsqdΘ.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Turizmni rivojlantirishning nazariy muammolari va asoslari Butunjahon turistik tashkilotining maȏlumotlari, V. I. Knorring, V. A. Kvartalnov, I. D. Afanesenko, X.Shvalbe, N.B. Bugarova, K. G. Borisova, V. I. Azar, M. B. Birjakov, L. YU. Remenniy va boshqa chet olimlari ishlarida oȏz ifodasini topgan. Respublikamizning oȏziga xos xususiyatlarini eȏtiborga olgan holda xalqaro turizmni rivojlantirishning mintaqaviy muammolari va mavjud imkoniyatlari Respublikamiz olimlaridan G. Gȏulomov, G. Nazarova, A. Taksanov, A. Allaberganov, A. F. Saidov, T.T Toshmurodov, F. Komilova, A. Norchayev va boshqa olimlarning tatqiqotlarida yoritilingan.

**Tadqiqotning maqsadi** Oȏzbj kisttsn Rj spublikΘsidΘ xalqaro turizmning holati, mavjud imkoniyatlari, turistik salohiyati, turizmning mamlakat iqtisodiyotiga taȏsiri, turizmni boshqaruvchi tashkilot ñOȏzbekturizmò MK faoliyatini takomillashtirish yoȏllarini oȏrganish.

**Tadqiqotning asosiy vazifalari.** Ushbu maqsadni amalga tsshirishda quyidagi vazifalarni bajarishga toȏgȏri kj ladi:

---

[1] O`zbj kisttsn Rj spublikasi Prj zidj nti I.A.Karimovning ñMamlakatimizni 2013-yilda ijtimoiyї iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014-yilga nisbatan moȏljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yoȏnalishlariga bagȏishlangan Vazirlar Mahkamasining maruzasi. 18-yanvar 2014-yil //ñXalq soȏziògazetasining ¯ 13 soni. 3-bet

- Xalqaro turizm va uning turizm sohasida tutgan oʻrnini yoritib berish;
- Xalqaro turizmni rivojlantiruvchi omillarni tasniflash;
- Xalqaro turizmda Yevropa mamlakatlari tajribalarini oʻrganish;
- Oʻzbekiston iqtisodiyotida turizmning tutgan oʻrni;
- Oʻzbekistonda ichki va milliy turizmni rivojlantirishning hozirgi holati tahlili;
- Oʻzbekistonda turizmni rivojlantirish shart-sharoitlari va asosiy yoʻnalishlari;
- ,,Oʻzbekturizm" MKning tashkil topish tarixi va asosiy rivojlanish bosqichlari;
- ,,Oʻzbekturizm" MKni turizmni rivojlantirishdagi asosiy vazifalari va mavjud imkoniyatlari;
- ,,Oʻzbekturizm" MKning turizmni rivojlantirishdagi strategik dasturlari va faoliyatini takomillashtirish istiqbollari. (Respublika va Xorazm viloyati misolida)

**Tadqiqotning ob'ekti** Tadqiqotning obekti boʻlib, Oʻzbekiston Respublikasidagi turistik firmalar, "Oʻzbekturizm" Milliy Kompaniyasi va rivojlangan mamlakatlardagi turistik firmalar, tashkilotlar hisoblanadi.

**Tadqiqotning predmeti** Tadqiqotning predmeti boʻlib respublikamizda turizmni rivojlantirish, turistik faoliyatni takomillashtirish boʻyicha qabul qilingan qonunlar, Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, shuningdek, "Oʻzbekturizm" Milliy Kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan yoʻriqnoma va harakat dasturlari hisoblanadi.

**Tadqiqotning metodi** bir qancha uslub va usullar majmuidan ibоrat. Tadqiqоt davоmida analiz va sintеz, induktsiya va dеduktsiya, sabab va оqibat, zamоn va makоn, statistik guruhlash, grafik usullardan fоydalanildi.

**Tadqiqotning nazariy va uslubiy asoslari.** Oʻzbеkistоn Rеspublikasi Prеzidеnti I.A.Karimоvning mamlakatimizda turizmni rivоjlantirish hamda Vazirlar Mahkamasining ushbu tarmоqni yuksaltirish boʻyicha ishlab chiqqan koʻrsatma va qarоrlariga tayanadi.

Tadqiqоt ishi "Oʻzbеkturizm" Milliy Kompaniyasi va uning mintaqaviy boʻlinmalari, Davlat statistika boshqarmasi, Butunjahon Turizm Tashkiloti

maðlumtstlari, xalqaro turizmni rivojlantirishga bagðishlangan chet el adabiyotlari, hamda ilmiy va karttsgrafik manbalar astssida tayyorlandi.

**Tadqiqotning amaliy ahamiyati.** Shuningdek oliy va oðrta maxsus oðquv yurtlarida ñTurizmò, ñXalqaro turizmò ñTurizm menejmentiò kabi fanlarni oðqitishda keng foydalaniladi. Bundan tashqari ushbu ishning natija va ‑ultssalaridan, viloyatlar va Rȩspublika darajasida xalqaro turizmni ijtimtsiy-iqtistsdiy rivtsjlantirish dasturini ishlab chiqishda ftsydalanish mumkin

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi.** Tadqiqtstning ilmiy yangiligi xalqaro tajribalardan foydalangan holda turizmni rivojlantirishda ñOðzbekturizmò MKsini faoliyatini takomillashtirish yoðllarini ishlab chiqish, xalqaro tajribalarni oðrgangan holda takomillashtirish, Kipr turizmni boshqaruv organi bilan qiyosiy tahlil qilish. Shuningdȩk, ishda quyidagi muammtslar oðz yȩchimini ttspgan:

- Oðzbekiston Respublikasida xalqaro turizmni rivtsjlantirish shart-shartsitlari va istiqbtsllari aniqlandi;
- Mamlakat hududidagi mavjud barcha turistik resurslar htszirgi kundagi htslati yoritildi;
- Oðzbekiston iqtisodiyotida xalqaro turizmni rivojlantirishning ahamiyati aniqlandi;
- Respublika xalqaro turizm saltshiyatini tsshirishda yangi turistik marshrutlarni ishlab chiqish istiqbtsllari va yoðnalishlari oðrganildi.

**Natijalarning e'lon qilinganligi.** Tadqiqot mazmuni va natijalari boðyicha 2 ta tezis 2015-yilda oðtkazilgan ñXududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini strategiyasini ishlab chiqish yoðnalishlariò mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallar toðplamida nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. .** Ilmiy tadqiqot ishi 3 ta btsb, 9 ta paragraf, ‑ultssa va takliflar, ftsydalanilgan adabiyotlar roðy‑ati va iltsvalardan ibtsrat.

Ilmiy tadqiqot ishining birinchi btsbida xalqaro turizm va uni turizm sohasida tutgan oðrni, xalqaro turizmni rivojlanishiga taðsir qiluvchi omillar, xalqaro turizmni rivojlantirishda xorijiy mamlakatlar tajribasi, uning jahon boðylab

rivojlanish bosqichlari, xalqaro turizm industriyasini tashkil etuvchi kutib olish, joylashtirish, ovqatlantirish va sayr-tomsha sektorlarining faoliyat olib borish jarayoni, shuningdek xalqaro turizmning rivojlanishiga taôsir koôrsatuvchi ijtimoiy-iqtisodiy, demografik, tabiiy va etnik omillarning ahamiyati haqida batafsil maôlumotlar berilgan.

Ishning ikkinchi btsbida Oôzbekiston iqtisodiyotida turizmni tutgan oôrni, Oôzbekistonda ichki turizmni rivojlantirish masalalari, Oôzbekistonda xalqaro turizmni rivojlantirishda xuquqiy asosning yaratilishi, Oôzbekistonda xalqaro turizmni rivojlantirish shart sharoitlari va yoônalishlari yoritilgan.

Ishning uchinchi btsbida ñOôzbekturizmò Milliy Kompaniyasining tashkil toppish tarixi va rivojlanish bosqichlari, ñOôzbekturizmò Milliy Kompaniyasining asosiy vazifalari, ñOôzbekturizmò MK faoliyatini takomillashtirish yoôllari haqida takliflar berilgan.

Umuman tslganda, magistrlik dissj rtatsiyasida tadqiqtst mavzusini yoritishda turli ꞊il jadvallar va chizmalardan ham ftsydalanilgan. Dissj rtatsiya ishida koótarilgan mavzu juda dtslzarb ahamiyatga ega boôlganligi tufayli kj yingi izlanishlarni tslib btsrish uchun ham astssiy nj giz boôlib ꞊izmat qiladi.

# I-BOB. XALQARO TURIZM RIVOJLANISHINING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI

## 1.1. Xalqaro turizm va uning turizm sohasida tutgan o'rni

Turizm sayohatning xususiy holati sifatida oʻziga xos aniq cheklanishlar, tavsifnomasi va koʻplab ta`riflarga ega. Sayohatdan farqliroq turizm kategoriyasi koʻproq iqtisodiyot ta`siridadir va kelib chiqishi jihatdan ikki qirrali hisoblanadi. Turizm ï bu aniq ommaviy sayohat turidir va shu bilan birga sayohatlarni amalga oshiradigan va tashkil etadigan sohadir.

Turizmning umumiy ta`rifini keltirib, uni tashkil etuvchi elementlarning keng tavsifini beramiz. Turizm ï bu odamlarning boʻsh vaqtlarida oʻz doimiy turar joylaridan boshqa mamlakat yoki oʻz mamlakatlari ichida ta`ssurot va dam olish, sogliqni tiklash, mehmondorchilik, bilim olish yoki kasbiy amaliy maqsadlarida sayohat qilishlari, lekin borgan joylarida pul bilan ragʻbatlantiriladigan ish bilan shugʻullanmaydilar.[2] Turizmning ichki iqtisodiy tabiati shuni koʻzda tutadiki, turist albatta oʻz pullarini mazkur davlatda qoldirishi kerak. Turizm mahalliy turistik rȷsurslarni ekspluatatsiya qilishga va buning evaziga davlatning foyda olishiga asoslanadi. Shuning uchun turist oʻzi kȷlgan mamlakatdagi har qanday manbaadan foyda olishga haqli emas. Ishchi kuchi oqimining chȷklanishi muammosi davlat immigratsiya (kirib kȷluvchilar) xizmatlarini tashvishga solgani bois odatda faqat kȷskin ishchi kuchi ȷtishmasligi, mahalliy ishchi rȷsurslarining taqchilligi va muayyan ogʻir ishlarni (masalan, oʻta ogʻir, zararli, iflos va shu kabi) bajara oladigan kerakli malakali mutaxassislarga talab boʻlgandagina chȷtdan ishchilarni yollashga ruhsat beradi. Shu sababli turstlarga foyda olish maqsadida ishlash qat'iy man etiladi, bu barcha vizalarda, ya'ni mazkur davlatga kirishga ruxsat beruvchi hujjatda ham koʻrsatilgan.[3]

Turizmda turar joy tushunchasini aniqlash juda muhim hisoblanadi. Odamlarning doimiy yashash joylaridan boshqa joyga yoki mamlakatga turizm

---

[2] Manba: BTT turizm toʻgʻrisidagi konsepsiyasi maʼlumotlari. (www.worldtourism.org.)
[3] Oʻsha manba.

maqsadlarida borishi turizm deb tushuniladi. Lekin turar joy atrofidagi harakatlanish masalan, ishga borib kelish turizm hisoblanmaydi.

Turizmning asosiy oʻziga xos xususiyatlari. Sayohatdan farqliroq turizm bu odamlarning juda qisqa vaqt mobaynida sayohat qilishlaridir. Uzoq muddatli sayohatlar faqatgina yakka individuallar tomonidan amalgam oshiriladi. XX asrda ommaviylashgan turizm rivojlangan jamiyatda paydo boʻlgan siyosiy ї iqtisodiy holat tufayli rivojlanib bordi. Odamlar (koʻpchilik hollarda yollanma ishlaydiganlar) har yili qisqa (oʻrtacha 2-3 haftalik) ta`til olish huquqiga ega boʻldilar. Ikkinchi jahon urushidan keyin koʻpchilik odamlar oʻziga toʻq yashay boshladilar va qisqa sayohatlar, ta`tillarga pul ajratadigan darajada edilar. Transport vositalarining rivojlanishi havo transporti orqali yer kurrasining istalgan burchagiga borish imkoniyatini yaratdi. 1950-1970 yillʘrdʘ Ꝋʘlqʘrts turmush rivtsjlʘnishi 50- yildʘ Ꝋʘlqʘrts turizm hʘjmining tsshishi dʘvri edi. 1960 yilgʘ kɉlib, sʘyyohlʘr stsni 71 mlngʘ ɉtdi. 1961 yildʘn 70 yilgachʘ boʻlgʘn dʘvr turistik biznɉs rivtsjlʘnishi dʘvri boʻlib histsblʘnʘdi. 1971 yilgʘ kɉlib chɉt sʘyyohlʘrning stsni 168,4 mln kishigʘ ɉtdi. Bu dʘvrdʘgi tɉz rivtsjlʘnishgʘ ʘvvʘlʘmbtsr dunyodʘgi siyosiy muhitning oʻzgʘrishi vʘ Ꝋʘlqʘrts iqtistsdiy muntssʘbʘtlʘrning rivtsjlʘnishi sʘbʘb boʻldi. 1985-1992 yillʘr tsrʘligʻidʘ Ꝋʘlqʘrts turizmning yangi btssqichi btsshlʘndi. Bu dʘvrgʘ kɉlib turizm butun dunyodʘ oʻz rivtsjini ttspgʘn edi. 80-yillʘrdʘ Yevrtspʘ hʘmdʘ Shimtsliy ɸmɉrikʘ chɉt el sʘyyohlʘrini qʘbul qilishdʘ birinchi oʻrinlʘrni egʘllʘb turdi. ʌʘlqʘrts turistik ʘyirbtsshlʘshning zʘmtsnʘviy htslʘti yani, 1995 yildʘ Ꝋʘlqʘrts sʘyyohlʘr stsni 600 mln kishini tʘshkil etdi. Ijtimtsiy iqtistsdiy ʘltsqʘlʘr intɉrnʘtsitsnʘlizʘtsiyasidʘ Ꝋʘlqʘrts turizm kʘttʘ ʘhʘmiyatgʘ egʘ boʻldi. Hozirda esa turizm yuksalish bosqichida. Butun dunyo boʻyicha yiliga 1 milliarddan ortiq kishi sayohatga chiqmoqda.[4]

Endi turizmni turlariga va segmentlanishiga batafsil toʻxtalib oʻtamiz. Statistika boʻyicha eng koʻp ulushni dam olish kunlaridagi turizm (2-3kunlik), keyingi oʻrinda 6-7 kunlik turlar va nihoyat eng kam ulushni 8-12 kunlik turlar

[4] T.M.Aliyava ñXalqaro turistik tashkilotlarò Toshkent-ñTDIUò-2009 y.

egallaydi. Qolgan uzoq muddatli turlar statistikadan tashqari qoladi, chunki ularning ulushi umumiy hisobda juda ham kam foizni qamrab oladi.




**1.1.1-rasm. Turizmning xizmat ko'rsatish va tashkil etish jihatidan tasniflanishi.**

Xalqaro turizm ï bu turizm sohasidagi tashkilotlarning maqsadlashgan va tizimlashtirilgan, turistik xizmat va turistik mahsulotlarni chet el turistlariga mamalakat hududida taklif etish (qabul turizmi) va chet el turistik xizmat va turistik mahsulotlarini taklif etish (joʻnatma turizmi) bilan bogʻliq faoliyatidir. Rejali turizm ï bu turizmni tashkil qilayotgan turoperatorlarning ishlab chiqarayotgan va sotayotgan har qanday turizm turidir. Yoshlar, nafaqaxoʻrlar, nogiron va urush qatnashchilari uchun ijtimoiy ta`minotga ajratilgan mablagʻ hisobiga amalga oshiriladi.[5]

[5]Tu-lij v I.S. ñTurizm Ostsl Oriò Toshkent. ñTDIUò 2002 yil

Turizm statistikasida tranzit turist tushunchasi ham boʻlib, unda turistlarning oʻz davlat xududidan ikkinchi davlat hududiga borayotganda oradagi davlat xududida toʻxtab oʻtishi tushuniladi. Bunday davlatlararo tranzit turist boʻlish uchun maxsus tranzit vizalar ham boʻlishi lozim. Tranzit turistlarning mamlakatda boʻlish muddatlari chȩgaralangandir. Masalan, Yevropa turistlarining Hindistonga yoki Xitoyga sayohatlarida Oʻzbȩkiston tranzit hudud (mamlakat), turistlar esa tranzit turistlar boʻladilar. Bunday sayohatda turistlar qisqa vaqt ichida Oʻzbȩkistonda boʻladilar. Shu davr ichida mȩhmonxonalarda boʻlishlari, ovqatlanishlari, mamlakatning tarixiy yodgorliklari bilan tanishishlari, bozorlardan, savdo rastalaridan yodgorlik buyumlarini sotib olishlari mumkin.[6] Turistik tsqimlΘr yoʻnΘlishi boʻyichΘ turizm turlΘri ñkiruvchiò va ñchiquvchiò turistlΘr ttsifΘlΘrigΘ boʻlinΘdi. KoʻpginΘ rivtsjlΘngΘn mΘmlΘkΘtlΘrdΘ turizm uygʻun htslΘtdΘ tΘrΘqqiy etΘdi, òichkiò vΘ ñtΘshqiò turizmdΘ muvtszΘnΘt sΘqlΘnΘdi. Ushbu turistik btsztsrining koʻrsΘtkichlΘri har davlatda turlichadir. Masalan 2007 yildΘ Oʻzbȩkisttsn boʻyichΘ oʻtkΘzilgΘn tΘdqiqtstlΘr nΘtijΘsigΘ koʻrΘ, hΘr 6 nΘfΘr chiquvchi turistgΘ 1 ichki turist toʻgʻri kȩlΘdi. Bu mΘsΘlΘning ButunjΘhtsn turizm tΘshkiltsti (BTT) ishlΘnmΘlΘri boʻyichΘ turizm btsztsrini muvtsfiqlΘshtirishdΘ quyidΘgi prtsptsrsiya tΘvsiya qilinΘdi:

1-ta kiruvchi turst-1ta chiquvchi turist-4-ta ichki turist[7]

Bu prtsptsrsiya BTT tΘvsiyalΘri boʻyichΘ eng tsptimΘl nisbΘt histsblΘnΘdi, uni ΘmΘlgΘ tsshirish uchun turistik fΘsliyatini tΘrtibgΘ stsluvchi tȩgishli mȩʻyoriy hujjΘtlΘr vΘqtsnunlΘr qΘbul qilishgΘ toʻgʻri kȩlΘdi. Turizmning ꟸilmΘ- ꟸilligi uning btssh mΘqsΘdigΘ btsgʻliq htsldΘ quyidΘgi koʻrinishlΘrgΘ ΘjrΘtilΘdi:[8] StsgʻltsmlΘshtirish vΘdΘvtslΘsh mΘqsΘdlΘridΘ qilinΘdigΘn turizm - health and fitnes tour or resort tour. Spa yoki health spas - sΘnΘtsriylΘr, stsgʻltsmlΘshtiruvchi -dΘvtsltsvchi tΘshkiltstlΘr, kurtsrt ztsnΘlΘridΘ, shiftsbΘꟸsh suvlΘr, shiftsbΘꟸsh bΘlchiqlΘr vΘ btsshqΘlΘr yordΘmidΘ (shiftsbΘꟸsh minȩrΘl suvli kurtsrtlΘrdΘ) tslib btsrilΘdi. Turistik prtsspȩktlΘrdΘ mΘꟸsuslΘshtirilgΘn stsgʻltsmlΘshtirish mΘqsΘdlΘrigΘ qΘrΘb, kȩmpinglΘrdΘ minȩrΘl

---

[6] T.B.Sodiqov, E.Rabbimov. ñXalqaro turizmò Toshkent-ñTDIUò-2009 y.
[7] Manba:www.world-tourism.orgï Butunjahon turistik tashkiloti maʻlumotlari
[8] Tuꟸlijȩv I.S. ñTurizm ΘtsslΘriò Toshkent. ñTDIUò- 2002 yil

suvlΘrni ichish yoki minȷrΘlli vΘ tsltingugurt vtsdtsrtsdli vΘnnΘlΘr qΘbul qilish imktsniyatlΘrini bȷlgilΘydilΘr. MΘshhur chȷt el shiftsbΘ̄Θsh suvli kurtsrtlΘridΘn BΘdȷn (GȷrmΘniya); BΘd-Ishl, BΘd-GΘstΘyn vΘ BΘdȷn-bȷy-Vin (ϕvstriya); SpΘ (Bȷlgiya); BΘt vΘ BΘkstts n (Buyuk BritΘniya); BursΘ (Turkiya); ϕtΘmi (YAptsniya) TȷrmΘl bultsklΘrining kΘtΘginΘ qismi Grȷsiya vΘ Vȷngriyad Θ tΘniqlidir.

Koʻngil tschΘrlik uchun ï (entertainment) turizm dΘsturlΘridΘ mΘʼlum mΘʼntsdΘ turistlΘr qoʻshimchΘ ̄izmΘt koʻrsΘtishgΘ yoʻnΘltirilgΘn.»Turistning ya̅shi koʻngil tschishi» uchun turizmning bΘrchΘ qirrΘlΘrini tschishdΘ yordΘm bȷrilΘdi. Bu fΘsl oʻyinlΘr (gtslf, krikȷt, kȷgli), tstlΘrdΘ sΘyr qilmtsq, ΘtrΘksitsnlΘrgΘ btsrish (tȷmΘtik btsgʻlΘr, mΘsΘlΘn, Disnȷylȷnd, Dȷlfi kΘri, ztstspΘrklΘr), rȷsttsrΘnlΘr, diskts klublΘr, mΘgΘzinlΘr, kΘzints vΘ btsshqΘlΘr. ʌtsrij mutΘ̄ΘssislΘrining fikrichΘ, 110 dΘn tsrtiq kȷng qoʻllΘnilΘdigΘn turizm ΘmΘliyotidΘgi koʻngil tschΘr turlΘr mΘvjud.

Familiarization trip yoki famtrip, yaʼni tΘnishtiruvchi, rȷklΘmΘ sΘfΘri. MΘrshrutni qΘytΘdΘn bΘtΘfsil ishlΘsh vΘ uning shΘrtlΘri bilΘn tΘnishish uchun rȷklΘmΘli sΘyohΘtlΘrgΘ Θstss Θn turli dilȷrlΘr vΘ turtspȷrΘtsrlΘr yoki turistik ΘgȷntliklΘr ishchilΘri btsrishΘdilΘr. UlΘr butun mΘrshrutni toʻlΘligichΘ btssib oʻtishΘdi vΘ yashΘsh shΘrtsitlΘrini, ekskursiya dΘsturlΘrini, tsvqΘtlΘnish Θsts sini, trΘnsfȷrni, mΘdΘniy vΘ koʻngil tschΘr dΘsturlΘrni ΘniqlΘshΘdilΘr. UlΘrni mΘhΘlliy shΘrtsitlΘr, udumlΘr, mȷdisinΘ vΘ sugʻurtΘ ̄izmΘtlΘri, jintsiy htslΘtlΘr vΘ btsshqΘ kritik htslΘtlΘrdΘ dΘvlΘt tsrgΘnlΘri bilΘn birgΘlikdΘ tslib btsrilΘdigΘn ishlΘr hΘqidΘ toʻliq mΘʼlumtstlΘr bilΘn tΘʼminlΘydilΘr. QtsidΘ boʻyichΘ tΘnishtiruvchi turizmgΘ mΘʼlum chȷgirmΘlΘr bȷrilΘdi yoki bundΘy turizm toʻlΘligichΘ qΘnΘshuvchi ktsmpΘniya ttsmtsnidΘn toʻlΘnΘdi. BΘʼzi mΘmlΘkΘtlΘr, mΘsΘlΘn, Isrtsil qΘbul qilish boʻyichΘ turistik fΘsliyatni fΘsl qoʻllΘbquvvΘtlΘb, tΘnishtirish bilΘn btsgʻliq sΘfΘrlΘrni dΘvlΘt byudjȷtidΘn dtstΘsiyalΘydi.

Oʻrg Θnuvchi turizm - stsnnoisscur ttsur. Turizm mΘrkΘzlΘrigΘ birtsr nΘrsΘ oʻrgΘnish uchun btsrishdΘn ibtsrΘt. BulΘr dunyogΘ mΘshhur Nyu - Ytsrk (hΘr yili 32 mln turist bu ȷrgΘ oʻrgΘnish mΘqsΘdidΘ btsrishΘdi), PΘrij, MΘdrid, Rim, Pȷtȷrburg, Qts̄irΘ, SingΘpur, Gtsngktsng, Rits-dȷ-JΘnȷrts vΘ shu kΘbi shΘhΘrlΘrdir. TuristlΘrning

qiziqish tsbʼqj kti boʼdlib qʘdimgi jtsylʘr, muzj ylʘr, hʘykʘllʘr, shʘhʘrlʘrning chirtsyli lʘndshʘftlʘri ԟizmʘt qilʘdi.

Ktsngrj ss-tur ї mʘԟsus tur boʼdlib, ktsnfj rj nsiyalʘr, sʼqj zdlʘr, sj minʘrlʘr oʼtkʘzish uchun tʘshkil qilinʘdi. Ungʘ judʘ qizikish kʘtʘ vʘ eng dʘrtsmʘdlilʘridʘn biri histsblʘnʘdi.

Qishltsq turizmi - farm ttsur, rural tour. Qishltsqdʘ dʘm tslish - bu tʘbiʘt qoʼynidʘ boʼdlish, yillʘr dʘvtsmidʘ shʘhʘr shʘrtsitidʘ yigʼilib qtslgʘn chʘrchtsqlʘrni chiqʘrish, ttszʘ hʘvts, ektsltsgik ttszʘ boʼdlgʘn tsziq-tsvqʘtlʘr, iqlim shʘrtsitlʘrini oʼzgʘrtirish, ʘhtsli stsnining kʘmligi, btsshqʘ tʘrtibqtsidʘ vʘ yashʘsh mʘdʘniyati, qishltsq ԟoʼjʘlik ishlʘridʘ ishtirtsk etish, btsgʼdtsrchilik, chtsrvʘchilik, tʘbiʘt bj rgʘn inʼdtsmlʘrni toʼplʘsh vʘ qtslʘvj rsʘ, dʘm tslishning ʘrztsnligidir.[9] SʘfʘriSafary tour, qoʼriqԟtsnʘgʘ hʘyvtsnlʘr ttsmtsshʘ qilish uchun sʘyr, tsvchilik, bʘliq tsvi mʘqsʘdidʘgi sʘyohʘt, ftsttstsvchilik, Kj niya yoki JɸR qoʼriqԟtsnʘlʘrigʘ sʘyr, tʘbiʘtdʘ ʘjtsyib hʘyvtsnlʘrni erkin htsldʘ koʼrish mʘqsʘdidʘgi sʘyrlʘr.

Ektsturizm j cts ttsur - sʘyyohlikning yangi tstshʘsi boʼdlib, ikkinchi ntsmi: Nature Tourizm with a soft Touch ї ñtʘbiʘtgʘ yumshtsq tj guvchi turizmò, yaʼni ʘtrtsf muhitgʘ eng kʘm tʘʼsirini tʘʼminltsvchi sʘyyohlikdir. Ektssʘyyohlik dʘsturi tsdʘtdʘ ektsltsgik ttszʘ jtsylʘrgʘ btsrishni nʘzʘrdʘ tutʘdi vʘ tʘbiʘt rj zj rvʘtsiyalʘri vʘ qoʼriqԟtsnʘlʘrigʘ uyushtirilʘdi. Bu kʘbi sʘyohʘtlʘr dʘvtsmidʘ ektsltsgiyagʘ bʘgʼishlʘngʘn sj minʘrlʘr, mʘhʘlliy ʘhtsli bilʘn uchrʘshuvlʘr vʘ shu kʘbilʘr uyushtirilʘdi. Bʘʼzidʘ ektsturizm soft tourizm dj b hʘm ʘtʘlʘdi.

Qumsʘsh turizmi ї bu ʘstssʘn qʘrindtssh yoki doʼstlʘrini ziyorʘt qilishgʘ moʼdljʘllʘngʘn boʼdlib, oʼz mʘmlkʘtlʘridʘn ʘyrim sʘbʘblʘrgʘ koʼrʘ koʼchib kj tgʘn kishilʘr bilʘn btsgʼliq.

Diniy ziyorʘt ї (religious or piligrim tour) diniy mʘqsʘddʘgi sʘyohʘt vʘ sʘyrlʘrdʘn ibtsrʘt. Bu ԟildʘgi sʘyr diniy ishtsnch, oʼz vʘ oʼzgʘ dinlʘrgʘ qiziqish ʘstssidʘ vujudgʘ kj lʘdi. Dunyodʘgi koʼp tsdʘmlʘr MʘkkʘiMukʘrrʘmʘgʘ, muqʘddʘs yj r boʼdlgʘn Vʘtikʘn ibtsdʘtԟtsnʘlʘrigʘ vʘ btsshqʘlʘr jtsylʘrni ziyorʘt qilish uchun sʘyohʘt qilishʘdi.

---

[9] I.S. Tuԟlij v, R.Hʘyitbtsj v, N.E.Ibtsdullʘj v, R.S.ɸmriddintsvʘñTurizm ʘstsslʘri" T: 2012 yangi nashr.

Mʘrtssim turizmi – (ritual tour) tsdʘtdO qʘrindtsshlʘrning qʘbrlʘri yoki jʘnglʘrdO vʘftst etgʘnlʘr dʘfin etilgʘn jtsylʘrgO uyushtirilʘdi. Qʘrindtsshlʘr yoki yaqinlʘr qʘbrlʘri vO mʘqbʘrʘlʘrini ziyorʘt qilish mʘrtssim turizmining ʘstssini tʘshkil etʘdi. Koʻpgin O turistlʘr tʘriꞈiy yurtlʘrgO ʘynʘn qʘrindtsshlʘrini kʘbrlʘrini ziyorʘt qilishgObtsrʘdilʘr.[10]

Soʻngi yillar davomida turizm kuchli va barqaror iqtisodiy faoliyat sifatida eʻtirof etilishi bilan birga, jahon iqtisodiyotining 2009-yildagi moliyaviy tanazzuldan keyingi tiklanishida katta ahamiyat kasb etmoqda. Xalqaro turizm eksporti xizmatlar boʻyicha jahon eksportining 30% ini, tovar va xizmatlar eksportining 6%ini tashkil etadi. Dunyo eksporti tarkibida turizm yoqilgʻi, kimyo sanoati, oziq-ovqat va avtomobil sanoati eksportidan keyin 5- oʻrinda turadi.[11] Turizm iqtisodiyotining yana bir ahamiyatli jihati shundaki, 2014-yilda ham tanazzuldan keying ketma-ket beshinchi yil uzluksiz oʻsishga erishdi va jahon iqtisodiyotiga 7,6 trl.AQSh dollari (Jahon YaIMining 10%i) miqdorida mahsulot va xizmatlar hamda 277mln ish oʻrinlari bilan salmoqli hissa qoʻshdi.

Jahon turizm tashkiloi (JTT – UNWTO) maʻlumotlariga koʻra, 2015 – yilda dunyo boʻylab xalqaro turistlar soni 1.184 mln kishini tashkil etdi, bu koʻrsatkich 2014 – yildagiga nisbatan 50 mln kishi yoki 4.4% ga ortiqdir. Xalqaro turizm tushumlari 2014 – yilda 4% ga oʻsdi va 1245mlrd AQSH dollarini tashkil etdi.[12] Xalqaro turistlar soni va xalqaro turizm tushumlari oʻsish surʻatlarining deyarli tengligi ular orasidagi oʻzaro bogʻliqlikni kuchliligi bilan asoslanadi. Turizm iqtisodiyotining jahon miqyosidagi ahamiyatini eʻtiborga olgan holda, turizm sohasidagi nufuzli tashkilotlar va olimlar tatqiqotlarini oʻrganish asosida jahon turizm bozorida shakllangan eng muhim tendensiyalar oʻntaligi aniqlandi. Ularning aksariyati Oʻzbekiston xalqaro turizm bozorining rivojlanishi uchun qulay imkoniyatlar yaratmoqda. Shuning uchun yurtimiz turizm bozorida bu

---

[10] Tuxliyev I.S. Safarov B. Turizm asoslari. T.: Yangi nashr. 2012.
[11] WEF.(2015). The Travel and Tourism Competitiveness Report 2015: Growth through shocks. (http://www.weforim.org/reports/travel-tourism-competitiveness-report-2015)
[12] UNWTO.(2015).World tourism barometer – 2015. Vol.13. (http://tourlib.net/wto/UNWTO_Barometer_2015_02pdf)

tendensiyalarni eôtiborga olgan holda faoliyat yuritish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Quyida mazkur oônta tendensiyaning batafsil sharhi keltirilgan.

Birinchisi, xalqaro yoôlovchi tashuvlarida havo transporti ahamiyatining oôsib borishi. JTT maôlumotlariga koôra, sayyohlarning aksariyati oôz manzillariga havo transporti vositasida (54%), qolganlari esa avtomobil transporti (39%), temir yoôl (2%) va suv transportida (5%) harakatlanadi[13]. Havo transportiga talabning oôsish surôatlari boshqa transport turlariga nisbatan yuqori boôlganligi uchun xalqaro yoôlovchi tashuvlarida havo transportining ulushi ortib bormoqda va ushbu tendensiya uzoq muddatli kelajakda ham saqlanib qolishi kutilmoqda.

Ikkinchisi, xalqaro turizm bozorida ñtaôtil, rekreatsiya va hordiq chiqarishò maqsadi, 14%i ñxizmat safari va boshqa professional xizmatlarò, 27% ñdoôst va qarindoshlarni ziyorat qilishò, diniy ziyoratlar, davolanish maqsadlari va yana 7%i boshqa sabalar bilan sayohatga chiqqanligi aniqlangan.[14] Bozorning mazkur segmentlari orasida ñTaôtil, rekreatsiya va hordiq chiqarishò segmentining yuqori oôsish surôatlari bir necha yillardan buyon saqlanib kelayotganligi eôtirof etildi.

Uchinchisi, Osiyo va Tinch okeani hududidagi davlatlarning xalqaro turizm bozoridagi ulushi ortib borayotganligi. 2014-yilda xalqaro tashrif ushbu mintaqaga tashrif buyuruvchilarning 52%i Yevropa, 23%i Osiyo va Tinch okeani, 15.5%i-Amerika, 5.1%i-Oôrta Sharq, qolgan 4.7%i esa Afrika davlatlari hisobiga toôgôri keldi.[15] Nisbiy jihatdan esa Amerika qitôalari (+8%) eng yuqori oôsish surôatiga erishdi, undan keyingi oôsish surôatlari Osiyo va Tinch okeani mintaqasi (+5%) va Oôrta Sharqda(+5%) kuzatildi.

JTT Osiyo va Tinch okeani qitôasining xalqaro turizm oôsishida kuzatilayotgan yuqori oôsish surôatlari kelajakda ham saqlanib qolishini prognoz qilmoqda.[16] Ushbu mintaqaning xalqaro turizmdagi ulushi 2030-yilda 2010-yildagiga nisbatan 8%iga ortishi hamda 30%ga yetishi kutilmoqda.

---

[13] UNWTO.(2015).World tourism barometer ï 2015. Vol.13. (http://tourlib.net/wto/UNWTO_Barometer_2015_02pdf
[14] Oôsha manba
[15] UNWTO.(2015).World tourism barometer ï 2015. Vol.13. (http://tourlib.net/wto/UNWTO_Barometer_2015_02pdf)
[16] UNWTO.(2011). Tourism towads 2030: Global overview.(http:// publications.u/nwto.org)




**1.1.2 – rasm. 2013 yilda xalqaro tashrif buyuruvchilarning qit'alar bo'yicha ulushi[17]**

To'rtinchisi, Yevropa va Amerika mamlakatlari bilan birga Osiyo davlatlarining ham turizm bo'yicha dunyoninig eng ilg'or davlatlari qatoriga kirayotganligi. Tashrif buyuruvchilar absolyut miqdori dunyo bo'yicha Fransiya (83.7mln kishi) yetakchilik qilayotgan bo'lsa, ushbu reytingda AQSH (74.8 mln kishi) ikkinchi, Ispaniya (65.0 mln kishi) uchinchi o;rinlarda turibdi. Mazkur o'ntalikda Osiyo davlatlaridan bo'lgan Xitoy Xalq Respublikasi (55.6 mln kishi) ham munosib o'rin olgan.

JTT ma'lumotlariga ko'ra, dunyo mamlakatlari orasida turizm tushumlari bo'yicha ikkinchi o'rinda turgan ispaniyadan 2 barobar katta farq bilan AQSh yetakchilik qilmoqda. Tashrif buyurgan turistlar soni bo'yicha yetakchi bo'lgan Fransiya esa bu reytingda 3-o'rinni egallab kelmoqda. Bunga asosiy sabab sifatida AQSH va Ispaniyada turistlar sayohati davomiyligining uzunroq bo'lganligini

---

[17] UNWTO world tourism Highlights-2013y. (http://tourlib.net/wto/UNWTO_Highlights_2013_02pdf)

koʻrsatish mumkin. Shuningdek, turizm tushumlari boʻyicha yetakchi davlatlar qatoriga Osiyo va Tinch okeani mintaqasi davlatlaridan Xitoy Xalq Respublikasi (51.7mlrd dollar), Tayland va Gonkong (38.4 mlrd dollar) davlatlari ham oʻrin olgan. Osiyo va Tinch okeani mintaqasi chiquvchi turizm borasida ham katta salohiyatga ega hisoblanmoqda. JTTning prognozlariga asosan, bu hudud 2030-yilga kelib 531 mln sayohat manbasi boʻlib xizmat qiladi.[18]

**1.1.3 –jadval.**

**Xorijiy turistlar tashrifi bo'yicha yetakchi davlatlar[19]**

| | **Mamlakat** | **2013-yil** | **2014-yil** | **O'sish 2013/2012** | **O'siah 2013/2014** | **Turizm raqobatbardoshlik reytingda o'rin (2015-yil)** |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | (mln) | (mln) | % | % | |
| 1 | Fransiya | 83.6 | 83.7 | 2.0 | 0.1 | 2 |
| 2 | AQSH | 70.0 | 74.8 | 5.0 | 6.8 | 4 |
| 3 | Ispaniya | 60.7 | 65.0 | 7.1 | 7.1 | 1 |
| 4 | Xitoy | 55.7 | 55.6 | -3.5 | -0.1 | 17 |
| 5 | Italiya | 47.7 | 48.6 | 2.9 | 1.8 | 8 |
| 6 | Turkiya | 37.8 | 39.8 | 5.9 | 5.3 | 44 |
| 7 | Germaniya | 31.5 | 33.0 | 3.7 | 4.6 | 3 |
| 8 | Buyuk Britaniya | 31.2 | 32.6 | 6.4 | 5.0 | 5 |
| 9 | Rossiya | 28.4 | 29.8 | 10.2 | 5.3 | 45 |
| 10 | Meksika | 24.2 | 29.1 | 3.2 | 20.5 | 30 |

Turizm bozoridagi zamonaviy tendensiyalarning beshinchisi- turizm oqimlarining oʻsishida turizm raqobatdoshligining hamda turizm sohasidagi investitsiyalar ahamiyatining ortib borayotganligidir. Turizm sohasida davlatlar raqobatbardoshligi reytingi 2007-yildan buyon Jahon iqtisodiy forumi (WEF), JTT va boshqa qator nufuzli tashkilotlar hamkorligida ishlab chiqiladi.

Navbatdagi, 1.1.4 ï jadvalda esa xalqaro turizm tushumlari boʻyicha yetakchi mamlakatlar, ularning oʻsish suratlari hamda raqobatbardoshlik reytingi koʻrsatilingan.

---

[18] UNWTO.(2011). Tourism towads 2030: Global overview.(http:// publications.u/nwto.org)

[19] WDI database hamda WEFning ñThe Travel and Tourism Competitiveness Report 2015ò maʻlumotlari asosida

**1.1.4 - jadval**

**Xalqaro turizm tushumlari bo'yicha yetakchi mamlakatlar**[20]

| O'rin | Mamlakat | 2013-yil | 2014-yil | O'sish 2013/2012 | O'sish 2013/2014 | Turizm raqobatbardoshlik reytingda o'rni (2015-yil) |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | Mlrd | Mlrd | % | % | |
| 1 | AQSH | 172.9 | 177.2 | 7.0 | 2.5 | 4 |
| 2 | Ispaniya | 62.6 | 65.2 | 7.6 | 4.2 | 1 |
| 3 | Xitoy | 51.7 | 56.9 | 3.3 | 10.2 | 17 |
| 4 | Fransiya | 56.7 | 55.4 | 5.6 | -2.3 | 2 |
| 5 | Makao | 51.8 | 50.8 | 18.1 | -1.9 | |
| 6 | Italiya | 43.9 | 45.5 | 6.6 | 3.7 | 8 |
| 7 | Buyuk Britaniya | 41.8 | 45.3 | 12.1 | 10.3 | 5 |
| 8 | Germaniya | 41.3 | 43.3 | 8.2 | 5.0 | 3 |
| 9 | Tayland | 41.8 | 38.4 | 23.4 | -8.0 | 35 |
| 10 | Gonkong | 38.9 | 38.4 | 17.7 | -1.4 | 13 |

Turistik oqimlarning oʻsishi va investitsiyalar bogʻliqligini qabul qiluvchi davlatlarda umumiy hamda turistik infratuzilma, xususan joylashtirish muassasalarning mos ravishda oʻsib borishining zaruruyati bilan ifodalanadi. Statistik maʻlumotlarga koʻra, Iqtisodiy Xamkorlik va Taraqqiyot Tashkilotiga (IXTT) aʻzo davlatlarda mehmonxona fondi 2008-2012 yillar mobaynida yillik oʻrtacha 2.7%ga oʻsgan. Mazkur soha Yaponiya, Turkiya, Chili va Polsha davlatlarida juda tez surʻatlarda rivojlandi. IXTT tarkibiga kirmagan davlatlardan Rossiya va Hindistonda ham mehmonxona joylari sezilarli darajada oshdi. Biroq bu davlatlar xanuz 1000 kishiga toʻgʻri keluvchi mehmonxona joylari soni boʻyicha IXTT davlatlaridan ortda qolmoqda.

Oltinchisi, xalqaro turizmda «Xitoy omili» ning kuchayishidir. Bugungi kunda turizmga eng koʻp mablagʻ sarflovchi sayyohlar Xitoy Xalq Respublikasi

[20] WDI database hamda WEFning «The Travel and Tourism Competitiveness Report 2015» maʻlumotlari asosida

rezidentlaridir (164.9 mlrd dollar), ularning dunyo turizm bozoridagi ulushi 13.2% ga teng. Nisbatan yaqin vaqtlarda ham Osiyo turistlari asosan Yaponiya, Koreya va Gonkong aholisidan tashkil topgan edi, biroq shu oʻn yillikning boshiga kelib, Yaponiya yetakchilikni Xitoy Xalq Respublikasiga topshirdi.[21]

Xozirgi vaqtda xalqaro turistlarning har oʻntasidan bittasi xitoylikdir. Shu sabab, qabul qiluvchi davlatlar ham xitoylik mehmonlarning xulq-atvorini oʻrganish va munosib kutib olishga xarakat qilmoqda. Ahamiyatli jihati shundaki, xitoylik turistlar sayohatlarning 90 %i Osiyo davlatlari hisobiga toʻgʻri keladi. Turizm sohasida Xitoydan keyin turizmga eng katta xarajat qiluvchi davlatlar AQSH va Germaniya boʻlib, ularga dunyo turizm xarajatlarining 8.9 %i hamda 7.4%i toʻgʻri keladi. Ushbu reytingda 5-oʻrinni Rossiya  Federatsiyasi egallagan boʻlib, jahon turizm bozorining 4.0% xarajati Rossiya aholisi hisobiga toʻgʻri keladi. Turizm sohasida fuqaro jon boshiga eng koʻp mablagʻ sarflaydigan davlatlarga Germaniya (1137 dollar), Avstraliya (1114 dollar), Kanada (951 dollar) va Buyuk Britaniya (893 dollar) davlatlari fuqarolarining jon boshiga turizm xarajatlari yuqorida koʻrsatilgan davlatlarga nisbatan sezilarli darajada pastdir. Bu oʻrinda xalqaro turizmda nisbatan yangi shakllanayotgan bozorga ega davlatlar Braziliya va Xitoyda turizm xarajatlari eng past boʻlishiga qaramasdan, oʻsish surʼatlari yuqoridir.

### 1.2. Xalqaro turizmni rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar

Jahon sogʻliqni saqlash tashilotining maʼlumotlariga koʻra, axoli salomatligi 50-50% ularning iqtisodiy taʼminoti va yashash tarzi, 18-20 % atrof muhitning holatiga, 20-30% tibbiiy xizmat darajasiga bogʻliq boʻladi. Havoning ifloslanishi aholi salomatligining 43-45 % yomonlashuviga sabab boʻladi. Zamonaviy gigiena fani atrof-muhitning ifloslanishi aholi kasallanishining oʻrtacha darajasi 20% ga oshirishini aniqlagan.[22] Bunday vaziyatda turizm ijtimoiy ishlab chiqarish va xizmat koʻrsatishning muhim tarmogʻiga aylangan boʻlib, u aholining ishdan boʻsh vaqtidan foydalanishni yaxshilashga va dam olishini tashkil etishga xizmat qiladi.

---

21 [illegible] 2030

22 www.woz.ru-Jahon sogʻliqni saqlash tashkiloti (JSST) maʼlumotlari.

Turizm inson tamonidan yuqori baholanadigan va ijtimoiy natija beradigan keng yo‘nalishni qamrab oladi. Unda dam olish, ish qobiliyatini tiklash, mehnat unumdorligini oshirish, sog‘lomlashtirish, bilish va ijod, odamlar va tabiat bilan tanishish, ta’lim va tarbiyani takomillashtirish va boshqalar birgalikda o‘z ifodasini topadi. Bunday ehtiyojlarni qondirish, sog‘lomlashtirish, umrni o‘zaytirish, insonning jismoniy va ma’naviy darajasini oshirish, shaxsni barkomallashtirish, bilim va malakalarni oshirish va boshqa qator ijtimoiy natijalarga erishishga imkon beradi. Tabiiy omillarga asoslangan turizm shahar va qishloq aholisi orasida keng tarqalgan kasalliklarning ommaviy profilaktik vositasi hisoblanadi. U faqatgina ish qobiliyatini tiklashni va mehnat unumdorligini oshirishnigina ta’minlab qolmay, balki 20-50 % ga yuraktomir, asab, nafas olish, oshqozon, suyak kasalliklari patologiyasi paydo bo‘lishining oldini olishni ta’minlaydi.

Bundan tashqari turizm insonlarda tolerantlik fazilatini shakllantiradi. Biz aynan turizm orqali tolerantlik nima ekanini bilamiz, anglaymiz. Bu xalqaro tushuncha bo‘lib, dunyodagi barcha millatlarga birdek qadrli va tushunarlidir. Tolerantlik avvalambor turli millatga mansub insonlarning bir-biriga hurmat bilan munosabatda bo‘lishini va eng asosiysi bir-birini tushunishni anglatadi. Qayerdaki turizm rivojlangan bo‘lsa – o‘sha yerda tolerantlik bor.[23] Turizmning mahalliy aholi uchun ham katta foydasi bor. Ular ish bilan ta’minlanadi, turli millat, elat va xalq vakillari bilan muloqotda bo‘ladilar va ularning turli an’ana va qadriyatlari bilan tanishadilar, doimiy daromad olib turish imkoniyati ega bo‘ladilar, mahsulotlarni sotish imkoniyatiga ega bo‘ladilar, mahalliy aholi imkon qadar o‘zlarining an’ana va qadriyatlarini namoyish qilish uchun uni saqlab qoladilar va unitilganlarini tiklaydilar, mehmon kutishning jozibador an’analarini tiklash bilan birga mehmondorchilik an’anlarini takomillashtirib boradilar. Oxir oqibatda mahalliy aholining dunyoqarashi, madaniy saviyasi ham mutassil o‘sib boradilar.

[23]Karimov I.A. O‘zbekiston Respublikasi prezidenti I.Karimovning BMT Jahon sayyohlik tashkiloti Ijroiya Kengashi 99-sessiyasining ochilish marosimidagi nutqi. Xalq so‘zi, 2014-yil 3 oktyabr.

Shuning uchun ham dunyodagi koʻpgina davlatlar faqatgina iqtisodiy foyda, aholini ish bilan ta'minlash yohud, xorijiy valyuta oqimi uchun emas, balki yuqoridagi ijtimoiy omillarni ham hisobga olgan holda turizmni rivojlantirishga hukumat siyosati darajasida qarashadi. Ammo turizmni rivojlanishi faqat hukumatga emas, balki boshqa omillarga ham bogʻliq. Biz bu omillarni quyida kengroq yoritib oʻtamiz.

Tabiiy geografik omillar. Kishilar tabiat qoʻyniga chiqib, juda koʻp manzarali joylarni koʻrish va ulardan bahramand boʻlishga intiladi. Sayyohlik, dam olish uchun tabiiy sharoitning xilma-xilligi darajasi va xususiyati muhim ahamiyatga ega. Ya'ni ma'lum bir hududning yer usti koʻrinish manzarasi (landshafti), iqlimi, oʻsimlik va hayvonat dunosi xilma-xilligi kishilarning dam olishi, oʻz salomatligini tiklashi uchun asosiy vositalardan biri boʻlib hisoblanadi.

Shu sababli sayyohlik firmalari ekzotik, betakror tabiiy ob'ektlarni koʻproq reklama qilishadilar. Ayniqsa Osiyo, Afrika, Markaziy va Janubiy Amerika, Avstraliya va Okeaniya kabi mamlakatlar oʻzining diqqatga sazovor tabiiy ekzotikalari bilan Evropa va SHimoliy Amrikalik sayyohlarni oʻziga jalb qiladi.

Xalqaro turizmni rivojlantirishda mamlakat va hududning geografik oʻrni ya'ni uning dengiz va okeanga yaqinligi, qirgʻoq chiziqlarining xususiyati, turli xil suv, avtomobil va temir yoʻllar bilan kesishish joyi, togʻli va oʻrmon manzarali joylarga yaqinligi, ular bilan ta'minlanganlik darajasiga ham bogʻliq boʻladi. Koʻp minglab turistlarning kelib ketishida turistik oʻlkaning yer usti tuzilishi relyefi katta roʻl oʻynaydi. Togʻli, xush manzarali, murakkab relyef tuzilishiga ega boʻlgan oʻlkalar turistlar oqimini oʻziga koʻproq jalb qilishadi. Togʻli oʻlkalar oʻzining toza va sof havosi bilan ajralib, togʻ sportini rivojlantirish imkonini tugʻdiradi. Yevropaning Alp, Osiyoning Himoloy, Afrikaning Atlas, Amerikaning Kordilera va Avstraliyaning Katta suv ayirgʻich togʻlari, Yangi Zelandiyaning Janubiy Alp togʻlari xalqaro turizm sohasida yirik markazlarga aylanishi bejiz emas.

Xalqaro turizmning rivojlanish jarayonlari koʻp hollarda mamlakatlar va hududlarning tabiiy iqlim sharoitiga bogʻliq boʻladi. Bu oʻrinda tabiiy iqlim

sharoiti yetakchi o‘rinni egallaydi. Tabiiy iqlim sharoiti turizm harakatini mavsumiy xarakterga aylantiruvchi asosiy omil bo‘lib hisoblanadi. Tabiatda ob-havoning o‘zgarishi, tabiiy ofatlarning tez-tez takrorlanish hodisalari, tabiat injiqliklari turistlar oqimining keskin kamayishiga sababchi bo‘ladi. Shu sababli turizmning eng rivojlangan mintaqalari yer sharining mo‘tadil iqlim zonalariga to‘g‘ri keladi. Jumladan, O‘rtayer dengizi, qora dengiz, Karib dengizi, Boltiq dengizi, Yapon dengizi, Janubiga  Xitoy dengizi qirg‘oqlarida joylashgan mamlakatlarda turizm xalqaro ahamiyatga ega. Dunyo okeani va dengiz qirg‘oqlari xalqaro turizm sohasining rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatuvchi omillar bo‘lib xizmat qiladi. Ular iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishga, sayyohlik, sayr-tamosholarni uyushtirishda alohida ahamiyatga ega. Okean va dengiz suvlarining cho‘milishi uchun qo‘lay bo‘lgan qirg‘oqlari tarkibiga quyidagi elementlar kiradi.

Mikroiqlim, dengiz va okean suvlarining quruqlikka tutash bo‘lgan joylarida suvning harorati, chuqurligi, suv to‘lqinlari, ko‘tarilishi, qaytishi, oqimlar, suvning shifobaxshligi, tozaligi, tiniqligi, dengiz suvi tagining relyefi, suvdagi yirtqich qonxo‘r baliqlar (akula) va hayvonlarning bor-yo‘qligi h.k., qirg‘oq chiziqlarining tuzilishi, plyajlardagi qumlar va yotqiziqlarning sifati, rangi, shakllari va qolaversa bir qator omillar ta’sir etadi. Daryo va ko‘llar ham turizm resursi yoki boyligi bo‘lib xizmat qiladi. Ular yer usti landshaftlarini yasatadi, mikroiqlim sharotini hosil qiladi, turistlar uchun baliq ovlash, suv sporti bilan shug‘ullanish, turistik markazlar, kurort maskanlarini toza ichimlik suvi bilan ta’minlash uchun xizmat qiladi. Hozirgi kunda Avstriya, Shvetsariya, Buyuk Britaniya, Vengriya, Polsha kabi mamlakatlardagi daryo va ko‘l suv havzalari turizmning eng rivoj topgan turlari bo‘lib hisoblanadi. Xalqaro turizmni rivojlantirishda o‘rmon boyliklarining ro‘li ham anchagina. U turistlarning dam olishida, hissiyotini (emotsiyasini) muvozanatlantirishda, lirik shart-sharoitlarni vujudga keltirishda,»tashqi dunyo»dan ajralgan holda, qisqa vaqtlarda yashashida muhim rol o‘ynaydi. O‘rmonlar toza havoni ishlab chiqaruvchi asosiy manba, salomatlikni qayta tiklovchi maskan, kurort hududlarida shovqinni qaytaruvchi asosiy vositalardan hisoblanadi. Xorijiy sayyohlarni o‘ziga ko‘proq jalb qiluvchi omillardan biri - bu

ekzotik (gόalati, ajoyib) hayvonlar yashaydigan joylar qoόriqxonalar, davlat buyurtmalari, milliy bogόlar, ov qilish uchun ajratilgan maxsus hududlardir. Bunday hayvonat va oόsimlik dunyosining markazlari yuzdan ortiq boόlib, Afrika, Osiyo, Yevropa, Avstraliya, Amerika (AQSH, Kanada) ning sayyohat qilish mintaqalari va hududlari hisoblanadi.

Koόpgina xorijiy turistlarni oόziga jalb qiladigan omillardan biri, bu shifobaxsh mineral suvlar boόlib hisoblanadi. Uning asosiy maskanlariga Rossiya, Gruziya, Vengriya, Slovakiya, CHexiya, Ukraina kabi bir qator mamlakatlar misol boόladi. Xorijiy turistlarning togό sharoitidagi sport turlari alpinizm (Alp, Kordilera, Himolay togόlari h.k.), changόi sporti (Skandinaviya, Alp, Tatra togόlari) suv ustida changôida suzish, suv ostida suzishlar turlari borgan sari rivojlanib bormoqda. Germaniya, Fransiya, Italiya, Belgiya, SHvetsiya, Buyuk Britaniya, Gretsiya hamda AQSH mamlakatlarida xorijiy sayyohlar sport ovlari, baliq ovlashlarda keng koόlamda ishtirok etmoqdalar. Iqtisodiy geografik omillar. Maôlum bir mintaqada, hududda xalqaro turizmning rivojiga taôsir etuvchi iqtisodiy-geografik omillarga qoόyidagilar kiradi:

Å turstlarni qabul qiluvchi mamlakatlar, mintaqalar, hududlarning iqtisodiy-geografik joylanishi;

Å turistlarni qabul qiluvchi va turistlar yuboruvchi mamlakatlarning iqtisodiy jihatdan rivojlanish darajasi;

Åichki turizm sohasining rivojlanish holati;

Å xorijiy turistlarni qabul qiluvchi mamlakatlarning mehnat resurslari bilan taôminlanish darajasi, malakali kadrlarning soni, ularning tayyorgarlik darajasi h.k.

Åmaôlum bir hududda rekratsion resurslarning qiymati, transport xizmatlari turi, oziq-ovqat mahsulotlarning narxi, mehmonxonalarda joylashish narxlari, turistik obôektlar qurilish maydonlarining bahosi;

Åtrasport, aloqa vositalarining hududda tutgan oόrin va holati bilan xarakterlanadi.




**1.2.1-rasm. Turizmni rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillar.**

Iqtisodiy omillar. Turizm rivojlanishiga makroiqtisodiy omillar bilan bir qatorda mikroiqtisodiy omillar ham katta taôsir koôrsatadi. Makroiqtisodiy barqarorsizlik, ishsizlik darajasini oósishi, pulning qadrsizlanishi kabilar jamiyatni qoózgóatadi va bezovta qiladi. Ayrim hollarda esa kishilar oóz uyida qolib, hech qayoqqa sayohatga bormasdan oótirishga toógóri keladi. Qachonki, biror mamlakatning iqtisodiyoti yuksalishda boólsa, qaysi kim ishlab chiqarish imkoniyatlari, yaôni valyutalar miqdorining ortib borishi bilan belgilanadi.

Qaysi bir mamlakatda turizmdan keladigan foyda YAIMda salmogói anchagina boólgan taqdirda investitsiyalar yaôni mehmonxonalar qurishga va

turizm infratuzilmasini rivojlantirishga sarf etiladi. Shu bilan birga milliy daromadini o‘sishi, ayniqsa aholi shaxsiy ehtiyoji qobiliyatini qondirishga qaratilgan xarajatlarning o‘sishi darajasi, ularning sayohlikka bo‘lgan qiziqishini uyg‘otadi. Kishilarning dam olishida turistik mahsulotlar va turistik tovarlar bahosi eng muhim omillardan biri bo‘lib hisoblanadi.

Ayniqsa, turizmni moliyalashtirishda valyuta kursi ham muhim rol o‘ynaydi. Valyuta almashtirishning soddaligi, uning osonligi kabilar. Tabiiyki, xalqaro turizmning rivojlanishi darajasiga mamlakatdagi iqtisodiy vaziyatlar (iqtisodiy inqirozlar, valyuta inflyasiyasi, ishsizlik darajasining o‘sishi va pasayish holati kabilar) ijobiy va salbiy taʼsir ko‘rsatadilar. Savdo aloqalari. Xorijiy mamlakatlarda sayohatga boradigan turistlar, odatda, o‘sha erda nimalarni xarid qilishi qiziqtiradi. Bu noyob, mahalliy hunarmandchlik mahsulotlarini, suvenirlarni, qarindosh urug‘lari, oila aʼzolari uchun xarid qilishidir. Turizm rivojlangan bir qator mamlakattlarda xorijiy davlatlardan keladigan sayyohlarning talab va ehtiyojlarini hisobga olgan holda sanoat eksportini rivojlantiradi.

Hozirgi kunda Birlashgan Arab Amirligi (BAA), Gretsiya, Italiya, Singapur, Hindiston, Xitoy, Janubiy Koreya kabi mamlakatlar xorijiy turistlarga uzoq muddatli foydalaniladigan tovarlar (kiyim-kechaklar, ro‘zg‘or buyumlari, elektronika, radio, telefon, televizor, videotexnika asboblar)ini sotishga kirishganlar. Siyosiy omillar. Siyosiy omillarga kelganda turistlarni qabul qilib oluvchi va turistlarni jo‘natuvchi mamlakatlarda muhim turistik marshrutlar yo‘nalishidagi hududlarda, mintaqalarda siyosiy vaziyatning holatiga ham bog‘liq bo‘ladi. Maʼlumki, mamlakatdagi ichki vaziyatning qay darajada turg‘unligi ko‘p hollarda xalqaro turizm oqimining yo‘nalishini belgilaydi. Tabiiyki, davlatlararo turistlarni almashtirishda, mamlakatlar o‘rtasidagi o‘zaro kelishuvchilik munosabatlari ham muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Ijtimoiy - demografik omillar. Dunyo mamlakatlarida demografik jarayonlar (aholining tug‘ilishi, o‘limi, tabiiy ko‘payishi, aholi migratsiyasi kabilar) ham xalqaro turizm sohasining rivojlanishiga o‘z taʼsirini ko‘rsatadi. Yer sharining turli davlatlarida, hududlarida va mintaqalarida aholi sonining ko‘payib borishi, ayniqsa shahar aholisi

aglomeratsiya doirasining borgan sari kengayib borishi kishilarning dam olishi va sayyohlikka chiqishni taqazo qiladi. Xalqaro turizmning rivojlanishida etnik shart-sharoitlar ham alohida ahamiyatga ega. Dunyo aholisi irqi, millati, tili, dini, turmush tarzi, madaniyatining xilma-xilligi bilan koʻpgina turistlarda qiziqish uygʻotdi.

Sayyohlar xavfsizligi. Sayohat xavfsizligi. Turizmning rivoji bilan sayyohlarning xavfsizligini taʼminlash borgan sari muhim va zarurat masala boʻlib qolmoqda. Hozirgi kunda turizm sohasida sayyohlarni joʻnatuvchi va qabul qilib oluvchi har bir mamlakat uchun sayyohlarning dam olish paytlarida, transport harakati yoʻnalishlarida ularning xavfsizligini taʼminlash chora tadbirlari har bir mamlakat uchun oddiy, odatdagi hayotiy holda boʻlmogʻi zarur. Xalqaro kelishilmovchiliklar yoki harbiy hatti harakatlar, xalqaro jinoyatchilik, terrorizm voqea va hodisalari xalqaro turizm oqimiga nafaqat toʻsqinlik qiladi, balki uning rivojiga juda katta zarba beradi. Bu toʻgʻrida xalqaro turizmning asosiy generatori (boshlovchisi) boʻlgan har bir mamlakatning tashqi ishlar vazirligi oʻzlarining fuqarolari sayohatga boradigan mamlakatlardagi noxush voqea va hodisalar toʻgʻrisida xabardor qilib borishi lozim. Sayyohlar sayohatga boradigan mamlakatdagi mehmonxonalar, ovqatlanish korxonalarining sanitariya- gigienik holati, shu jumladan ichimlik suvi toʻgʻrisida obʼektiv maʼlumotlarini, yuqumlik infeksion kasalliklar kelib chiqishi xavf-xatari toʻgʻrisidagi zururiy maʼlumotlar bilan oldindan xabardor boʻlishi kerak.

Turistik infratuzilmalar. Turistik infratuzilmalar oʻz tarkibiga ovqatlanish korxonalari mehmonxonalar, aloqa yoʻllari yigʻindisi (yoʻllar, shox yoʻllar, aeroportlar, kemalar toʻxtaydigan joylar h.k.), kommunikatsiyalar (suv quvurlari, elektr tarmoqlari, markaziy isitish korxonalari, oqova suv tarmoqlari, axlat toʻplovchi korxonalar, telefon, aloqa, (pochta boʻlimlari), huquqni himoya qilish, jamoat - tartibini saqlovchi idoralar, tibbiyot tashkilotlari, maishiy xizmat koʻrsatuvchi tashkilotlar, doʻkonlar, sport inshoatlarini birlashtiradi va turistik xizmat koʻrsatuvchi korxonalar bilan chambarchas holda bogʻlangandir.

Turistik infratuzilmalar turistik zaruriy shart-sharoitlarini, sayyohlarning xavfsizligi, sogʻlik-salomatligini taʼminlashga qaratilgan. Maʼlumki, sayyoh uchun qaysi bir joyda tinchlik osoyishtalik, maishiy qulaylik yaratilgan boʻlsa, u oʻsha joyga borishga intiladi. Turist avtomobildami, poezddami, mehmonxonadami qisqasi qayerda boʻlmasin u oʻzini xavf - xatarsiz holda sezishi, unga zarurat birinchi yordam koʻrsatilishi zarur.

Mabodo zarurat tugʻilsa, u yer kurrasining har qanday joyi bilan bogʻlanish imkoniyatiga ega boʻlishi, yuqori darajada tibbiyot maslahatlari, zaruriy servis xizmati olish imkoniga ega boʻladi. Ilmiy -texnika taraqqiyoti (yangi texnologiyalar). Fan-texnika yutuqlari turizm industriyasi va mehmondoʻstlikda, yoʻlovchilar tashishda, axborotlar almashish sohalarida keng koʻlamda foydalanilmoqda. Havo trasnportida yangi zamonaviy tez yurar, yirik passajirlar tashishga moʻljallangan havo kemalarning ishlab chiqarilishi sababli sayyohlarga xizmat koʻrsatish ham rivojlanib bormoqda. Temir yoʻl transporti sohasida texnologik omillar borgan sari rivojlanib, oʻz aksini poezdlar qatnovi tezligini oshirilishi bilan ifodalanadi. Hozirgi kunda Yaponiya va Fransiya kabi mamlakatlarda tez yurar pasajjir poezdlar tezligini soatiga 485 km.ga etkazishga erishildi. Temir yoʻl transportining aviatsiya transportidan afzalligi shundan iboratki, temir yoʻl vokzallari shahar markazida joylashgan boʻlib, sayyohlar uchun qulay imkoniyatlar tugʻdiradi. Telekommunikatsiya texnologiyalari va elektronika sanoatining rivojlanishi kompyuter tizimida mehmonxona oʻrinlarini, transportda chiptalarni band qilishga imkon yaratdi. Yangi texnologiyalarning paydo boʻlishi turistik mahsulotlarni tashkil etishda va ularni sotishda sifat oʻzgarishlariga sabab boʻldi.

Xalqaro turizmning kelajakda rivojlanishi birinchi oʻrinda turistik mahsulotlarning takomillashuvi, professional turagentlik tarmoqlarining rivojlanishini, tur operatorlar mahsulotlari sohasi, marketing xizmatlarining foydalanish darajasi va inson omillari bilan bogʻliqligi boʻlib hisoblanadi.[24]

---

[24] T.B.Sodiqov, E.Rabbimov “Xalqaro turizm” T:2012

Hozirda butun dunyo boǒyicha 1 milliarddan ortiq turist sayohatga chiqmoqda. Bu esa kambagǒallikni kamaytirish, ishsizlikni qisqartirish, hamda aholi turmush darajasini koǒtarish uchun 1 milliard imkoniyat degani. Shuning uchun ham turoperatorlar har bir turist uchun kurashadilar. Chunki dunyoda deyarli 250 ta mamlakatdan 230 tasida turistik patensial bor. Ularning har biri turlicha turistik taklif bilan jahon bozorida oǒz oǒrnini topishga intilishmoqda.

Raqobatlashuv kuchli boǒlgan murakkab xalqaro turizm bozorida chuqur marketing tadqiqotlari oǒtkazgan, va shu asosda toǒgǒri marketing strategiyasini qoǒllay olgan davlatdagina xalqaro turizm rivojlanyapdi. Shuning uchun ham turoperatorlar mijozlarni barcha belgilari boǒyicha segmentlarga boǒlib oǒrganadilar va shularga mos turmahsulot yaratadilar. Bunda turistning maqsadi, daromadi, vaqti, yoshi va shunga oǒxshash belgilar asosiy omil boǒladi. Maqsadiga koǒra tasniflashga oldingi rejamizda batafsil toǒxtalganimiz sababli boshqa belgilarga toǒxtalib oǒtamiz. Shunday qilib, turistik bozorning yosh belgilari boǒyicha turlicha turistik mahsulot taklif etilishi lozim boǒlgan quyidagi segmentlarini belgilab olish mumkin:

' oǒzlari hamda ota-onalari bilan sayohat qiluvchi bolalar (14 yoshgacha);

' yoshlar (15-24 yosh);

' oilalari(bolalari) bilan sayohatga chiquvchi, nisbatan yosh, iqtisodiy faol kishilar (25-44 yosh);

' farzandlarisiz sayohat qiluvchi oǒrta yoshdagi iqtisodiy faol kishilar (45-60 yosh);

' ñuchinchi yoshò guruhiga kiruvchi turistlar (60 yosh va undan yuqori).

Birinchi segment bolalar turizmiga taaluqli boǒlib, bu yoshdagi turistlarning xatti-harakatlari (xulq -atvori), asosan, ota ï ona va boshqa yuqori yoshdagi kishilar qarorlariga bogǒliq boǒladi. Shuningdek, bolalar turistik xizmatlarining baholanishi nuqtayi nazardan alohida guruhni tashkil etishadiki, ularga nisbatan imtiyozli narxlar yoki tekin xizmatlar (masalan, joylashish, koǒngil yozish) taqdim etiladi.

Turizm bozorining muhim segmenti boǒlgan ï yoshlar, shinamlik darajasi pastroq boǒlgan joylashish, transport vositalarida arzon sayohat qilish, kechki dam

olish (barlar, diskotekalar, diskussiya klublari, qiziqishlar boôyicha uchrashuvlar, lotoreyalar, konkurslar va boshqalar) kabilarni afzal koôrishadi. YOshlarning muloqot va oôrganishga boôlgan intilishlari hamda boôsh vaqtlarining koôpligi (masalan, ta`tillar) tufayli bu segmentga yuqori darajadagi turistik faollik xos boôladi.

25-44 yoshlar atrofidagi iste`molchilar segmentiga oilaviy turizmning ustunligi xos. Buning natijasida bolalar oôyin maydonchalari, bolalar basseynlari va boshqalardan foydalanish imkoniyatlarini koôrib chiqishga toôgôri keladi. Bu ayniqsa, kurort joylarga xos.

45-60 yoshli iste`molchila segmentiga asosan iqtisodiy faol insonlar kiradi.Ularning turistik xatti-harakatlariga bolalarining istak ï xohishishlari, ehtiyojlari va qiziqishlari ta`sir oôtkazmaydi. Ushbu yoshdagi turistlar shinamlik va qulaylikka, oôzlarining professional qiziqishlariga mos keluvchi joylar bilan tanishish hamda mazmunli ekskurtsiya dasturlariga yuqori talablar qoôyishadi. Ushbu segmentlarga nisbatan turistik xizmatlarni loyihalashtirish jarayonida,
oôrta yoshlilar iqtisodiy faol guruh ekanligini inobatga olib, ish olib borish lozim.
Ya`ni, ularning turistik sayohatni amalga oshirish istaklari oôz muhitlarini oôzgartirish bilan bogôliq boôlgan ehtiyojdan kelib chiqadi. Ish ta`tillari va maktab ta`tillarining bir davrga toôgôri kelishi iste`molchilarning mazkur segmenti turizmning mavsumiyligiga asosiy sabab boôladi. Shuning bilan birga koôpchilik mamlakatlarda ta`tilni ikki qismga boôlishumumiy tendentsiyaga aylandiki, bu yil davomida sayohatni ikki marta ï biri yozda, ikkinchisi qishda amalga oshirish imkonini beradi. Bundan tashqari turistiksayohatlarni nafaqat ta`tillar davomida, balki bayram kunlarida ham amalga oshirish mumkin boôladiki, ular (bayram) dam olish kunlari bilan birgalikda turistik sayohatni amalga oshirish uchun zarur boôlgan ñboôsh vaqt blokiniò hosil qilishadi. Bunday qisqa sayohatlar (masalan, ñqishdan-yozgachaò printsipi boôyicha)ning soni yil sayin oshib bormoqda.

Bunday turdagi ñblits sayohatlarò ishtirokchilari uchun sayohat masofasi toôsqinlik qila olmaydi. Sayohatning asosiy maqsadi ï muhitni, taassurotlarni birdaniga oôzgartirish, iloji boricha koôproq narsani koôrishdir. Bunday guruhlar

uchun qabul qilish loyihasi 2-4 kun ichida boshqa dunyo (olam)ni bilish shiori ostida ishlab chiqarilishi zarur. U turistlarga maksimal darajada axborot olish imkonini beruvchi, nihoyatda jadal sur`atli boôlishi kerak. Dastur ichida, shuningdek (yoki tur narxi hisobidan yoki qoôshimcha haq evaziga), kechki tadbirlar ham kiritilishi lozim. Bunday dastur turistlarda 2-4 kunlik sayohatni emas, balki bir oy davomida davom etgan sayohat (ular shunchalik koôp narsani bilishdi va koôrishdi) taassurotini qoldirish kerak. ñUchinchi yoshò turizmi nafaqat shinamlikni talab etadi, balki xizmat koôrsatuvchi xodimlar tomonidan yuqori darajali e`tibor bildirilishini, malakali tibbiy yordam olish imkoniyatini, restoranlarda parhez ovqatlarning ham boôlishini, tinch joylarda joylashgan mehmonxonalarda oôrnashish imkoniyatlari boôlishini ham talab etadi.

ñUchinchi yoshò guruhiga kiruvchi turistlar turizmining oôziga xos tomoni shundaki, unda yaqqol darajada namoyon boôladigan mavsumiylik mavjud emas va aksincha, bunday turistlar dam olish sayohatlariga chiqayotganda turistik mavsumning ñchoôqqisidanò ï gavjum vaqtidan (iyul, avgust) qochishga harakat qilishadi, chunki bu yilning eng issiq vaqtiga toôgôri keladi (Mavsum ñchoôqqisidaò mehmonxonalarda odam koôp boôladi, qariyalarga esa odam kam boôlishi koôproq yoqadi...). Ular muloyim iqlimni ï ñbaxmal mavsumniò afzal koôrishadi. Shuningdek, ñUchinchi yoshò guruhiga kiruvchi turistlar turistik sayohat vaqtini tanlashda ta`til davri bilan chegaralanish muammosi uchramaydi.

Ijtimoiy ï iqtisodiy belgilar ï iste`molchilar segmentlarini ijtimoiy va professional mansublik, ma`lumotning umumiyligi hamda daromadlarning darajasiga qarab ajratish (belgilash)ni koôzda tutadi. Shunday qilib, iqtisodiy faol va faol boôlmagan odamlarning turistik xulq ï atvori (xatti-harakatlari)da katta farq mavjud. Professional mansublik boôyicha segmentlash turistlarni mutaxassisliklarga bogôliq holda koôplab segmentlarga belgilash (ajratish)ni koôzda tutadi. Bu professional tarzda ixtisoslashgan turizmni (masalan, bank xodimlari uchun, qishloq xoôjaligi ishchilari uchun, sanoatning turli xodimlari uchun turlar) tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Turistik xulq ï atvorga (oila, oila boshligôi, oila biror a`zosining) daromadlar

darajasi (kuchli) ta`sir etadi. Iste`molchilar daromadi darajalarining standart tasnifi mavjud emas. Biroq shuni ham inobatga olish kerakki, turistik talab borgan sayin oõrtacha yoki nisbatan past darajadagi daromadlilarining ham turizmga jalb etilishlari hisobiga kengayib borayapti, chunki muhitni oõzgartirish va sayohat qilishga bogõliq ehtiyoj eng asosiy ehtiyojlardan biriga aylanib bormoqda.

Psixografik segmentlash iste`molchilarni tavsiflashning butun bir majmuasini birlashtiradi. Umuman olganda u ñhayot tarziò tushanchasi bilan aks ettiriladi. Bu shaxsning qiziqishlari, xatti-harakatlari, fikr ï mulohazalari (dunyoqarashlari, gõoyalari) boshqa insonlar bilan boõlgan munosabatlari va shu kabi modellarni oõzida aks ettiradi.[25]

## 1.3. Xalqaro turizmni rivojlantirishning xorijiy rivojlangan mamlakatlar tajribalari

Yevropa sharqiy yarim sharda joylashgan boõlib, uning umumiy maydoni 10.5 mln.kv.km tashkil qiladi. Mintaqa turistik resurslarga juda boy boõlib, yer shari boõyicha alohida ajralib turadi. Yevropa qirgõoqlari, Atlantika va Shimoliy muz okeani va uning 10 dan ortiq daryolar, 15 ta katta-kichik koõllari, 25taga yaqin orollari, 10dan ortiq togõ tizmalari, takrorlanmas vulqonlari, xilma-xil iqlim poyaslari, rang-barang tabiat zonalari azal-azaldan sayyohlarni oõziga jalb qilib kelgan. Yevropa qadimdan turizm yuqori darajada rivojlangan dunyo regioni hisoblanadi. Fransiyaga yiliga deyarli 80 mln. dan ortiq, Italiya va Ispaniyaga 45-60 mln. kishi turistik sayohat qiladi. Shvetsariya, Portugaliya, Germaniya, Avstriya, Buyuk Britaniya, Gretsiya va boshqa shu kabi mamlakatlar ham jahonning yirik turistik markazlari hisoblanadi.Yevropa aholisi, shaharlari zich joylashgan, sanoat va qishloq xoõjaligi ishlab chiqarishi yuqori boõlgan, transport va turizm rivojlangan regiondir. Yevropa xalqaro turizm oqimining ilk bor tashkil etilgan mintaqasidir. Hozirgi vaqtda uning siyosiy xaritasida 40tadan ortiq davlatlar mavjud boõlib, ulardan 27 tasi Yevropa Ittifoqi tashkilotiga birlashgan. Yevropada dunyoning iqtisodiy jihatdan eng rivojlangan qudratli davlatlari

[25] [25] T.B.Sodiqov, E.Rabbimov ñXalqaro turizmò T:2012

(Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya Italiya va Rossiya Federatsiyasi) joylashgan.

Yevropa dunyoda eng yirik, qadimiy shaharlari, ibodatxonalari, sport inshootlari, koŏngilochar dam olish maskanlari, kurortlari, shifobaxsh mineral suvlari, dengiz playjlari, mehmonxonalar, restoranlar, pansionatlar, zamonaviy transport kommunikatsiyalari (aeroportlar, dengiz, daryo portlari, temiryoŏl, avtomabil vokzallari, yuqori sifatli avtomobil yoŏllari, tezyurar poyezdlari va havo kemalari, yuqori sifatli okean va dengiz yoŏlovchi kemalari ), rivojlangan bank va moliya tashkilotlari, xilma-xil servis xizmati koŏrsatuvchi korxonalari barchasi xalqaro turizmning rivojlanishiga juda kata imkoniyatlar tugŏdiradi. Mintaqaning eng muhim xususiyatlaridan biri ichki mintaqaviy turistik oqimning ustunligidir.

Yevropa boŏylab sayohat qilayotgan turistlarning qariyb 9/10qismi yevropalik aholidir.[26] Yer yuzi boŏyichʘ ʘlqʘrts turizm yoŏnʘlishlʘridʘgi sʘyohʘtlʘrning 78 ftsizini zʘvq ï shʘvq uchun qilingʘn sʘyohʘtlʘr tʘshkil qilgʘn boŏlsʘ, Yevrtspʘda bu kʘbi sʘyohʘtlʘrning ulushi 82 ftsiz boŏlgʘn. Fuqʘrtslʘrning koŏpchilik qismidʘzʘvq ï shʘvq uchun qilingʘn sʘyohʘtlʘr yildʘn ï yilgʘ tsrtib btsrishi kuzʘtilmtsqdʘ. Bugungi kundʘ dunyodʘ 1 milliarddan ortiq sʘyyoh turli ʘildʘgi sʘyohʘtlʘrgʘ qʘtnʘshib turʘizmʘtlʘrdʘn ftsydʘlʘnib turizm iqtistsdiyotigʘ oŏz hissʘlʘrini qoŏshmtsqdʘlʘr. Bu sʘyyohlʘrning 65% Yevrtspʘ mʘmlʘkʘtlʘri oŏzigʘ jʘlb etib kʝlmtsqdʘ.[27] ʌʘlqʘrts turizm htszirgi kundʘ ɽvrtspʘ mʘmlʘkʘtlʘrining ʘstssiy dʘrtsmʘd mʘnbʘlʘridʘn birigʘ ʘylʘnib ulgurdi. Turizm Yevrtspʘ ʘhtslisining turmush tʘrzini yaʘshilʘshgʘ kʘtʘ tʘ`sir koŏrsʘtmtsqdʘ. Turizm rivtsjlʘnishi uchun ʘstssiy turilʘrdʘn biri biznʝs histsblʘnʘdi. Yevrtspʘning bʘ`zi mʘmlʘkʘtlʘri Gʝrmʘniya, ɸngliya, Itʘliya, Frʘnsiya ʘrztsn nʘrʘdʘgi sifʘtli kiyim ï kʝchʘk mtsllʘri mʘrkʘzi qilib oŏzlʘrini dunyogʘ tʘnishtirmtsqdʘlʘr vʘ ñbʘgʘjò dʝb ntsmlʘngʘn turizm rivtsjlʘnishigʘ kʘtʘ hissʘ qoŏshib kʝlmtsqdʘlʘr. Mʘsʘlʘn, Ispʘniyadʘ bir yillik vʘlyutʘ tushumining 45% sʘyyohlik sʘvdtssi ʘizmʘtidʘn kʝlib tushsʘ, bu rʘqʘm Frʘnsiyadʘ 48% ni tʘshkil etʘdi. Shuni ʘltshidʘ qʘyd qilish

---

[26] [illegible] 2004г.

[27] UNWTO Barometr -2014 (http://tourlib.net/wto/UNWTO_Barometer_2014_02pdf)

kj rΘkki, chj t el turistlΘrining yashΘsh, ΘylΘnish vΘsΘyyohΘtgΘkj tgΘn ΞΘrΘjΘtlΘrini 100% dj b tslsΘk, uning 30%i yashΘshgΘ, 40% i tsvqΘtlΘnishgΘ, 8-10%i trΘnsptsrtgΘ, 10-12% btsshqΘqoʻshimchΘΞizmΘtlΘrgΘsΘrf qilinishi ΘniqlΘngΘn. Fransiya hozirgi kunda Yevropada eng koʻp turistlar kelib ketuvchi mamlakat boʻlib hisoblanadi. Fransiyaga kelib ketuvchi turistlarni jalb etuvchi asosiy turistik resurslar mamlakatning xilma xil boy tabiiy resurslari (Alp togʻlari, yassi togʻlar, karst platolari, past tekisliklar, daryo vodiylari, yam yashil oʻrmonlar)dir. Keyingi vaqtda chiqish turizmining fransuz bozorida yangi tendensiya paydo boʻldi. Shengen bitimi qabul qilingandan va birlashgan Yevropa mamlakatlari oʻrtasida viza rejimi bekor qilingandan soʻng Fransiyada qisqa muddatli safarlar ulushi oʻsmoqda. Uzoq muddatli safarlar salmogʻi esa kamaymoqda. Fransiya hamon dunyoda eng ommaviy turistik yoʻnalish boʻlib qolmoqda.

**1.3.1-jadval.**

**Xalqaro turizmda ilg'or bo'lgan 20 mamlakat.[28] (2015-yil)**

| Mamlakatlar | Turistlar soni | Tushum, mlrd. Dollar | Mamlakatlar | Turistlar soni | Tushum, mlrd. dollar |
|---|---|---|---|---|---|
| Fransiya | 83,7 | 55,4 | Malayziya | 27,4 | 22,6 |
| AQSH | 69,8 | 177,2 | Gonkong | 27,8 | 38,4 |
| Ispaniya | 65,0 | 65,2 | Avstriya | 25,3 | 20,6 |
| Xitoy | 55,6 | 56,9 | ʊailand | 24,8 | 38,4 |
| Italiya | 48,6 | 45,5 | Gretsiya | 22,0 | 17,8 |
| ʊurkiya | 39,8 | 29,6 | ȿ anada | 16,5 | 17,4 |
| Germaniya | 33,0 | 43,3 | Polsha | 16,0 | 10,9 |
| B. Britaniya | 32,6 | 45,9 | S.Arabistoni | 15,1 | 8,2 |
| Rossiya | 29,8 | 11,8 | Vetnam | 14,6 | 50,8 |
| Meksika | 29,1 | 16,3 | ȿ tsrea. Resp | 14,2 | 18,1 |

Parij shahri mamlakatda turistlarning kelishi boʻyicha yuqori oʻrinni egallaydi. Shaharda dunyoga mashhur boʻlgan Eyfel minorasi, Notrdam ibodatxonasi, eng yirik Luvr muzeyi, Napalyon Bonapart qabri, Lyuksenburg va Tyuirli bogʻlari, Disneylend koʻngilochar, dam olish manzilgohlari, ilm-fan markazlari Lya Vilett shahri kabilar beqiyos, son-sanoqsiz turistlarni oʻziga

[28] UNWTO Xalqaro turizm barometri. 13-tom. 2014.

chorlaydi. Fransiyada turizmga davlat eʼtibori shu darajada kattaki, masalan, hukumat yigʻilishlari vaqtida turizm vaziri bosh vazirning oʻng tomonidan joy oladi. Buning evaziga Frantsiyaning Yevropadagi birinchi raqamli turistik hudud ekanligi va Parij shahrini turizm hisobiga yashab, "Turistik Makka" - deb nom olishi boshqa mamlakatlar havas qilsa arzigulik holdir.

Yevropada xalqaro tashrif buyuruvchi turistlar soni boʻyicha Fransiyadan keyingi oʻrinda Ispaniya davlati egallaydi. Bu ikki mamlakat har yili 80mlndan ziyod turistlarni qayd etmoqda.[29] Bu yerda asosiy turistlar oqimi Gʻarbiy Yevropa mamlakatlariga toʻgʻri keladi, Ispaniyada har beshinchi dam oluvchi Germaniya yoki Buyuk Britaniya fuqarosidir. Ispaniya xorijiy sayyohlarga plyajlari, dam olishdan tashqari kengkoʻlamli ekskursiya dasturlarini taklif qilib kelmoqda. Mamlakatdagi asosiy turistlar oqimi Salvador Dali teatr muzeyi, prado muzeyi, Ispaniya qiroli rezidensiyasi, ochiq osmon shahar muzeyiga yoʻnaltirilgan. Keluvchi turistlar umumiy soni boʻyicha Yevropada Italiya davlati uchinchi oʻrinni egallaydi. Italiya oʻzining xilma-xil arxitektura yodgorliklari, madaniyati, rassomlik, haykaltaroshlik san`ati bilan dong taratgan mamlakatdir. Italiyaga koʻproq Fransiya, Germaniya, Shvetsariya, Avstriya, Xorvatiya, Slaveniya, Serbiya va Chernagoriya mamlakatlari fuqarolari tashrif buyurishadi. Mamlakatda turistlar koʻproq Venetsiya, Florensiya, Pizu, albatta Rim shaharlariga borishga intiladilar. Turistlarning toʻxtovsiz oqimi Vatikanga borib ziyorat amallarini bajo keltirish uchun harakat qiladilar. Yevropada xorijiy sayohatga chiquvchi davlatlar oʻrtasida Germaniya alohida oʻrinni egallaydi. Bu yerda chet ellarga chiquvchi turistlar soni yiliga oʻrtacha 5%ga oʻsmoqda. Soʻnggi yillarda nemislar 80mln ga yaqin xorijiy safarni amalga oshirishdi. BTT ma`lumotlariga koʻra, Germaniya turistlarining xorijiy sayohatga chiqishi 2020-yilga borganda ikki barobarga oʻsishi kutilmoqda va uning umumiy soni 163.5mln kishiga teng boʻlishi moʻljallangan. Jahonda har oʻn safardan biri nemis fuqarolari ulushiga toʻgʻri keladi va bu koʻrsatkich boʻyicha Germaniya oʻzining yetakchiligini saqlab qoladi. Chiqish turizmining nemis bozorida avj olishi xarakterlidir. 90% dan ortiq safarlar Yevropa hududlarida

[29] Manba:Infographics.com

amalga oshiriladi.

BTT ma`lumotlariga koôra eng yirik oônta turistik oqimlarning beshtasi Germaniyada tashkil qilinadi. Nemislar oôz ta`tillarini Gôarbiy va Janubiy Yevropada: Ispaniya, Italiya, Avstriya, Fransiya, Gretsiya, Niderlandiya, Shvetsariyada oôtkazishni ma`qul koôrishadi. Keyingi vaqtlarda turistlar uchun Markaziy va Sharqiy Yevropa- Polsha, Chexiya, Vengriya ommaviy turizmda mashhur boôlib bormoqda. Turistik yoônalish sifatida bu mamlakatlarning bosh ustunliklaridan biri arzonligidir.[30] Bugungi kunga kelib Fransiya Ispaniya va Italiyada ichki turistik almashinuv kuchli kechayapti. BTT bashoratlariga koôra 2020-yilga borib ularning turistik birinchiligi oôrniga yevropaliklarning Oôrta Yer dengizi Yevropa qismi turistik markazlariga sayohat qilishi egallaydi.[31]

Yevropada davolanish-sogôlomlashtirish turizmi. Uzoq vaqtlardan beri asosiy davolash-sogôlomlashtirish turizmi Markaziy va Sharqiy Yevropada, shuningdek, Gôarbiy Yevropada joylashgan sobiq sotsialistik mamlakatlar kurort ishlarida boy an`analarga va tajribaga egadirlar. Mijozlarni davolash, dam olishi, sogôligôini tiklashi uchun tabiiy iqlim sharoitlari, xastaliklarni oldini olishning zamonaviy usullari va boshqa keng xizmat sohalari mavjud. Ular kurort xizmatlarini arzon baholab, lekin yaxshi samarali davolashni yoôlga qoôyib Yevropa davolash sogôlomlashtirish turizmi bozorida ustunlikni egallab turishibdi. Ular bu bozorda katta ulushni nazorat qiladilar. Sanatoriya-kurort davolanishiga turistik kelishuvlar boôyicha Yevropa mamlakatlari oôrtasida yetakchilikni Chexiya egallab kelyapti. Eng katta va mashhur chex salomatlik markazi Karlova Vari hisoblanadi. Chexiya milliy turistik ma`muriyati ma`lumotlariga koôra, har yili jahonning 70 mamlakatidan 50mln.dan ortiq kishi davolanish uchun, 2mln ekskursantlar tashrif buyurishadi. Chexiya hududida Karlova Varidan tashqari yevropada eng qadimiy kurortlardan biri Teplitse, dunyoda birinchi radonli sanatoriy-kurort Yaximov, Marian-Lazni va Frantishkavi-Lazni, Lugachovitse, shuningdek, Yevropada birinchi ochilgan Yanske-Lazni bolalar falajini davolashga

30 A.Norchaev. ñXalqaro turizmò Tosh 2007
31 Manba: UNWTO Highlights 2013 (www.worldtourism.org)

ixtisoslashgan kurortlari bor. Yevropa davolash-sogʻlomlashtirish turizmi bozorida Chexiyaning bosh raqobatchisi Vengriya hisoblanadi. Uni haqli ravishda termal hammomlar(yer osti issiq suvi) yurti deb atashadi. Bu sutkada quduqlar va tabiiy issiq suv manbalaridan yarim million kubgacha termal suvlar otilib oqadi. Ularning bir qismi tibbiyotda foydalaniladi. XXI asrda Vengriya Yevropada choʻmilish va suv bilan davolanishning markaziga aylandi. Bugungi kunda 22 ta Vengriya shahri va 62 posyolkasi davolanish maskanlari sifatida rasman tan olingan. Balneologik kurortlarga tashrif buyurish Vengriyaga sayohatlarning bosh motivatsiyalaridan biri hisoblanadi. Mamlakatga kelgan turistlarning har uchinchisi suvlarga brogan. Vengriya kurortlarida dam olish va davolanish, ayniqsa, Germaniya, AQSH, Avstriya, shuningdek Vengriyaning oʻzini aholisi oʻrtasida juda mashhur. Vengriya poytaxti Budapesht shifobaxsh suvlar sshahri maqomini olgan. Uning diqqatga sazovor joylaridan biri sharq hammomlari hisoblanadi. U 16-17 asrlar turk hukmronligi davridan buyon saqlanib kelmoqda va hozirgacha ishlab kelyapti. Polsha davolanish-sogʻlomlashtirish turizmi bozorida balneologik va balchiq bilan davolash kurortlari- Svinouysse, Kamen-Pomorski, Kolobjeg Boltiq dengizi qirgʻoqlarida joylashgan. Ular chex va venger kurortlariga nisbatan kam tanilgan va hozircha ular bilan raqobatlasha olmaydi. Zarur reklama yoʻqligi tibbiy xizmat darajasining uncha yuqori emasligi, shuningdek, sovuq dengiz polyak kurortlari imkoniyatlarini cheklab qoʻyayapti. Polshada davolanish sogʻlomlashtirishning dengiz boʻyi turizmini rivojlantirishga xuddi uch Boltiqboʻyi davlatlari Estoniya, Latviya, Litva singari hududdagi noqulay ekologik vaziyat ham salbiy ta`sir qilayapti. Bakterial ifloslanish darajasining oshishi munosabati bilan ayrim Boltiq boʻyi plyajlari yopilayapti, choʻmilish ta`qiqlanmoqda. Shuning uchun Polshaning dengiz boʻyi rayonlariga turistlar kelishi keskin qisqarib ketayapti. Chexiya, Vengriya va Polshadan tashqari, davolanish sogʻlomlashtirish turizmi Bolgariya, Ruminiya, sobiq Yugaslaviya respublikalarida ham rivojlanmoqda. Bu mamlakatlar issiq dengizga chiqish imkoniyatiga ega boʻlishib, davolanish sogʻlomlashtirish dasturida asosan dengiz boʻyi iqlimi tipidagi kurortlarga taklif qiladi. Bundan tashqari Xorvatiyada Yevropada yagona naftalan-turli xildagi neft

konlari ochilgan va ular tibbiyotda foydalaniladi. Uning bazasida barpo etilgan Ivanich Grad kurorti tayanch harakat apparatlari, teri kasalliklariga duchor boôlgan mijozlarni qabul qiladi. Gôarbiy Yevropa mamlakatlari kurortlari uzoq an`analari bilan ajralib turadi. Bu yerda dunyo ahamiyatiga molik kurortlar joylashgan: Germaniyada Baden-Baden va Visbaden, Fransiyada Vishi, Belgiyada Spa va boshqalar. Ular ayniqsa, 19 asrning 2-yarmida nafaqat dam olish, balki shifobaxsh joy sifatida rivojlana boshlagandan keyin mashhur boôlib ketdi. Avstriya haqli ravishda oôzining kurortlari bilan faxrlanadi. Ulardan eng mashhuri Gastyan daryosi vodiysidagi janubiy Zalsburg provinsiyasida joylashgan Badastyan balneologik kurortidir. U issiq radon buloqlari bazasida barpo etilgan. Avstriya balneologik va iqlim kurortlaridan tashqari koôl boôyi davolash sogôlomlashtirish turizmi safarlarini ham ragôbatlsntirmoqda. Har yili Atterze, Mondze, Toplitze koôllari 1mln turistni jalb etadi. Kelayotgan butun turistlarning 20%i davolanish maqsadida kelayotganlar tashkil etadi. Shvetsariya kurortlari soni boôyicha Avstriya va Germaniyadan biroz orqada boôlsada, ammo davolash va sogôlomlashtirish turizmi yoônalishi boôyicha mashhurlikda ulardan qolishmaydi. Shvetsariyaliklar va xorijiy mehmonlarda balneologik salomatlik maskanlari va ayniqsa, togô iqlimi kurortlari shuhrat qozongan. Shvetsariya birinchilar qatorida oôt-oôlanlar bilan davolashni tajriba qilib koôrgan. Oôt olanlar qaynatmalari va damlamalari organizm himoya qobiliyatini mustahkamlaydi. Markazlarda dermatoz, modda almashinuvi buzulishi, diabet, boôgôin kasalliklari, asab buzilishlari muvaffaqiyatli davolanadi. Janubiy Yevropa davolash-sogôlomlashtirish turizmi bozori asosan Italiya bilan tanilgan. Uning balneologik kurortlari mamlakat shimoli-sharqida Emilya-Romaniya viloyatida va nafaqat termal suvlari, balki shifobaxsh balchigôi bilan ham nim qozongan Iskya orolida toôplangan, Portugaliya, Ispaniya, Gretsiya turistlarni oôzlarining dengiz boôyi iqlim kurortlari bilan jalb etadi. Bu kurortlar dam olish va koôngil ochish zonalari sifatida shuhrat qozongan. Shimoliy Yevropada davolash-sogôlomlashtirish turizmi past darajada rivojlangan. Daniya, Norvegiya, Finlandiya, Shvetsiya va Niderlandiya kabilar dengiz boôyi kurortlari bilan ajralib turadi. Ammo ular

koʻproq ichki ahamiyatga egadirlar. Finlyandiyada kongresslarga uyushtiriladigan turizm nihoyatda keng rivojlangan. Uni hattoki turizm hamjamiyatida "kongress turizmi mamlakati" deb ham ataydilar. Xizmat safariga yuborilgan mutaxassislar, shuningdek kongress, simpoziumga kelganlar oʻz mamlakati yoki xizmat joyi tomonidan ta'minlanadi va demak, oʻzlari bilan shu mamlakatga pul mablagʻlari olib kiradilar.

**1.3.2-jadval.**

**Xalqaro turizmda sayyohlarni eng ko’p chiqaradigan 20 ta mamlakat.[32]**

**(2015-yil)**

| Mamlakatlar | Turizmga xrajatlar, mlrd. dollar | Mamlakatlar | Turizmga xrajatlar, mlrd. Dollar |
|---|---|---|---|
| Fransiya | 47,8 | Singapur | 23,9 |
| AQSH | 110,8 | Gonkong | 22,0 |
| Ispaniya | 18,2 | Belgiya | 23,8 |
| Xitoy | 164,9 | Niderlandiya | 21,4 |
| Italiya | 28,8 | Yaponiya | 19,3 |
| Germaniya | 92,2 | Kanada | 33,8 |
| Buyuk Britaniya | 56,9 | Shvetsiya | 18,5 |
| Rossiya | 50,4 | Saudiya Arabistoni | 24,1 |
| Avstraliya | 26,3 | Norvegiya | 18,7 |
| Braziliya | 25,6 | Koreya Resp. | 23,6 |

Aytish kerakki, bunday amaliy turizm odatda yetarlicha daromadli hisoblanadi, chunki ishbilarmon - turistlar va olimlar bunday safarlarda boshqa toifadagi turistlarga nisbatan uch - toʻrt baravar koʻp pul sarflaydi, chunki ular firma tomonidan ta'minlanadi va qoʻshimcha tarzda oʻz shaxsiy mablagʻlarini sarflash imkoniyatiga ham ega. Idoralar, firma va jamgʻarmalar qimmat

[32] UNWTO Xalqaro turizm barometri, 13-tom. Iyun 2015-yil

mj hmonxona, transport, yaxshi ovqatlanish, madaniy tadbirlar uchun mablagôni ayamaydilar. Ishbilarmonlik turizmidan tushadigan foyda juda xam yuqoridir.[33]

BTT ma`lumotlariga koôra Rossiya Federatsiyasi 133 davlat oôrtasida turistik imkoniyati boôyicha 5-oôrinda va madaniy tarixiy turizm potensiali boôyicha 9-oôrinda turadi. Rossiya Federatsiyasining turizm bozorida plyaj turizmi 38%ni, madaniy turizm 20%, va biznes turizmi 18%ni tashkil etadi. Oxirgi yillarda davlat byudjetida turizm ulushi 2%ga oshgan. Bugungi kunda Rossiyada xorijiy turistlarlarning tashrif buyurishi ma`lum miqdorda pasaygan boôlsa, davlat fuqarolarining chiqish turizmi anchagina oshgan. Rossiyada ichki turizmni rivojlantirish maqsadida koôpgina chora-tadbirlar oôtkazilmoqda. Ammo quyidagi turizm rivojlanishiga negativ ta`sir etadigan omillar ham mavjud:

1. Koôpgina ob`yektlarning sovet davrida qurilganligi;
2. Toôla darajada rivojlanmagan infratuzilma (transport va h .k);
3. Turmahsulotga boôlgan doimiy tariflarning oôsishi;
4. Davlatda yetarli darajada malakali kadrlarning yetishmasligi va bu sohada ishlovchi mutaxassislarning kamligi;
5. Turizm sohasi boôyicha mukammal oôqitadigan maxsus oliygohlarning kamligi;
6. Turizm industriyasi bilan bogôliq investitsiyalarning kamligi, qurilish ob`yektlari uchun yer uchastkalari bilan bogôliq rasmiyatchilikning qiyinligi;
7. Ichki turizmni rivojlantirish uchun davlat tomonidan ajratiladigan mablagôning yetmasligi;

BTT ma`lumotlariga koôra jalb etilgan 1 ta xorijiy turist davlat iqtisodiyotiga oôrtacha 1000yevro tashlab ketadi. Davlat esa uni jalb qilish maqsadida ya`ni turmahsulot reklamasi va hokazolarda 3 yevrodan 10 yevrogacha sarflaydi. Rossiya davlatida esa 1 ta xorijiy turistni jalb etish uchun 0.69 yevro sarf etiladi.[34]

Bu davlatlarda turizm shiddatli darajada oôsib ketganligining asosiy sabablari, avvalo tabiat tomonidan inôom etiladigan sharoitning mavjudligi, iqtisodiyotning yuqori darajada rivojlanganligi, rivojlangan iqtisodiyot turizm

---

[33] Aliyeva M. ñTuristik mamlakatlar iqtisodiyotiò T;2002
[34] Manba:www.worldtourism.org- BTT maôlumotlari.

infrastrukturasi va industriyasini ham mukammallashishiga zamin yaratganligi, davlatlar tomonidan uzluksiz ravishda ishlab chiqilayotgan turizmni rivojlantirish dasturlari hamda eôtibori, shuningdek tinimsiz ravishda turmaxsulot narxining va tarkibining  diversifikatsiya qilinib turilishi Yevropa davlatlarining butun dunyo davlatlari ichida turizm boôyicha lider davlatlarga aylantirdi.

# II-BOB. O’ZBEKISTONDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH YO’NALISHLARI VA XUSUSIYATLARI

## 2.1. O’zbekiston iqtisodiyotida turizmning tutgan o’rni

Turizm ham respublikamiz iqtisodiyotida qishloq xo‘jaligi, sanoat, transport va boshqa makroiqtisodiy tarmoqlar qatori o‘zining munosib o‘rniga ega bo‘lishi uchun yetarlicha resurslarga ega. Mamlakatimizda turizmni rivojlantirish imkoniyatlari bo‘yicha Markaziy Osiyo davlatlari ichida yetakchi hisoblanadi. CHunki mamlakatimiz jahon sivilizasiya o‘choqlaridan biri sifatida, o‘zining asori-atiqalari bilan mashhurdir. Bizning madaniyatimiz dunyo xalqlari san’at, arxitektura, shaharsozlik va ko‘pgina sohalarga ulkan hissasini qo‘shgan. Tarixdan ma’lumki, mintaqaning rivojlanishida ma’lum darajada turizmning ham hissasi bo‘lgan. CHunki, mamlakatimiz “Buyuk ipak yo‘li” markazida joylashgan, shuning uchun savdo-sotiq va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy aloqalar rivojlangan bo‘lib, ulardan tushgan daromatlar mamlakat xazinasiga katta ulush qo‘shgan. Mustahkam ko‘p tarmoqli iqtisodiyotga ega bo‘lish uchun iqtisodiy qaram bo‘lmaslikkina emas, balki har bir davlat o‘z iqtisodiyotini mustaqil yaratishga va rivojlantirishga xarakat qilishi lozim. Bu jarayon davrida ushbu davlat xalqning turmush darajasi yomonlashmasligi, hamda jamoatchilikdan talab qilinadigan sarf xarajat juda kam miqdorni tashkil qilishini maqsadga muvofiq deb xisoblaydi.

Har qanday davlat uchun esa turizm ana shunday amaliy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi, ayniqsa xalqaro turizm iqtisodiyotning boshqa muhim manbaa tarmoqlariga nisbatan katta sarmoya talab qilmaydi. Ayni vaqtda milliy iqtisodiyotimizda turizmning o‘rniga nazar tashlasak, shu narsa ayon bo‘ladiki mavjud resurslardan har doim ham samarali foydalanishga erishilmayapti. Mamlakatimizda turizm rivojlanishi jamiyatning yangilanish davriga to‘g‘ri kelib, u asta-sekinlik bilan sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar jarayonini hisobga olgan holda uning sifatini yanada yaxshilashga to‘g‘ri kelmoqda. Rivojlangan mamlakatlar tajribasidan ma’lumki, iqtisodiyotning rivojlanishi turizm sohasi bilan ham bog‘liq. SHuning uchun ham, bozor iqtisodi asosida xo‘jalik yuritishga o‘tayotgan

mamlakatlarda xalqaro turizmga katta eõtibor qaratish katta ahamiyatga ega. Oôzbekiston sharoitida turizmni hozirgi zamon talablariga javob bera oladigan darajada rivojlantirish uchun yetarlicha turistik resurs imkoniyatlari borligini hisobga olsak, u holda bu sohani iqtisodiyot uchun, umuman jamiyatning rivojlanishi uchun gôoyat muhim ahamiyati borligi maõlum boôladi. Ayni vaqtda, respublikamizda turizmni rivojlanishi amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohatlarga, hamda mavjud resurslardan samarali foydanalish bilan bevosita bogôliqdir. Oôzbekiston mustaqillikka erishgandan keyingi dastlabki yillardan boshlab iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida tub islohatlar va yangilanishlar boshlandi. SHu oôtgan davr mobaynida, mamlakatimiz oôz iqtisodiyotini rivojlantirishda jahon tajribasidan keng foydalanmoqda. SHu oôrinda turizm sohasida ham tub islohatlar olib borilib, davlat tomonidan katta imkoniyatlar yaratilmoqda.

Jumladan, Oôzbekiston Respublikasi Prezdentining 1992 yil 27 iyuldagi ñOôzbekturizmò Milliy Kompaniyasini tashkil etishò, 1995 yil iyuldagi ñBuyuk ipak yoôlini tiklash va xalqaro turizmni rivojlantirishda Oôzbekiston Respublikasining faol qatnashishini taõminlashòga oid farmonlari, 1997 yil Butunjahon Turistik Tashkiloti (BTT) ekspertlar guruhi bilan ñOôzbekturizmò Milliy Kompaniyasi hamkorligidagi ñOôzbekistonda turizmni barqaror rivojlantirish rejasiò, 1999 yil qabul qilingan ñTurizm toôgôrisidaòdagi qonun hamda, ñTurizmni 2005 yilgacha rivojlantirish dasturiò, Vazirlar Mahkamasining 2001 yildagi ñCHimyon-CHorvoq kurort zonasida tabiat boyliklarini saqlash, sogôlomlashtirish va dam olishni rivojlantirishni tartibga solishning qoôshimcha chora-tadbirlari toôgôrisidaògi qarori[35] turizm sohasini rivojlanishiga katta yoôl ochmoqda. Yuqoridagi qaror va Farmonlar asosida shu davr mobaynida respublikamizning koôpgina mintaqalaridagi tarixiy, diniy obidalar, buyuk siymolar qabrlari, dahmalari, masjidu madrasalarini qaytadan tiklash va taõmirlash ishlari keng miqiyosda amalga oshirildi. Dengiz va okeanlarga chiqish imkoniga ega boôlish, sayohatchilarning davlatlarga jalb etilishida alohida oôrin tutadi, biroq Oôzbekiston bunday imkoniyatlarga ega boôlmasligiga qaramay, u Markaziy

[35] www. Uza.uz.- Oôzbekistion Milliy Axborot Agentligi

Osiyoning yoʻllar tuguni chorrahasida joylashgan. Bu esa nafaqat harakatlarning, tovar almashish, texnologiyalar va uskunalar ayirboshlash uchun, balki turizmni rivojlantirish uchun ham qulay imkoniyatlar yaratadi. Respublikamiz xududidagi 4 mingdan ortiq arxitektura yodgorliklari YUNESKO himoyasiga olingan. Yaqinda Amerikaning xalqaro doiralarda tan olingan va katta nufuzga ega boʻlgan "Xaffington post" internet nashri Samarqandni inson oʻz umri davomida hech boʻlmaganda bir marta borib koʻrishi albatta zarur boʻlgan dunyodagi 50 ta shaharning biri sifatida eʼtirof etdi va ana shu shaharlar roʻyxatiga kiritdi.[36]

Oʻzbekistonning rekreatsiya resurslari yil mobaynida sayohatchilarning qabul qilish va ular uchun turli xildagi sayohat yoʻnalishlarini tashkil etish imkoniga ega. Koʻpgina xorijiy ekspertlarning fikriga koʻra, Markaziy Osiyo mintaqasi, ayniqsa, Oʻzbekiston kuchli turistik potensialga ega, bu esa koʻpgina sayohatchilarni oqimini oʻziga jalb etadi.

Oʻzbekistonda 1993–2010- yillarda turizm sohasida xizmatlar hajmi oshishining barqaror surʼatlari kuzatilmoqda. Agar 1993- yilda Oʻzbekistonda turizmning barcha turlari boʻyicha 461 ming kishiga xizmat koʻrsatilgan boʻlsa, "Oʻzbekturizm" MKning maʼlumotlari boʻyicha 2015- yilda xizmat koʻrsatilgan chet ellik va mahalliy turistlarning umumiy soni 1 mln kishidan oshgan boʻlib, shu jumladan, turizm sohasi korxonalari tomonidan 463,4 ming nafar chet ellik turistlarga xizmat koʻrsatilgan[37]. 1993- yilda mamlakatimizda bor yoʻgʻi 4 ta xususiy turistik firmasi boʻlgan boʻlsa, hozirgi paytda turizm xizmatlarining nodavlat sektorida 865 ta turistik firmasi, shu jumladan, umumiy sigʻimi 20 ming oʻrindan iborat 520 dan ortiq mehmonxona va 330 ga yaqin turoperator va turagentlar faoliyat olib bormoqdalar. Bu raqamlar turizmning barqaror rivojlanish sari borayotganligidan dalolat beradi.[38]

**2.1.1-jadval.**

---

[36] Karimov I.A. Oʻzbekiston Respublikasi prezidenti I.Karimovning BMT Jahon sayyohlik tashkiloti Ijroiya Kengashi 99-sessiyasining ochilish marosimidagi nutqi. Xalq soʻzi, 2014-yil 3 oktyabr.

[37] http://uzbektourism.uz.

[38] Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Fan, taʼlim, madaniyat va sport masalalari qoʻmitasining 2010- yil 25- iyundagi "Oʻzbekiston turizm salohiyatini oshirish va sohani huquqiy tartibga solish: muammo va yechimlar" mavzuyidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallaridan.

**O‘zbekistondagi turizm sohasining 2006–2013-yillar davomidagi rivojlanish dinamikasi**[39]

| № | Ko‘rsatkichlar | 2006 y. | 2007 y. | 2008 y. | 2009 y. | 2010 y. | 2011 y. | 2012 y. | 2013 y. |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1. | Ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi – jami mln.so‘m | 45850,3 | 60274,4 | 74400,3 | 93303,4 | 153341,3 | 166433,9 | 235400 | 306700 |
| 2. | Turistlarga xizmat ko‘rsatish – ming kishi | 656,7 | 723,93 | 791,4 | 870,9 | 966,3 | 1022,5 | 1200,8 | 2028,6 |
| **Shu jumladan** | | | | | | | | | |
| | Qabul | 493,6 | 597,5 | 649,1 | 712,55 | 871,5 | 949,1 | 1103,6 | 1669,4 |
| | Ulardan xorijiy turistlar | 272,6 | 343,5 | 370,1 | 383,8 | 410,5 | 463,4 | 511,7 | 600,1 |
| | jo‘natish | 163,1 | 147,92 | 142,3 | 158,35 | 94,7 | 73,4 | 97,2 | 359,2 |
| | Xorijga | 23,8 | 24,5 | 30,4 | 27,24 | 30,8 | 30,4 | 40,9 | 191,6 |
| | MDH davlatlariga | 3,7 | 7,4 | 7,4 | 7,36 | 2,1 | 1,2 | 1,1 | 7,5 |
| | O‘zbekiston Respublikasi | 135,6 | 116,02 | 104,5 | 123,75 | 61,8 | 41,8 | 55,2 | 160,1 |
| 3. | Xizmatlar eksporti, ming AQSH dollarida | 42745,9 | 51367,9 | 62812,7 | 98680,7 | 121399,2 | 155350,3 | 178978,8 | 615457,8 |

2013- yilda jami keluvchi turistlarning soniga nisbatan dam olish va sog‘lomlashtirish maqsadida kelganlar 13,1% ni, tadbirqorlik va kasbiy maqsadlarda kelganlar 21,9% ni, boshqa va shaxsiy maqsadlarda keluvchilar soni 65% ni tashkil etdi. O‘zbekistonga keluvchi xorijiy turistlarning aksariyati Toshkent – Samarqand – Buxoro – Xiva yo‘nalishi bo‘yicha sayohat qiladilar. Chunki O‘zbekiston turizm infratuzilmasi aynan shu mintaqalarda yaxshiroq rivojlangan hamda Buyuk Ipak yo‘liga taalluqli ko‘pgina obyektlar aynan shu joylarda saqlanib qolingan (O‘zbekistonga guruhlarda tashrif buyuruvchi turistlarning aksariyati Buyuk Ipak yo‘li yo‘nalishi bo‘yicha harakatlanadilar). Shuningdek, Surxondaryo, Qashqadaryo va Farg‘ona vodiysi viloyatlarida ham turistlarni jalb etishi mumkin bo‘lgan ko‘plab muhim turistik jozibador manzillar mavjud bo‘lsa-

[39] "O'zbekturizm" MK ning statistik ma'lumotlari

da, turistik infratuzilmaning rivojlanmaganligi tufayli turistlarning bu joylarga kelishlariga toósqinlik qiladi. Bu kabi kamchilarni bartaraf etish maqsadida hukumatimiz tomonidan Qamchiq dovonidan oótuvchi yoól qayta taômirlandi. Samarqanddan Surxondaryoga, Toshkent shahridan Buxoro va Samarqand shaharlariga turistlarni tashish uchun elektrlashtirilgan yangi temir yoól qurildi. Toshkentï Samarqand yoónalishini tashkil etuvchi 344 kilometrli masofani atigi 2 soatda bosib oótadigan, yuqori tezlikda harakatladigan ñTalgoï 250ò rusumli yoólovchi tashuvchi elektropoyazdlar qatnovi yoólga qoóyildi. Turizm rivoji nafaqat mamlakat yalpi ichki mahsulotining hajmi ortishi, aholi bandligini taôminlash va daromadlari oósishiga bevosita taôsir koórsatadi. Hozirda dunyo boóyicha turizm sohasida 195 milliondan ziyod kishi, yaôni, dunyodagi jami band aholining qariyb 8 foizi ishlaydi. Bu esa yangi barqaror hamda yuqori haq toólanadigan ish oórinlari yaratish borasida turizm imkoniyatlari ancha yuqori ekanini koórsatadi.Turizm aholi bandligini taôminlash, ayni paytda, mintaqalar iqtisodiyotini rivojlantirishning muhim manbaiga aylanmoqda koórsatayapti.




**2.1.2-rasm. O‘zbekistondagi turizm sohasining 2006–2013-yillar davomidagi rivojlanish dinamikasi[40]**

---

[40]ñOózbekturizmò Milliy Kompaniyasining statistik maôlumotlari

Hozirda respublikamizda 865 ta turistik tashkilot faoliyat koórsatmoqda. Faoliyati asosan chet ellik sayyohlarni jalb etish va ularga xizmat koórsatishga moóljallangan 520 ga yaqin turistik kompaniya muvaffaqiyatli ishlab turibdi. 2012 yilda sayohatchilar sonining oósishi 2011 yilga nisbatan 17,5% chet ellik turistlarga xizmat koórsatishdan tushgan daromadlar esa 15% oósgan. Bu raqamlar turizm sohasini rivojlantirish orqali aholi bandlik darajasi va turmush farovonligini oshirish imkoniyatlari yuqori ekanini yana bir bor koórsatib turibdi. Ammo shunga qaramay, mamlakatimizning bir qator mintaqalarida turizm infratuzilmasini izchil rivojlantirishga yetarli eòtibor qaratilmayapdi. Turizmning taólim, ilmiy, ekologik, sport-sogólomlashtirish kabi yoónalishlarini rivojlantirish uchun qoóshimcha shart-sharoit yaratish zarur. Koórsatilayotgan servis xizmatlari sifatini zamonaviy talablar darajasida oshirish, sayohatchilarni jalb etishning samarali shakl va usullaridan foydalanish, milliy turizm industriyasiga yangi zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish borasidagi ishlarni takomillashtirish talab etiladi. Taókidlash kerakki, turizm sohasida malakali kadrlar tayyorlash, turizm infratuzilmasini takomillashtirish, servis va xizmat koórsatishning rivojlanishi koóplab yangi ish oórinlari ochilishiga zamin yaratadi. Yurtimizda turizm boóyicha amalga oshirilayotgan faoliyatining asosiy yoónalishlaridan biri hududiy iqtisodiyot, ijtimoiy infratuzilma hamda mehnat resurslarini mutanosib tarzda rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, shu asosda hududiy bandlik siyosati samaradorligini taôminlashdan iboratdir. Turizm sohasida yangi ish oórinlari tashkil etish koórsatkichlarining oósishi aholini ish bilan taôminlashga oid davlat va hududiy dasturlarning ijro etilishiga ijobiy taôsir koórsatadi. Bundan tashqari, turizm xizmati koórsatish sohasida statistik hisobot tizimini takomillashtirish masalasini koórib chiqish zarur. Chunki amaldagi statistika tizimi chet ellik sayyohlarga xizmatlar koórsatish evaziga keladigan daromadlarni toóliq hisobga olish imkonini bermaydi. Mamlakatimizda sayyohlar oqimning asosiy qismi turistik markazlar ð Samarqand, Buxoro va Xiva shaharlariga toógóri kelmoqda. Vaholanki, yurtimizning bir qator boshqa

mintaqalarida ham turizmni rivojlantirish imkoniyatlari katta. Bu ichki turizmni rivojlantirish sohasida rejalashtirish va marketing masalalariga tizimli yondashuv zarurligini koórsatadi. Ichki turizmni rivojlantirish yalpi ichki mahsulotda uning ulushi oshishi natijasida bandlikka oid muammolarning hal qilinishiga xizmat qilsa, maônaviy-mafkuraviy jihatdan fuqarolarimiz, ayniqsa, yoshlarimizning yurtimizdagi tarixiy maskanlar, boy madaniy meros obidalari bilan tanishish imkoniyatlarini kengaytirish orqali ularda vatanparvarlik tuygóusini mustahkamlashga zamin yaratadi.




**2.1.3-rasm. O‘zbekiston Respublikasiga 2013- yil mobaynida xorijiy fuqarolarning kelishi (rasmiy deklaratsiyadan o‘tgan, kishilar hisobidan)[41]**

Shu oórinda bolalar, yoshlar, nogironlar va kam taôminlangan, ijtimoiy yordamga muhtoj aholi turizmi, yaôni, ularning ekskursiyalari uchun shart-sharoit masalasini jiddiy oóylab koórish talab etiladi. Men ichki turizmni rivojlantirish strategiyasiniishlab chiqish zarur, deb hisoblayman.

Oózbekiston ï zamonaviy sayyohlik infratuzilmasiga ega mamlakat. Mamlakatimizga 2013-yilda dunyoning 70 dan ortiq davlatidan sayyohlar tashrif

[41] Oózbekiston Respublikasi Statistika Qoómitasi maôlumotlari

buyurdi va ularning yillik soni 2 milliondan oshdi. Oótgan ikki yil mobaynida bu koórsatkich 43 foizga oósdi, joriy yilning birinchi yarmida esa 1 milliondan ortiq chet ellik sayyoh yurtimizga tashrif buyurdi. 2013-yilda sayyohlik xizmatlari eksporti hajmi 615 million dollardan ziyodni tashkil etdi. Bugungi kunda turizm sohasida 200 mingdan ortiq kishi mehnat qilmoqda, bu tarmoqning mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 2 foizdan oshdi. Oózbekistonda 550 ta sayyohlik kompaniyasi ï turoperatorlari 339 ta mehmonxona faoliyat yuritmoqda, mamlakatimizdagi tarixiy obyektlar, arxitektura va shaharsozlik obidalarining aksariyatini qamrab olgan 110 ta xalqaro sayyohlik yoónalishi boóyicha xizmat koórsatilmoqda. Bu yoónalishlarning 65 tasi tarixiy-madaniy meros obyektlari, 30 tasi tabiiy-rekreatsion, 15 tasi sogólomlashtirish turizmi elementlarini oóz ichiga olgan ekologik yoónalishlardir. Oótgan davrda Toshkent, Samarqand, Buxoro, Urganch, Fargóona va Navoiy shaharlari aeroportlari modernizatsiya qilindi va bugungi kunda Oózbekistonda 11 ta xalqaro aeroport faoliyat yuritmoqda. Milliy aviakompaniyamiz zamonaviy ñEyrbasò va ñBoingò avialaynerlari bilan taôminlangan. Ushbu samolyotlar Yevropa, Osiyo, Yaqin Sharq va Shimoliy Amerikaning 50 dan ortiq shaharlariga muntazam parvozlarni amalga oshirmoqda.[42] Toshkent-Samarqand-Toshkent yoónalishi boóylab Ispaniyaning ñTalgoò kompaniyasida ishlab chiqarilgan, yuqori tezlikda harakatlanadigan zamonaviy elektr poyezdlarining har kungi qatnovi yoólga qoóyilgan. Shuni alohida taôkidlash kerakki, yuqori tezlikda harakatlanadigan ñAfrosiyobò poyezdi qatnay boshlaganidan buyon yurtimizda chet ellik sayyohlar soni sezilarli darajada koópaydi. Buxoro va Qarshi shaharlarigacha yuqori tezlikda harakatlanish uchun moóljallangan temir yoól tarmoqlarini elektrlashtirish va qurish boóyicha loyihalar amalga oshirilmoqda. Bu esa turizm rivoji uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Turizm infrastrukturasini rivojlantirish uchun davlatimiz nafaqat havo yoóllari va temir yoóllar holatini yaxshilashga, balki avtomobil yoóllari sifatini yaxshilash borasida ham qator ishlarni amalgam oshirmoqda. Jumladan, Oózbekistonda

[42]Karimov I.A. Oózbekiston Respublikasi prezidenti I.Karimovning BMT Jahon sayyohlik tashkiloti Ijroiya Kengashi 99-sessiyasining ochilish marosimidagi nutqi. Xalq soózi, 2014-yil 3 oktyabr.

so'nggi 5-yilda umumiy qiymati qariyb 3 milliard dollarlik investitsiyalar hisobidan uzunligi 2600 kilometr bo'lgan zamonaviy avtomobil yo'llarini qurish va rekonstruksiya qilish ishlari amalga oshirildi, shuningdek, kempinglar, yonilg'i quyish shoxobchalari, ovqatlanish va maishiy xizmat ko'rsatish maskanlarini o'z ichiga olgan ko'plab yo'l bo'yi infratuzilma obyektlari barpo etildi. Faqatgina joriy yilning o'zida xalqaro turizmning asosiy tuzilmasini rivojlantirish uchun jami investitsiyalarning 580 million dollardan ortig'i yo'naltirildi va bu boradagi o'sish o'tgan yilga nisbatan 19 foizdan ziyodni tashkil etdi.[43] Bunday katta raqamlar kelgusida turizm sohasiga katta o'zgarishlarni yetaklab kelishi tayin, chunki sohani rivojlantirishga yo'naltirilayotgan xarajatlar o'z samarasini berishini so'nggi yillarda barqaror rivojlanayotgan turizm dinamikasi isbotlamoqda. O'zbekiston Parij, London, Berlin, Rim, Tokio, Madrid va dunyoning boshqa shaharlarida o'tkazilayotgan yirik sayyohlik ko'rgazmalarida muntazam ishtirok etib kelmoqda.

## 2.2. O'zbekistonda ichki va milliy turizmni rivojlantirishning hozirgi holati tahlili

Rivojlangan mamlakatlarda turizm uyg'un holatda taraqqiy etadi, ichki va qabul qilish turizmida balans mavjud. Ichki turizm milliy turistik resurslardan unumli foydalanish va turizm industriyasi hamda infratuzilmasini rivojlantirishga yordam beradi. Mamlakatning turistik sohadagi imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishda ichki turizmni rivojlantirish muhim o'rin tutadi. Zero, har qanday yangi turistik mahsulotga, avvalo, mahalliy sayyohlarda qiziqish uyg'otib, so'ngra uni xorijiy sayyohlarga taqdim etish samarali yo'l ekanligi xalqaro tajribada tasdig'ini topgan. Masalan, jahon sayyohlik sanoatida yetakchi o'rinni egallagan Ispaniyada aholining 90 foizi mamlakat bo'ylab sayohat qiladi. Ushbu davlatga keluvchi xorijiy sayyohlar soni esa 2015-yil yakuni bo'yicha 65 millionga yetishi kutilmoqda. Umuman olganda, biror mamlakat miqyosida turizm intensivligi 50 foizdan oshsa, ya'ni mamlakat umumiy aholisining 14 yoshdan katta qismining yarmidan ko'pi bir yilda hech bo'lmaganda bir marotaba sayohat qilsa, bu o'sha

---

[43] Manba: www,uzbektourism.uz ma'lumotlari.

mamlakatda turizm ommaviy tus olganidan dalolatdir.Mamlakatimizda sayyohlar oqimning asosiy qismi turistik markazlar ð Samarqand, Buxoro va Xiva shaharlariga toóǵóri kelmoqda. Vaholanki, yurtimizning bir qator boshqa mintaqalarida ham turizmni rivojlantirish imkoniyatlari katta. Bu ichki turizmni rivojlantirish sohasida rejalashtirish va marketing masalalariga tizimli yondashuv zarurligini koórsatadi. Ichki turizmni rivojlantirish yalpi ichki mahsulotda uning ulushi oshishi natijasida bandlikka oid muammolarning hal qilinishiga xizmat qilsa, maônaviy-mafkuraviy jihatdan fuqarolarimiz, ayniqsa, yoshlarimizning yurtimizdagi tarixiy maskanlar, boy madaniy meros obidalari bilan tanishish imkoniyatlarini kengaytirish orqali ularda vatanparvarlik tuygóusini mustahkamlashga zamin yaratadi. Shu oórinda bolalar, yoshlar, nogironlar va kam taôminlangan, ijtimoiy yordamga muhtoj aholi turizmi, yaôni, ularning ekskursiyalari uchun shart-sharoit masalasini jiddiy oóylab koórish talab etiladi. Men mamlaktimizda ichki turizmni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish zarur, deb hisoblayman.

Mamlakatimizda sayyohlik sohasini taraqqiy ettirish borasida olib borilayotgan keng koólamli ishlar jarayonida ichki turizmni rivojlantirishga alohida eôtibor qaratilmoqda va bu borada qator hududiy dasturlar hayotga tatbiq etilmoqda. Sayyohlik xizmatlari koórsatish sohasiga madaniyat, telekommunikatsiya, savdo, ovqatlanish, sanoat sohasi tashkilotlari hamda muassasalari, ommaviy axborot vositalari faol jalb etilmoqda. Mamlakatimizda ichki turizm salohiyatini keng targóib etish, hududlardagi sayyohlik bazalari, dam olish zonalari, pansionatlar, sanatoriy va kurortlar, rekreatsion va ekoturistik tashkilotlar faoliyatini yanada takomillashtirish borasida keng qamrovli ishlar amalga oshirilayotir.[44] Mamlakatimizdagi shaharlarni tomosha qilish va madaniy dam olish uchun ichki turizmni rivojlantirish, aholimizning turizm va dam olish ehtiyojlarini toóliqroq qondirish uchun turistik rjsurslardan maksimal tarzda foydalanish maqsadga muvofiqdir. Samarqand, Buxoro, Toshkent, Xiva, Shahrisabz, Margóilon singari shaharlarimizda xalqimizning boy tarixi haqida

[44] ñOózbekturizmò MK sining ñ2011-2012-yillarga moóljallangan manzilli chora-tadbirlar dasturiò dan.

hikoya qiluvchi qadimiy obidalar avaylab saqlanayotganligi hamda milliy hunarmandlik markazlari faoliyat koórsatayotgani mazkur hududlarda nafaqat xalqaro, balki ichki turizmni ham jadal rivojlantirishda muhim omil boólayotir. Xususan, Buxorodagi madaniy va tarixiy yodgorliklar, jumladan, Masjidi Kalon va Chor Bakr majmualari, Bahouddin Naqshband, Abduxoliq Góijduvoniy kabi buyuk ajdodlarimizning qadamjolarini ziyorat qilish maqsadida minglab hamyurtlarimiz mazkur viloyatga sayohat qilmoqdalar. Tegishli tashkilot va oóquv muassasalari bilan hamkorlikda ichki yoónalishlar boóyicha safarga chiqish istagida boólgan yurtdoshlarimiz uchun avtobuslarda imtiyozli narxlarda sayohatlar uyushtirilmoqda. Bu yurtdoshlarimizning oólkamiz boy madaniy merosi va qadimiy tarixi, shuningdek, istiqlol yillarida shahar va qishloqlarimizda amalga oshirilayotgan ulkan bunyodkorlik ishlari bilan yaqindan tanishishida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mamlakatimizning chekka hududlari, xususan, Orolboóyida ham ichki turizmni rivojlantirish ishlari doirasida yangi sayyohlik yoónalishlari tashkil etilmoqda. Qoraqalpogóiston Respublikasi hududidagi qadimiy qalâalar hamda diqqatga sazovor joylar boóylab uch yoónalishda sayohatlar taklif etilmoqda. Xususan, Quyi Amudaryo davlat biosfera rezervati, Ustyurt kengliklaridagi saygóoqlar yaylovi, Sudoche koólining saqlanib qolgan akvatoriyasiga sayohatlar uyushtirilmoqda. ñSahrolar ichra oótmish sadolariò, ñOrolga sayohatò, ñTilaklar qudugóiò, ñIpak ipi moójizasiò, ñQoraqalpogóistonning qadimiy qalâalariò kabi dasturlardan iborat yoónalishlar sayyohlarga koóproq maôqul kelmoqda. Oólkaning boy tarixiy va madaniy yodgorliklari haqidagi maôlumotlarni oózida mujassam etgan Nukus shahridagi I.Savitskiy nomidagi sanôat muzeyida toóqson mingdan ortiq eksponat saqlanadi. Qoraqalpoq elining milliy bezaklari, xalq amaliy sanôati namunalari, kashtachilik buyumlari, milliy liboslari sayyohlarning eôtiborini tortmoqda. Orolboóyiga sayyohlarni yanada koóproq jalb etish maqsadida mintaqaning tabiiy iqlim sharoitidan oqilona foydalanilib, yangi loyihalar ishlab chiqilmoqda. Misol uchun, tabiiy suv havzalarida baliq, oórdak ovlash boóyicha yangi sayyohlik yoónalishlari tashkil etilgan. Shuningdek, ñMizdaqxon qalâaò, ñTuproqqalâaò, ñAyozqalâaò, ñChilpiqò

kabi qadimiy yodgorliklar, Amudaryo sohili boóylab ekologik turlar tashkil etilmoqda. Qoraqalpoq xalqining milliy urf-odatlari, anóana va qadriyatlarini namoyon etgan oóziga xos sayyohlik turlari tashkil etish orqali xorijiy mamlakatlardan koóplab sayyohlarni jalb etilyapdi. Soónggi yillarda mamlakatimizning boshqa hududlaridan Qoraqalpogóistonga sayohatga keluvchilar koópaymoqda, oóz navbatida hududimiz aholisining Samarqand, Buxoro, Toshkent, Xiva, Termiz kabi shaharlarimizga sayohati uyushtirilmoqda. Mamlakatimizda sayyohlikning, jumladan, ichki turizmning rivojlanishi yangi ish oórinlari ochilishi, iqtisodiyotimizning va xalqimiz farovonligining yanada yuksalishiga xizmat qilmoqda. Mamlakatimizda BMT Taraqqiyot dasturi bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan "Mahalliy boshqaruv tizimini qoóllab-quvvatlash: fuqarolik ishtiroki va hamkorlik" loyihasi olti yoónalishdan iborat boólib, ulardan biri hududlarning turistik salohiyatidan samarali foydalanishga qaratilgan. Bu borada ikkita boshlangóich hudud: Jizzax viloyatining Zomin hamda Namangan viloyatining Chortoq tumanlari tanlab olingan. Mazkur tumanlar ichki turizmni rivojlantirish uchun qulay hudud hisoblanadi. Xususan, Zominda rekreatsion ï dam olish va sogóliqni tiklash maqsadlariga xizmat qiluvchi koóplab resurslar mavjud. Hududning togó ekotizimi, arxeologik yodkorliklari u yerda ekologik, speleologik (góorlarga sayohat qilish), tarixiy, qishloq va sport turizmi ï changóida uchish, piyoda sayohat, togó velosipedini rivojlantirish imkonini beradi. Loyiha ijrosi doirasida Zominda mahalliy va xorijiy sayyohlar uchun qiziqarli ikki turistik yoónalish ishlab chiqildi. Sayyohlarga yuqori darajada xizmat koórsata oladigan transport kompaniyalari, ovqatlanish shoxobchalari bilan aloqalar yoólga qoóyildi. Arxeologik yodkorliklarga eltuvchi avtomobil yoóllarida oózbek, rus va ingliz tillarida yoól koórsatkichlar oórnatildi. 2012-yilning oózida tumanda oón ikkita aholi uylarida mehmonlarni kutib olish uchun sharoitlar yaratildi. Ularda xizmat qiluvchi ishchi va xodimlarning malakasini oshirish maqsadida seminar-treninglar oótkazildi. Sayyohlar tabiat qoóynida dam olish bilan birga, turli madaniy dasturlar, masalan, kelin salom, beshik toóyi kabi milliy marosimlar, shuningdek, mahalliy taomlarni tayyorlash boóyicha mahorat saboqlarida va uy yumushlarini bajarishda

ham qatnashishi mumkin. Loyihada belgilangan vazifalarga muvofiq, Zomin tumanida tashkil etilgan turistik xizmatlar majmui, tuman haqida atroflicha maðlumot beruvchi axborotnomalar, videorolik, original logotip yurtimizdagi mahalliy sayyohlik kompaniyalariga taqdim etildi.[45] Mamlakatimizda ichki turizm infratuzilmasini rivojlantirish borasida olib borilayotgan keng koðlamli ishlar sayyohlarga qulay sharoit yaratish va ularning oðz sayohatlarini mazmunli oðtkazishiga xizmat qilishi bilan bir qatorda Oðzbekistonimizning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ham munosib hissa boðlib qoðshilmoqda. Shuni ta'kidlab oðtish kerakki, yer yuzidagi juda koðplab davlatlarning aholisi turizm maqsadida xorijga chiqishga qodir emaslar. Asosiy sabab olinadigan maoshning kamligi yoki aholining kambagðalligidir. Shuning uchun ham barcha davlatlar avvalo ichki turizmni rivojlantirish uchun harakat qilishadi. Bundan tashqari ichki turizmni rivojlantirish chiqish turizmini koðpayishiga ham toðsiq boðladi. Chunki chiqish turizmida mamlakat valyutasi boshqa davlatga chiqib keladi.

Ammo davlat fuqarolarini chetga chiqishiga toðqinlik qilishga haqli emas, bunda eng yaxshi toðsiq rivojlangan ichki turizmdir. Buning uchun har bir davlat oðz turistik resurslaridan maksimal darajada foydalanishi kerak. Oðzbj kisttsndO hOm uning btsy tObiOti vO iqlimidOn kj lib chiqqOn htsldO, FOrgðtsnO vtsdiysidO jtsylOshgOn ñCHtsrttsqò, ñSHtshimOrdtsnò, ñф rsltsnbtsbò, ñʃ ltiOriqò, ñCHimyonò, SOmOrqOnd viltsyatidO jtsylOshgOn ñNOgtsrniyò, BuΞtsrtsdOgi ñMtsΞi-Ξtsss Oò vO Ttsshkj nt viltsyatidO jtsylOshgOn ñCHintsbtsdò hOmdO ñTurtsnò kObi minj rOl suv resurslari. Oðzbekistonning qulay iqlim sharoitlari va oðziga xos landshaftini inobatga olganda sport va ekologik turizmning rivojlanishi uchun barcha asoslar mavjud. Fargðona vodiysi va Toshkent viloyati ajoyib togð tizimlari, gullagan vodiylar va ajoyib togð daryolariga boy. Togðning toza havosi, yil davomida quyoshli kunlarning koðpligi, ajoyib togð manzaralari nafaqat Oðzbekiston fuqarolarining, balki Qozogðiston, Qirgðiziston va Tojikiston kabi qoðshni mamlakatlarning aholisi ham tashrif buyuruvchi turizm obðektlariga aylanishiga

---

[45] ñOðzbekturizmò MK sining ñ2011-2012-yillarga moðljallangan manzilli chora-tadbirlar dasturiò dan.

imkon beradi. Oʻzbekiston hududida mineral suvlarning turli xil turlari keng tarqalgan, mamlakatdagi 300 dan ortiq shifobaxsh yer osti mineral suv manbalariga koʻplab odam tashrif buyuradi. FƟrgʻtsnƟ vtsdiysidƟ jtsylƟshgƟn ñCHtsrttsqò, ñSHtshimƟrdtsnò, ñɸrsltsnbtsbò, ñʃltiƟriqò, ñCHimyonò, SƟmƟrqƟnd viltsyatidƟ jtsylƟshgƟn ñNƟgtsrniyò, BuƻtsrtsdƟgi ñMtsƻi-ƻtsssƟò vƟ Ttsshkʝnt viltsyatidƟ jtsylƟshgƟn ñCHintsbtsdò hƟmdƟ ñTurtsnò kƟbi minʝrƟl suv resurslari shular jumlasidandir. Hozirgi kunda bu manbalardan 121 tasi faoliyat yuritmoqda. Ayniqsa bular ichku turizmda ahamiyatlidir. Chunki respublikamizning barcha viloyatlaridan mahalliy aholi tashrif buyurishadi. CHimyon va Toʻrtkoʻl kabi togʻ-changʻi sportini rivojlantirish mumkin boʻlgan bir qancha togʻ maskanlari mavjud. Baland qorli togʻlar alpinizm, speleoturizm, daryo turizmi kabi turli togʻ turizmi turlarini amalga oshirish imkonini beradi. Shifobaxsh giyohlarning koʻpligi turli xil ekologik turlar, turli giyohlar va oʻsimliklar yigʻish uchun turlarni tashkil etishga ikmoniyat yaratadi. Bu esa koʻplab mahalliy turistlar orasida qiziqish uygʻotadi. Turizmning hozirgi holatini baholar ekanmiz, shuni qayd etish muhimki, Oʻzbekistonda ichki turizmni rivojlanish darajasi davlatimizning salohiyatiga mos darajada emas. Buning uchun ichki turizmni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish zarur. Ayniqsa bolalar, ijtimoiy yordamga muhtoj aholi, talabalar, jismoniy va aqliy zoʻriqis bilan ishlaydigan kasb egalari hamda soha xodimlarini turizmga boʻlgan talabini shularga mos ravishda turlar ishlab chiqish natijasida qondirsak maqsadga muvofiq boʻlardi.

**2.3. O’zbekistonda turizmning rivojlanish shart-sharoitlari va yo’nalishlari.**

Oʻzbekistonda tarixiy ї madaniy, arxitektura, arxeologiya ahamiyatidagi 7 mingdan ortiq obʻektlar mavjud. Ekspert B. Toʻraev fikricha ulardan 545 tasi ї arxitektura, 578 tasi ї tarixiy, 1457 tasi ї sanʻat yodgorliklari va 5500 dan ortigʻI arxeologik ahamiyatiga jalb etilgan. 200 dan ortiq obʻektlar taʻmirlanmoqda, 500 tasi esa taʻmirlanishga muhtoj. Koʻp mamlakatlar tajribasiga koʻra, taʻmirlanish jarayonini oʻzi turistlar uchun qiziqarli hisoblanadi. Undan tashqari respublikamizda 300 dan ortiq mezeylar, 1200 ta xalq ijodiyoti tashkilotlari mavjud. Turistik ziyorat obʻektlari miqdori boʻyicha Toshkentda -144 ta,

Samarqandda – 118 ta, Buxoroda - 201 ta, Xiva -310 tani tashkil etadi. Ammo asosiy turistik resurslarimizdan turizm maqsadida foydalanish tashkil etilmagan.




**2.3.1-rasm. O’zbekistonning turistik salohiyati.**

Oʻzbj kisttsndO ektsltsgik turizmning rivtsjlOnishi shOrt-shOrtsitlOri Oʻzbj kisttsn Rj spublikOsi mustOqillikkOerishgOndOn soʻng ꟷoʻjOlikning bOrchOtOrmtsqlOridOtub isltshtstlOr tslib btsrilOyotgOn bir dOvrdO turizmni rivtsjlOntirishgO hOm dOvlOt ttsmtsnidOn kOttO OhOmiyat bj rilO btsshlOndi. Bu btsrOdO Oʻzbj kisttsn Rj spublikOsi Prj zidj ntining 2006 yil 17 Oprj ldO «Oʻzbj kisttsn Rj spublikOsidO 2006- 2010 yillOrdO ꟷizmOt koʻrsOtish vO sj rvis stshOsini rivtsjlOntirishni jOdOllOshtirish chtsrO-tOdbirlOri toʻgʻrisidOgi 325-stsnli qOrtsri imztslOndi. MOzkur qOrtsrni OmOlgOtOdbiq qilish mOqsOdidO TObiOtni muhtsfOzO qilish DOvlOt qoʻmitOsi «Oʻzbj kisttsn

Rȩspublik©sidΘ ektsltsgik turizmni rivtsjlΘntirish Ktsnsȩpsiyasi vΘ uning yaqin kȩlΘjΘkdΘgi istiqbtsllΘriòni ishlΘb chiqdi.

Ektsltsgik turizmni rivtsjlΘntirish uchun rȩspublikΘmizdΘ judΘ kΘttΘ imktsniyatlΘr mΘvjud. Oʻzbȩkisttsn 38 mln. gȩktΘrdΘn tsrtiq boʻlgΘn tsvchilik ï bΘliqchilik ȩr mΘydtsnlΘrigΘ egΘ, ulΘrdΘn 1,0 mln. gȩktΘrini suv ftsndi koʻllΘr, dΘryolΘr, suv tsmbtsrlΘri tΘshkil etΘdi. RȩspublikΘmiz fΘunΘsi 97 turdΘgi oʻt⁻oʻr hΘyvtsnlΘr, 424 turdΘgi qushlΘr, 58 turdΘgi sudrΘlib yuruvchilΘr vΘ 83 bΘliq turlΘrigΘ egΘ. UlΘrdΘn Oʻzbȩkisttsn RȩspublikΘsi Qizil kittsbigΘ oʻt⁻oʻr hΘyvtsnlΘrning 24 turi, qushlΘrning 48 turi, sudrΘlib yuruvchilΘrning 10 turi, bΘliqlΘrning 18 turi vΘ 78 turdΘgi umurtqΘsizlΘr kiritilgΘn.[46] Oʻzbȩkisttsn RȩspublikΘsi FΘnlΘr ɸkΘdȩmiyasi BtstΘnikΘ institute mΘʻlumtstlΘrigΘ qΘrΘgΘndΘ, Oʻzbȩkisttsnd Θ htszirgi kundΘ 4100 dΘn tsrtiq oʻsimlik turlΘri mΘvjud. UlΘrdΘn 3000 dΘn tsrtiq turlΘri tsliy yovvtsyi oʻsuvchi oʻsimliklΘr, ulΘrdΘn 9 % endȩmiklΘrdir. Yuqoridagi statistik raqamlar yurtimizda flora va fauna olami tarkibi jihatdan boyligini bildiradi, bu ham boʻlsa turizmni rivojlantiruvchi muhim omillarda sanaladi. Oʻzbȩkisttsn hududining muhtsfΘzΘ etilΘyotgΘn tΘbiiy hududlΘr tΘrkibidΘ 2164 km2 mΘydtsnni tΘshkil etgΘn 9 tΘ dΘvlΘt qoʻriq⁻tsnΘsi, 6061 km mΘydtsnni tΘshkil etgΘn 2 tΘ milliy btsgʻ vΘ ntsyob turlΘrgΘ kiruvchi hΘyvtsnlΘrni koʻpΘytirish RȩspublikΘ mΘrkΘzi (JΘyrtsn ñEktsmΘrkΘziò), 12186 km2 mΘydtsnni tΘshkil etgΘn 9-tΘ dΘvlΘt buyurtmΘ⁻tsnΘlΘri mΘvjud. MuhtsfΘzΘ etilΘdigΘn tΘbiiy hududlΘrning umumi mΘydtsni 20520 kv.km, yoki Oʻzbȩkisttsn hududining 5,2 % tΘshkil etΘdi.[47] Yuqoridagi maʻlumotlardan shu narsa ayonki, yurtimizda ekologik turizmni rivojlantirish salohiyati katta va kelgusida turizmning bu turi ham tarixiy madaniy turizm kabi asosiy turistik maxsulotlarimizdan biriga aylanadi.

Oʻzbekistonda diniy turizmni riojlantirish shart-sharoitlari. Hozirgi kunda dunyo boʻyicha har yili 200 mln.dan ortiq kishilar aynan ziyorat maqsadida jahondagi turli ziyoratgoh, oʻzlari uchun muqaddas hisoblangan maskanlarga borib, diniy turistik sayohatlarga chiqmoqdalar. Statistik maʻlumotlarga nazar

---

[46]Ekologiya xabarnomasi ⁻ 6 2007 yil 10-bȩt .
[47]Ekologiya xabarnomasi ⁻ 6 2007 yil 11-bȩt .

tashlaydigan boʻlsak, yiliga 45 mln.musulmonlar diniy ziyorat maqsadida sayohat uyushtirgan.[48] Demak, dunyoda diniy turistik migrasiyasi aktiv hisoblanib, sayohlar asosan ruhan poklanish, buyurilgan amallarni bajarish, muqaddas maskanlarni ziyorat etishadi. Turistik oqimlarga diniy motivasiyalar sezilarli taʼsir oʻtkazadi. Darhaqiqat, Oʻzbekiston turistik resurslarning boyligi bilan ajralib turadi. Oʻzbekistonda diniy turizm, yaʼni aziz qadamjolarni ziyorat qilish maskanlariga juda boy hisoblanadi. Jumladan, Markaziy Osiyoda, qolaversa jonajon Oʻzbekistonimizda ham aziz avliyolar yashab, dafn etilgan qadamjolar, ziyorat maskanlari beqiyos koʻp. Koʻpgina avliyolarning dafn etilgan joylari va qabrlari qaytadan taʼmirlanib, asl holatiga keltirilmoqda. Ular qatoriga Bahoviddin Naqshbandiy, Gʻijduvoniy, Imom al-Buxariy, Mahtumi Aʼzam, SHohizinda, Motrudiy, Hakim at-Termiziy, Zangiota kabi aziz avliyolar va imomlar maqbaralari musulmon ahlining beqiyos, goʻzal ziyorat qiladigan va maʼnaviy ruhlanadigan joylariga aylantirildi. Ayniqsa, Imom Al-Buxoriy majmuasini muhim ziyoratgohga aylantirish xalqaro ahamiyatga egadir. CHunki, bu ziyoratgoh musulmon olamida Makka va Madina shaharlaridan keyin eng muhim sajdagoh hisoblanadi. SHu sababli ziyorat qilish uchun qulay shart-sharoit yaratish, yaʼni infratuzilmani shakllantirish bugungi kunning muhim masalasi hisolanadi. Bu yerda asosiy vazifa xorij mamlakatlar fuqarolarining ortiqcha qiyinchiliklarsiz ziyorat qilib ketishlariga erishishimizdir.

Mustaqallik yillarida diniy qadamjolarga davlat tomonidan katta eʼtibor berilmoqda. Buyuk ajdodlarimiz qoʻnim topgan maskanlarni qayta tiklash, obodonlashtirish, taʼmirlashga jiddiy eʼtibor berganligi tufayli ziyoratgoh maskanlar 1.5 mlrd. Musulmon dunyosini oʻziga tortmoqda. Hozirgi kunda mamlakatimizda diniy turizmni hududiy tashkil etish va rivojlantirishga jiddiy eʼtibor qaratish lozim. Xususan, Janubi – SHarqiy Osiyo va Gʻarbiy Osiyo mamlakatlari ziyoratchilarni jalb etish maqsadida tadbirlar ishlab chiqish kerak. Buning uchun har bir viloyat, tuman va qishloqlardagi kishilar tomonidan muqaddas hisoblanib kelinayotgan ziyoratgohlarni aniqlash, umumlashtirish,

[48] Aleksandrova ñţ ȷ dʐʃɠɋʃʦʟdʑ ʔ lsʑtɐɋʃʟdʒò. ʄ tsfʃʄɘʘ 2002

respublika va viloyat diniy turistik kartalarini yaratish hamda ziyoratchilarga zarur sharoitlar yaratish, yoôl qurish, transport imkoniyatlarni oôrganish maqsadida muvofiq deb hisoblaymiz. Yana bir masala - bu turistik statistikadir. Hozirda qancha xorijiy fuqaroning rǰspublikamizga kǰlganligi va rǰspublikamizdan chiqib kǰtganligi haqida "Oôzbǰkturizm" MK aniq ma'lumot bera olmaydi. Har bir tashkilot oôzining statistikasini olib boradi. Tashqi ishlar vazirligi berilgan vizalar soni bilan, Ichki ishlar vazirligi roôyxatga olingan xorijiy fuqarolar soni bilan, Bojxona qoômitasi iqtisodiy dǰkleratsiya toôldirilgan fuqarolar soni bilan, Davlat chǰgaralarini muhofaza qilish qoômitasi aeroport, tǰmir yoôl zalining asosiy punktlarida kǰluvchilar va kǰtuvchilarni roôyxatlash bilan shugôullanadilar. "Oôzbǰkturizm" MK xizmat koôrsatilgan turistlar soni bilan statistika olib boradilar. Dǰmak, bir turist bir qancha statistik ma'lumotlarda roôyxatga olinadi. Shu boisdan, ushbu masalalarni hal qila oladigan guruh tashkil etilsa maqsadga muvofiq boôlar edi. Turistlʘr tsqimining bir jtsydʘ jʘmlʘnishigʘ tʘôsir qiluvchi btsshqʘ tsmillʘr hʘm (ʘnôʘnʘlʘ, mtsdʘ, tʘqlid qilish) mʘvjud. Ulʘrni koôpinchʘ irrʘsitsnʘl tsmillʘr hʘm dǰb ʘtʘshʘdi, chunki ulʘr nʘ tʘbiiy-iqlimiy, nʘ ijtimtsiy-iqtistsdiy sʘbʘblʘr tufʘyli kǰlib chiqmʘgʘn. Tʘqlid qilish vʘ mtsdʘ mʘvsumiylikkʘ quyidʘgi tʘrzdʘ tʘôsir etʘdi. Turistik tsqimning yangi ishtirtskchilʘri ʘtshidʘ mʘmlʘkʘtlʘr vʘ rʘytsnlʘrdʘgi dʘm tslish shʘrtsitlʘrini bilmʘgʘn htsldʘ bu jtsylʘrni ʘstsʘn psiꞀtsltsgik sʘbʘblʘrgʘ koôrʘ tʘnlʘydilʘr. Ulʘr tʘjribʘli turistlʘr yoki mʘshhur shʘꞀslʘr dʘm tslishgʘ kǰtʘyotgʘn vʘqtni tʘnlʘydilʘr.

Yangi turist sifʘtidʘ tʘjribʘgʘ egʘ boôlgʘnlʘridʘ kǰyinginʘ ulʘr oôzlʘri uchun eng mʘôqul sʘyohʘt vʘqtini tʘnlʘydilʘr. Mʘvsumiylikkʘ tsid ntsqulʘy tʘôsirlʘr turistik jʘrʘyonning bʘrchʘ tʘshkil qiluvchilʘrigʘ ї rǰsurslʘr, jtsylʘshtirish vtssitʘlʘri, tsziq-tsvqʘt, trʘnsptsrt, shuningdǰk Ꞁizmʘt koôrsʘtuvchi Ꞁtsdimlʘr vʘ turistlʘrning oôzlʘrigʘ hʘm tʘʘlluqilidir. Qisqʘ turistik mʘvsum fʘqʘt plyajlʘr, minǰrʘl suvlʘr, qimmʘtbʘhts turistik infrʘstrukturʘ vʘ mʘlʘkʘli Ꞁtsimdlʘrning Ꞁizmʘtlʘridʘn qismʘn ftsydʘlʘnishgʘ sʘbʘb boôlʘdi, Ꞁtsltss. Bu kʘdrlʘrning qoônimsizligini kǰltirib chiqʘrʘdi, koôp Ꞁtsdimlʘrning oôz mʘlʘkʘsini tsshrishgʘ qiziqishini kʘmʘytirʘdi. ʌizmʘt koôrsʘtuvchi Ꞁtsdimlʘrdʘn yil dʘvtsmidʘ fʘqʘt bir

nӡchΘ tsy ftsydΘlΘnish turistik ttsvΘrlΘrv ӾizmΘtlΘrning tΘnnΘrӾidΘgi shΘrtli-dtsimiy ӾΘrӡjΘtlΘrning koΘpΘyishigΘ sΘbΘb boΘlΘdi. Bu esΘ mtsslΘshuvchΘn nΘrӾlΘr siyosΘtini oΘtkΘzish imktsniyatini kΘmΘytirΘdi, turistik tΘshkiltstning ӾΘlqΘrts btszts rdΘgi hΘrΘkΘtini qiyinlΘshitrΘdi, uning rΘqtsbΘtbΘrdtsshligini yomtsnlΘshtirΘdi. MΘvsumiylik dΘn tslish jtsyigΘ btsrΘdigΘn yoΘllΘrdΘ trΘnsptsrt vtssitΘlΘrining toΘplΘnib qtslishigΘ tslib kӡlΘdi, bundΘy htsldΘ ӾizmΘt koΘrsΘtish qulΘyligi vΘ sifΘti pΘsΘyadi, turizmgΘ ӾizmΘt koΘrsΘtuvchi trΘnsptsrt, sΘntsΘt vΘ qishltsq ӾoΘjΘligi ktsrӾtsnΘlΘrining ishidΘgi bir mΘrtsmlilik buzilΘdi. HukumΘt tsrgΘnlΘri vΘ turistik firmΘlΘr turizmdΘgi mΘvsumiylik tsmilinin sΘlbiy tΘsirini kΘmΘytirishgΘ dtsimiy rΘvishdΘ kuch-gΘyrΘtlΘrini sΘrflΘb kӡlΘdilΘr: oΘquv yurtlΘridΘ imtihtsnlΘrni ttspshirish muddΘtlΘrining oΘzΘrtirilishi, tΘtillΘr (Θstssiy vΘ qoΘshimchΘ) tuzilishidΘgi oΘzgΘrishlΘr, hΘq toΘlΘnΘdigΘn tΘtillΘrdΘn ftsydΘlΘnish vΘqtigΘ nisbΘtΘn rΘmiy chӡklΘshlΘr, tΘlim tslΘyotgΘn yoshlΘrning kΘnikullΘrining dΘvtsmiyligi vΘ vΘqti. UmumΘn mΘmlΘkΘt boΘylΘb vΘ ΘtshidΘ turistik ktsmplӡkslΘrdΘ turistik mΘvsumning chӡgΘrΘlΘrini kӡngΘytirish boΘyichΘ mΘӾsus dΘsturlΘr ishlΘb chiqilΘdi vΘ jtsriy qilinΘdi. UlΘr quyidΘgi boΘlimlΘrni oΘz ichigΘ tslΘdi.

1. Turistik btszts rni tΘdqiq qilish nΘtijΘlΘri. BundΘ Θstssiy mΘvsumdΘn tΘshqΘri jΘlb qilinishi mumkin boΘlgΘn ptstӡnsiΘl mijtszlΘr stsni vΘ tΘrkibi ΘniqlΘnΘdi (ishbilΘrmtsn tsdΘmlΘr, pӡnsitsnӡrlΘr, mΘӾsus qiziqishgΘ egΘ tsdΘmlΘr vΘ sh.k.); ttsvΘrlΘr va ӾizmΘtlΘr tΘqdim etishgΘ tsid soΘrtsvlΘr oΘrgΘnib chiqilΘdi. ʃlingΘn ΘӾbtsrtstdΘn mӡhmtsnӾtsnΘlΘr v rӡsttsrΘnlΘrning mtsddiy-tӡӾnikΘ bΘzΘsini yagilΘsh, tӡgishli ttsvΘrlΘrni ӡtkΘzib bӡrish, turistlΘrgΘ ӾizmΘt koΘrsΘtish sifΘtini vΘ uni tΘshkillΘshtirish tΘktsmillΘshtirish.

2.UmumΘn mΘmlΘkΘt, rΘytsnlΘr vΘ turistik ktsmplӡkslΘr boΘyichΘ yil dΘvtsmidΘ turistlΘrni qΘbul qilishgΘ tΘyyorgΘrlikni tsshirish boΘyichΘ tΘdbirlΘr. MΘvsumiy dΘvrni uzΘytirish boΘyichΘ bΘrchΘ mΘnfΘΘtdtsr tΘshkiltstlΘr oΘrtΘsidΘ muvtsfiqlΘshtirishni ΘmΘlgΘ tsshirish nΘzΘrdΘ tutilΘdi; turizm mtsddiy-tӡӾnikΘ bΘzΘsi mΘvsumlΘr tsrΘligΘidΘ ishlΘshgΘ mtsslΘshtirilΘdi vΘ h.k.

3.TuristlӨrning mӨmlӨkӨtgӨ vӨ ӨltshidӨ turizm rӨytsnlӨrigӨ qiziqishini tsshirish mӨqsӨdidӨ ulӨrni qitistsdiy rӨgõbӨtlӨntirish tizimi. ɸltshidӨ ttsvӨrlӨr vӨ ҀizmӨtlӨrgӨ nӨҀlӨr kӨmӨytirilӨdi, chȷgirmӨlӨr qilinӨdi, turistik tӨshkiltstlӨrning mӨvsum tsrӨlӨidӨgi vӨqtdӨ fӨslligi uchun muktsftstlӨr, rӨgõbӨtlӨntirishlӨr bȷrilӨdi.

4.MӨvsumlӨr tsrӨligõidӨ turistlӨrni jӨb qilish uchun rȷklӨmӨ fӨsliyatini kȷngӨytirish. ɸltshidӨ dȷngiz, ttsgõ vӨ bӨnȷtsltsgik mӨrkӨzlӨr vӨ ulӨrdӨ yilnig turli dӨvrlӨridӨ bodlishning ftsydӨliligi tӨshviq qilinӨdi.[49]

5.MӨvsumdӨn tӨshqӨri vӨqtdӨ turistlӨrni jӨlb qilish yoki qoõshimchӨ mӨvsum (qishki) tӨshkil qilish. TurӨr jtsy vӨ trӨnsptsrtgӨ bӨhtslӨr pӨsӨytirilishi, Өrztsnrtsq jtsylӨshishi tsbõȷktlӨrini koõprtsq qurish evӨzigӨ yashӨsh ftsndini kȷgӨytirish.

MӨsӨlӨn, bundӨy tӨdbirlӨrni ӨmӨlgӨ tsshirishi SHvȷysӨriya vӨ ɸvstriya uchun ɸlp ttsgõlӨridӨ qishki sptsrt evӨzigӨ ikkinchi»qizgõin mӨvsum»ni tӨshkil qilish imktsnini bȷrdi. BMT mӨõlumtstlӨrigӨ qӨrӨgӨndӨ, qishdӨ dӨm tslishni Ҁtshltsvchi turistlӨr stsni hӨr ȷtti yildӨn kȷyin ikki bӨrtsbӨr koõpӨyadi. Turli sptsrt mustsbӨqӨlӨri, fȷstivӨllӨr, ktsnkurslӨr, koõrgӨzmӨlӨr, idmiy ktsnfȷrȷnsiyalӨr, ktsngrȷsslӨr vӨ sh.k.lӨrni tӨshkil qilish hӨm turistik mӨvsumni kȷngӨytirishgӨ koõmӨklӨshӨdi. SHuninguchun bundӨy tӨdbirlӨrni iltsji btsrichӨ turistlӨr uchun mӨvsum tsrӨligõidӨ oõtkӨzgӨn mӨõqul. MӨvsumiylikning turistik fӨsliyatg sӨlbiy tӨõsirini kӨmӨytirish boõyichӨ tӨdbirlӨrni rȷjӨlӨshtirish uchun kȷyingi yillӨrdӨ rȷjӨlӨshtirilӨyotgӨn chtsrӨlӨrning nӨtijӨlӨrini bӨhtslӨsh mӨqsӨdidӨ turli mȷttsdlӨr vӨ mtsdȷllӨr kȷng qoõllӨnilmtsqdӨ.

MӨsӨlӨn turistlӨrning jtsylӨshtirish vtssitӨlӨrigӨ boõlgӨn ehtiyojini histsblӨb chiqish uchun bir oõrin-ktsykӨ vӨ jtsylӨshish punktlӨridӨgi ntsmȷrlӨrgӨ boõlgӨn tӨlӨb histsblӨb chiqilӨdi. Histsb-kittsblӨr quyidӨgi ftsrmulӨ boõyichӨ ӨmӨlgӨ tsshirilӨdi: Bu jarayonda sayyohlik sohasining huquqiy asosini takomillashtirishga alohida eõtibor qaratilmoqda. Xususan, Oózbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 10-oktabrda qabul qilingan ñOózbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada qoõllab-quvvatlash va rivojlantirish chora-tadbirlari toógõrisidaògi qarori

[49] M.M.Irmatov, I.A. Axmȷdov. Turizm rivojlanishini rȷjalashtirish. Oõquv qoõllanma. TDIU 2004 y.

turizm va turistik infratuzilmani rivojlantirishni qoʻllab-quvvatlash, milliy turistik xizmatlarni xalqaro sayyohlik bozorlariga faol kiritishga xizmat qilishi shubhasiz.

Shuni ta'kidlab oʻtish kerakki, yer yuzidagi juda koʻplab davlatlarning aholisi turizm maqsadida xorijga chiqishga qodir emaslar. Asosiy sabab olinadigan maoshning kamligi yoki aholining kambagʻalligidir. Bular qatorida mustaqil hamdoʻstlik davlatlari fuqarolari ham bor. Oʻzbjkiston ulkan tabiiy va madaniy - tarixiy rjsurslari bilan xohlagan turistlar talabini qondirishi va kjlajakda ulkan turistlar oqimini kutib olish imkoniyatiga egadir. Ljkin, turizm industriyasini yanada rivojlantirish, turizm infratuzilmasini yuqoriga koʻtarish, turizmga invjstitsiyalarni koʻproq jalb etish, turizmda servisni zamon talablariga moslashtirish, xizmat koʻrsatuvchi sub'jktlardagi xizmat narxini pasaytirish, ularda oʻzaro raqobat muhitini yaratish, xorijga chiqish va xorijdan kjlish vizalarini olishdagi mjxanizmni soddalashtirish, malakali kadrlarni jtishtirish bilan bu ishga yanada koʻproq hissa qoʻshgan boʻlamiz. Toʻgʻri, kjyingi yillarda Toshkjnt, Samarqand, Buxoro shaharlariga hukumatimiz va xorijiy invjstorlar tomonidan turizm infratuzilmasi uchun mablagʻlar ajratildi Yirik mjhmonxonalar qurildi, modernizatsiya qilindi, yangi zamon talabidagi avtobus va avialaynerlar sotib olindi. Yirik turistik markazlar, yodgorliklar ta'mirlandi, yoʻllar barpo etildi. Xususiy mjhmonxonalar va milliy uylar bunyod etilib, mahalliy va xorijiy turistlarni qabul qilib borayotirlar. Rjkrjatsion hududlar, masalan, Chorbogʻ - Chimyon hududiga rjspublika byudjjtidan katta mablagʻ ajratildi.

Madaniy - tarixiy yodgorliklarni ta'mirlash ishlari davom etmoqda. Ljkin, bulardan mustasno rjspublikamizda ichki turizm masalasi koʻngildagidjk emas. Hatto, rjspublikamiz aholisining aksariyat qismi butun dunyoga mashhur Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz kabi tarixiy shaharlarni biror marotaba boʻlsa ham koʻrish imkoniyatiga ega boʻlmaganlar. Ushbu shaharlarni tomosha qilish va madaniy dam olish uchun ichki turizmni rivojlantirish, aholimizning turizm va dam olish ehtiyojlarini toʻlaroq qondirish uchun turistik rjsurslardan maksimal tarzda foydalanish maqsadga muvofiqdir. Shuningdjk, Mustaqil rjspublikamizga xorijiy turistlar kjlishiga ham katta e'tibor berishimiz kerak.

Shundagina, davlatimiz xazinasi va turoperatorlarning banklardagi hisob - raqamlariga milliy va xorijiy valyuta kȩlib tushishiga erishamiz. Buning oqibati esa ravshan - iqtisodiyotimiz rivojlanishiga koȏmaklashgan boȏlamiz, tadbirkorlik sub'ȩktlarining farovonligi ortadi, turmush tarzi koȏtariladi.

Turizmni rivojlantirish uchun asosiy shart sharoit avvalo siyosiy barqarorlik va tinchlikka bogȏliqdir.

Ikkinchi muammo, turizm sohasidagi faoliyatni rivojlantirish aholining hayot darajasi, daromadi va farovonligining oshib borishi bilan bevosita bogȏliqdir. Bu haqiqatni jahonda turizmga talabning asosiy oȏsish koȏrsatkichlari rivojlanayotgan davlatlar, birinchi navbatda, Osiyo mamlakatlarining jadal surȏatlar bilan yuksalib borayotgan iqtisodiyotida shakllanayotgani ham tasdiqlaydi. Boshqacha aytganda, iqtisodiyotning rivojlanish darajasi, uning koȏrsatkichlari turizmda bamisoli koȏzgudagidek oȏz aksini topmoqda.

Uchinchidan, bugungi kunda xalqaro turizm oȏrta sinf uchun dam olishning keng tarqalgan turiga aylanib bormoqda. Shunday bir qonuniyatni koȏrish, kuzatish qiyin emas ї qaysi mamlakatda oȏrta sinf qatlami qancha koȏp va keng boȏlsa, uning sayyohlik salohiyati ham shunchalik yuqori boȏladi. Bu borada oȏrta sinfga mansub odamlarning juda harakatchan va tadbirkor boȏlishi, ularning yangiliklarni izlab yashashga, oȏz qobiliyati va imkoniyatlarini amalga oshirishga intilishi muhim oȏrin tutadi.

Toȏrtinchidan, sayyohlik infratuzilmasining rivojlangani, sayyohlar uchun moȏljallangan obyektlarning har tomonlama maqbulligi, transport va mehmonxona xizmatlari va umuman, sayyohlik logistikasi bilan bogȏliq barcha xizmatlarning qulayligi, zamonaviy axborot texnologiyalarining joriy etilgani ї biz har qadamda duch keladigan masalalarning hammasi bu borada katta ahamiyatga ega.

Beshinchidan, mazkur sohada koȏp narsa turizm sanoatiga yoȏnaltiriladigan investitsiyalar darajasiga bogȏliq boȏlib, bu byudjet mablagȏlarini va mazkur sohaga mablagȏ sarflashi uchun xususiy kapital va biznesga davlat tomonidan zarur imtiyoz, preferensiya va ragȏbatlantiradigan omillar yaratilishini, infratuzilma, mehmonxona xoȏjaligi, transportni rivojlantirish, zamonaviy aloqa va boshqa

xizmatlar ko‘rsatishni ta’minlashni o‘z ichiga oladi. Sayyohlik komplekslarini barpo etish, tarixiy obyektlar, turli davr va madaniyatlarga oid arxitektura va san’at yodgorliklarini o‘rganish va asrab-avaylash, sayyohlik logistikasini rivojlantirish birinchi navbatda ayni shu yo‘nalishdagi ishlarga bog‘liq.

Oltinchidan, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash masalasi turizm sohasini rivojlantirishning eng muhim va hal qiluvchi omili bo‘lib qolmoqda.[50] Bugungi kunda O‘zbekistonda zamonaviy mutaxassislar tayyorlaydigan 5 ta oliy o‘quv yurti, jumladan, Singapur menejmentni rivojlantirish institutining Toshkent filiali va shuningdek, 11 ta kasb-hunar kolleji faoliyat ko‘rsatmoqda.

Ettinchidan, viza masalasini va turizm bilan bog‘liq boshqa byurokratik rasmiyatchiliklarni soddalashtirish, xususan, sayyohlik firmalari faoliyati uchun zarur moliyaviy kafolatlar berish hozirgi bosqichda xalqaro turizmni jadal rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Bunday kafolatlarning yo‘qligi ko‘plab sayyohlik operatorlarining obro‘siga putur yetkazayotgani, xalqaro turizmni rivojlantirish va uning jozibadorligi yo‘lida jiddiy g‘ov bo‘layotganini biz ba’zi mamlakatlar misolida ko‘rib turibmiz. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatmoqdaki, sayyohlar boshqa omillar qatorida o‘zlari istagan mamlakatga borish uchun tartib-qoidalarning oddiy va qulay bo‘lishiga, bu boradagi barcha zarur rasmiylashtiruv ishlarini tez va arzon narxda amalga oshirish imkoniyatiga ham e’tibor qaratmoqda. Bu yo‘nalishda elektron texnologiyalarni joriy etish, viza olish muddatining imkon qadar qisqa bo‘lishi, avia va temir yo‘l chiptalarini xarid qilish, internet orqali»onlayn» rejimida sayyohlik yo‘nalishlari va mehmonxonalarni oldindan band qilish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Sayyohlar oqimi va umuman, har bir sayyohning kayfiyatini belgilaydigan ana shunday eng muhim shart va kafolatlar ro‘yxatini yana davom ettirish mumkin. Aminmanki, bu borada, ya’ni, turizm sohasi va sayyohlik biznesida mayda narsaning o‘zi bo‘lmaydi.

---

[50] Karimov I.A. O‘zbekiston Respublikasi prezidenti I.Karimovning BMT Jahon sayyohlik tashkiloti Ijroiya Kengashi 99-sessiyasining ochilish marosimidagi nutqi. Xalq so‘zi, 2014-yil 3 oktyabr.

Sayyohning kayfiyati turistlarni qabul qiladigan har qanday mamlakatning, aytish mumkinki, asosiy brendi, yaôni, tovar belgisi boólishi kerak. Agar odamlar bizning diyorimizga yaxshi kayfiyat bilan kelib, shunday kayfiyat bilan ketadigan boólsa, Oózbekistonda turizm sohasi mustahkam asosga qoóyilgan, deb aytishga haqlimiz. Bordiyu kimdir yomon kayfiyat bilan ketadigan boólsa, demak, biz uning oldida qarzdormiz. Demak, keyingi safar ayni shu sayyohni oózimizning hisobimizdan yurtimizga taklif qilishimiz kerak.[51]

Mamlakatimizga 2013-yilda dunyoning 70 dan ortiq davlatidan sayyohlar tashrif buyurdi va ularning yillik soni 2 milliondan oshdi. Oótgan ikki yil mobaynida bu koórsatkich 43 foizga oósdi, joriy yilning birinchi yarmida esa 1 milliondan ortiq chet ellik sayyoh yurtimizga tashrif buyurdi. 2013-yilda sayyohlik xizmatlari eksporti hajmi 615 million dollardan ziyodni tashkil etdi. Bugungi kunda turizm sohasida 200 mingdan ortiq kishi mehnat qilmoqda, bu tarmoqning mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 2 foizdan oshdi.

Oózbekistonda 550 ta sayyohlik kompaniyasi ï turoperatorlari faoliyat yuritmoqda, mamlakatimizdagi tarixiy obyektlar, arxitektura va shaharsozlik obidalarining aksariyatini qamrab olgan 110 ta xalqaro sayyohlik yoónalishi boóyicha xizmat koórsatilmoqda. Bu yoónalishlarning 65 tasi tarixiy-madaniy meros obyektlari, 30 tasi tabiiy-rekreatsion, 15 tasi sogólomlashtirish turizmi elementlarini oóz ichiga olgan ekologik yoónalishlardir.

Hozirgi paytda yurtimizda 50 mingdan ziyod oóringa ega boólgan 500 dan ortiq mehmonxona, motel va kempinglar sayyohlarga xalqaro standartlar boóyicha xizmat koórsatmoqda. Oótgan davrda Toshkent, Samarqand, Buxoro, Urganch, Fargóona va Navoiy shaharlari aeroportlari modernizatsiya qilindi va bugungi kunda Oózbekistonda 11 ta xalqaro aeroport faoliyat yuritmoqda. Milliy aviakompaniyamiz zamonaviy ñEyrbasò va ñBoingò avialaynerlari bilan taôminlangan. Ushbu samolyotlar Yevropa, Osiyo, Yaqin Sharq va Shimoliy Amerikaning 50 dan ortiq shaharlariga muntazam parvozlarni amalga oshirmoqda.

[51] Oôsha manba.

Toshkent-Samarqand-Toshkent yo‘nalishi bo‘ylab Ispaniyaning»Talgo» kompaniyasida ishlab chiqarilgan, yuqori tezlikda harakatlanadigan zamonaviy elektr poyezdlarining har kungi qatnovi yo‘lga qo‘yilgan. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, yuqori tezlikda harakatlanadigan»Afrosiyob» poyezdi qatnay boshlaganidan buyon yurtimizda chet ellik sayyohlar soni sezilarli darajada ko‘paydi. Buxoro va Qarshi shaharlarigacha yuqori tezlikda harakatlanish uchun mo‘ljallangan temir yo‘l tarmoqlarini elektrlashtirish va qurish bo‘yicha loyihalar amalga oshirilmoqda. Bu esa turizm rivoji uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

O‘zbekistonda so‘nggi 5-yilda umumiy qiymati qariyb 3 milliard dollarlik investitsiyalar hisobidan uzunligi 2600 kilometr bo‘lgan zamonaviy avtomobil yo‘llarini qurish va rekonstruksiya qilish ishlari amalga oshirildi, shuningdek, kempinglar, yonilg‘i quyish shoxobchalari, ovqatlanish va maishiy xizmat ko‘rsatish maskanlarini o‘z ichiga olgan ko‘plab yo‘l bo‘yi infratuzilma obyektlari barpo etildi. Faqatgina joriy yilning o‘zida xalqaro turizmning asosiy tuzilmasini rivojlantirish uchun jami investitsiyalarning 580 million dollardan ortig‘i yo‘naltirildi va bu boradagi o‘sish o‘tgan yilga nisbatan 19 foizdan ziyodni tashkil etdi.

Biz O‘zbekistonning ulkan sayyohlik salohiyati haqida gapirganda, birinchi navbatda, mamlakatimiz hududida shakllangan va rivojlangan eng qadimiy sivilizatsiya va madaniyatlar, qoyatoshlardagi yozuvlar va iyerogliflarni, noyob tarixiy obidalar, moddiy madaniyat va me’morlikning ulug‘vor hamda betakror namunalarini nazarda tutamiz.

Ayni paytda ularni Yaponiya, Fransiya, Germaniya va boshqa davlatlarning ko‘plab olim va mutaxassislari o‘rganmoqda. Shu bilan birga, o‘zining jozibasi va tarovati bilan dunyodagi eng yaxshi dam olish va sayohat maskanlaridan qolishmaydigan go‘zal tabiatimizning boyligi va xilma-xilligini ham bu boradagi eng katta imkoniyatlarimiz qatorida ko‘ramiz. Bularning barchasi mamlakatimizni jahon turizmi markazlaridan biriga aylantirishi mumkin va zarur. Hozirgi kunda O‘zbekistonda turli davrlar va sivilizatsiyalarga oid 7 mingdan ortiq yodgorliklar bor.

Mamlakatimizda yuksak sifati va estetik jozibasi, qadimgi sanôat anôanalarini oózida saqlab kelayotgani bilan ajralib turadigan milliy hunarmandlikni qayta tiklash va rivojlantirishni ragóbatlantirishga katta eôtibor qaratilayotganini taôkidlamoqchiman. Oózbekistonda milliy hunarmandlik sohasi soliqlardan toóliq ozod etilganini alohida qayd etishni istardim. Hunarmand ustalarimizning necha asrlik tajribasidan yurtimizdan tashqarida ham keng foydalanilmoqda.

Oózbekistondagi meômoriy yodgorliklarning oórta asrlarga xos naqsh va bezaklari Yaqin Sharq va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarida yangi inshootlarni qurishda namuna boólib xizmat qilmoqda. Kulollarimizning mahoratini Fransiya, Germaniya, Hindiston va boshqa mamlakatlar mutaxassislari oórganmoqda.

Oózbekiston Parij, London, Berlin, Rim, Tokio, Madrid va dunyoning boshqa shaharlarida oótkazilayotgan yirik sayyohlik koórgazmalarida muntazam ishtirok etib kelmoqda. Joriy yilda yigirmanchi bor oótkaziladigan va sayyohlik biznesi sohasida muloqot qilish uchun keng imkoniyat yaratadigan Toshkent xalqaro sayyohlik yarmarkasiga dunyoning 40 dan ziyod mamlakatidan 12 mingdan ortiq kishi kelishi kutilmoqda.

Turizm sohasida ish oórinlarini ochishning yana bir asosiy manbai tadbirkorlikdir. Hozirgi kunda respublikamizda tadbirkorlikni rivojlantirishga katta eôtibor berilmoqda. Turizmda tadbirkorlikni rivojlantirishda koópgina jihatlarga eôtibor qaratish lozim. Bunda:

-bozor munosabatlari sharoitida turizmda tadbirkorlikni rivojlanishi uchur sharoit yaratish;

-xizmat turlari shu jumladan, auditorlik, konsalting, turagentlik, turoperatorlik faoliyati bilan bogóliq xizmat turlarini hajmini oshirish;

-koóp mablagô talab qilmaydigan xizmat koórsatish tarmoqlarini yoólga qoóyish;

-kichik va xususiy firmalarni ishga tushirish kerak boóladi.

Tizimning isloh qilinishi tufayli koóplab yangi ish oórinlari ochiladi, hamda turizm industrisi rivojlanadi. Hozirgi davrda turizm jahon iqtisodiyotida juda tez va jadal surôatlar bilan rivojlanib borayotgan sohalardan biri boólib hisoblanadi.

Mamlakatimizda bu sohaga eʼtibor yildan ï yilga oshmoqda. SHuning uchun respublikamizda turistik bozorni shakllantirish oʻta muhim hisoblanadi. Turistik resurslardan samarali foydalanishning ikkinchi jihati bu, turistik bozorni shakllantirish hisoblanadi. Ovqatlantirish infrastukturasida yutuqlarimiz koʻproq, mehmonxonalar qoshidagi yoki yakka tarzda restoran, bar, kafelar, yaxshi ishlab nafaqat turistlarga, ballki mahalliy aholiga xizmat koʻrsatmoqda. Ayrim oqvatlantirish obʼektlarining ahvoli, xizmat koʻrsatish darajasi talabga javob bermaydi. Agar ovqatlantirish obʼektlari sanitariya holati nazorat qilinib, ovqatlar va xizmat koʻrsaishning turli ishshakllari joriy etilsa, ijobiy yutuqlarga erishgan boʻlamiz.

## III-BOB. XALQARO TURIZMDA "O'ZBEKTURIZM" MK FAOLIYATINING O'RNI VA RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI

### 3.1. „O'zbekturizm'' MKning tashkil topish tarixi va asosiy rivojlanish bosqichlari

Mamlakatimizda jahon andozalariga javob beradigan turizm tizimini barpo etish, ushbu soha boshqaruvini takomillashtirish, uning iqtisodiy samaradorligini oshirish, shuningdek, mamlakatimizda mavjud boõlib kelgan va sobiq Ittifoqqa boóysungan turistik tashkilotlar va muassasalarni respublika ixtiyoriga oótkazish, hamda turizmni rivojlantirish boôyicha milliy modelni yaratish va hayotga tatbiq etish uchun 1992 ï yil 27 ï iyulda Oôzbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni bilan ñ Oôzbekturizm ñ milliy kompaniyasi tashkil etildi.

ñOôzbekturizmò Milliy Kompaniyasi respublikadagi barcha turistik korxonalarni boshqarish, turizmning barcha turlarini rivojlantirish keng yoõl ochib berish,turizmda material ï texnik bazani yaratish va sohaga mahalliy va xorijiy invistitsiyalarni kirib kelishiga imkoniyat yaratish, mahalliy kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish boôyicha ishlar olib borishi zarur.

Oôzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 28.07.2004-yildagi ¯ 360-sonli qarori bilan ñOôzbekturizmò milliy kompaniyasining kelajakdagi faoliyatini rivojlantirish maqsadida quyidagi asosiy vazifalar belgilangan:

- Turizm sohasida davlatning yagona siyosat yuritishini taôminlash;
- Turizmni rivovlantirish uchun davlat dasturini realizatsiya qilish;
- mintaqalararo va sohalararo turizm faoliyatini koordinatsiyalash;
- turistik xizmatlar infrastrukturasini shakllantirish;
- turizm sohasiga invistitsiyalarni jalb qilish;
- turizm sohasining reklama va axborot siyosatini shakllantirish;
- turizm sohasida yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, ularni klassifikatsiyasini oshirish va qayta tayyorlash asosiy maqsadlari boõlib hisoblanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda ñOôzbekturizmò MK quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

- Normativ ï huquqiy bazani rivojlantirish;
- Turizm rivojlanishida davlat dasturini tayyorlash va tatbiq etish;
- Turizm infrastrukturasini rivojlantirish;
- Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qoôllab quvvatlash;
- Davlat va xususiy sherikchilik mexanizmini tatbiq etish;
- Turizm sohasiga invistitsiyalarni jalb qilish;
- Xalqaro faoliyatni shakllantirish;
- Turmahsulotni oldinga surish;
- Turizm sohasida kadrlar tayyorlash sohasini rivojlantirish;
- Soha fanining rivojlanishiga imkon yaratish;
- Turistik faoliyatni standartlashtirish va litsenziyalash;
- Turistik hisobot sohasini shakllantirish;

Taqvim hisobiga koôra 27-iyul sanasi ñOôzbekturizmò Milliy kompaniyasi uchun bayram kuni deb sanalishi mumkin, chunki bundan 22 yil muqaddam aynan shu kuni Oôzbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning ñOôzbekturizmò Milliy kompaniyasining tashkil topganligi haqida farmoni chiqqan edi. Farmonni qabul qilishdan maqsad ï Oôzbekistonda jahon standartlariga javob bera oladigan turizm tizimini tashkil qilish, shu soha boshqaruvini takomillashtirish, uning iqtisodiy samaradorligini oshirishdir.

Bosib oôtilgan yigirma yillik katta dovonning har bir yilini turizm sohasidagi islohotlar sari oldinga tashlangan qadam deb sanalishi oôrinlidir. Kompaniyaning yilnomasini sodir boôlib oôtgan muhim voqealar orqali qisqacha yoritish mumkin:

- 1992-yilda ñOôzbekturizmò M.K tuzildi.
- 1993-yilning sentabr oyida Oôzbekiston Butunjaxon turistik tashkilot (BTT-BTO) aôzosi boôldi.
- 1994-yilda ñOôzbekturizmò Milliy kompaniyasi Toshkentda BMT va YUNESKO yordamida ñIpak yoôliò nomli Butunjaxon turistik tashkilotning seminarini oôtkazdi. Registon maydonida ñSamarqand deklaratsiyasi ò qabul

qilindi. Unda ñIpak yoôliò turistik yoônalishini rivojlantirish boôyicha xalqaro loyiha muhokama qilindi.

- 1995-yilda Oôzbekiston Respublikasi Prezidentining ñBuyuk Ipak yoôliniò tiklash va xalqaro turizmni rivojlantirishda Oôzbekiston Respublikasining ishtiroki boôyicha qabul qilingan chora-tadbirlari farmoni chiqdi. 210-sonli ñOôzbekiston Respublikasida zamonaviy xalqaro turizm infratuzilmasini yaratish boôyicha chora-tadbirlarò farmoyish qabul qilindi.

- 1995-yilning oktabr oyida Toshkent shaxrida Butunjaxon turistik tashkilotining birinchi xalqaro ñIpak yoôli turizmiò turistik yarmarkasi oôtqazildi. Unda 33 mamlakatning 100 dan ziyod firmalari, shuningdek, Buyuk Ipak yoôlida joylashgan davlatlarning milliy turistik tashkilotlari rasmiy vakillari ishtirok etdilar.

- 1996-yilda Buxoro va Samarqandda 2 ta ñBuxoro Palaceò va ñAfrosiyob Palaceò nomli yirik mehmonxona komplekslari ishga tushdi. 1996-yilda Butunjaxon turistik tashkilotining Istambulda boôlib oôtgan 12-bosh Assambliyasida ñOôzbekturizm Milliy kompaniyasining xalqaro faoliyatiga yuqori baxo berildi. Ulkan koôrsatkichlarga erishgani sababli Oôzbekiston Fransiya va Italiya qatorida BTT ning aôzolari qatoridan oôrin oldi.

- 1998-yilda Oôzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 346-sonli ñTuristik tashkilotlarning faoliyatini takomillashtirishi haqidaò gi farmoniga asosan kichik va oôrta turistik tashkilotlar xizmatini kuchaytirish maqsadida xususiy turistik tashkilotlar Assotsiyasi tashkil qilindi.

- 1999-yilda Oôzbekiston Respublikasida ñTurizm haqidaò gi qonun qabul qilindi. Oôzbekiston Prezidenti tomonidan ñOôzbekiston turizmini 2005-yilga qadar rivojlantirish Davlat dasturiò imzolandi.

- 2000-yilda turizm soxasini yuqori malakali kadrlar bilan taôminlash, xodimlar malakalarini oshirishi boôyicha chora-tadbirlari, qayta tayyorlov va attestasiyalarini oôtkazish maqsadida ñOôzbekturizmò M.K. qoshida Respublika

ilmiy-oôquv konsaltingning markazi yaratildi. Toshkent Davlat Iqtisodiyot universitetida ñXalqaro turizmò fakulteti ochildi.

•2001-yil 31-yanvarda Ispaniyaning Madrid shahrida oôtkazilgan Xalqaro OFIS nashriyoti va Savdo liderlari klubi tomonidan ñOôzbekturizm ò M.K si Ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi yutuqlari, turizm sohasida hukumat tomonidan oôtkazilgan islohotlar, shuningdek, yuqori saviyada koôrsatilgan servis xizmatlari va mexmonxona ishi uchun XXVI Xalqaro yutugôini sazovor boôldi. Oôzbekturizm Milliy kompaniyasi Savdo liderlar Klubi aôzosi qilib qabul qilindi.

•2003-yilda Oôzbekiston Respublikasi qonunlarining 5-moddasiga asosan Oôzbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 497-sonli farmoyishiga asosan ñBaôzi bir faoliyat turlarini lisenziyalashtirish haqidaò gi farmoyishga asosan turistik faoliyat litsenziyalashtirildi.

•2004-yilda turizm soxasini samaradorli boshqarish maqsadida 28-iyulda Oôzbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 360-sonli ñOôzbekturizm ò milliy kompaniyasi faoliyatini yanada takomillashtirish haqidagi farmoyishi tasdiqlangan. 2006-yilda Oôzbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining bayonnomasiga asosan ñOôzbekturizmò Milliy kompaniyasi 2006-2010-yillarda moôljallangan ketma-ket islohot tadbirlarini hayotga tadbiq eta boshladi.

•2007-yilda xizmat sohasi darajasini yanada yaxshilash, aholini yangi zamonaviy sifatli xizmatlar turi bilan taôminlash maqsadida Prezidentning ñOôzbekiston Respublikasida 2010-yilgacha xizmatlar soxasini rivojlantirishni tezlashtirish chora-tadbirlari haqidaò gi farmoni chiqdi.

•2009-yilda Oôzbekiston Respublikasi Bosh Vaziri Sh.M.Mirziyoyev tomonidan òOôzbekiston Respublikasida 2015-yilgacha turizmni rivojlantirish va xizmatlar sifatini oshirish dasturiò tasdiqlandi.

•2010-yilda Oôzbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining ñMadaniy obidalarni 2010-2020-yillargacha saqlash, qoôriqlash va ishlatish toôgôrisidagi Davlat Dasturi tasdiqlandiò.

•2011-yilda Oôzbekiston Respublikasi Bosh Vaziri Sh.M.Mirziyoyev tomonidan ñOôzbekistonda turizm sohasining rivojlanishi boôyicha kompleks chora-tadbirlarò va ñOôzbekturizmò Milliy kompaniyasi faoliyatini xalqaro miqyos darajasiga koôtarish 2011-2012-yillarda Oôzbekiston Respublikasining Butunjaxon turistik tashkilotning ijro kengashi safiga qabul qilinishini toôgôrisidagi farmoni tasdiqlandi.

Oôzbekiston Respublikasi bosh Vaziri oôrinbosari E.M.Gôaniyev tomonidan ñ2011-2012-yillarda turizm sohasini rivojlantirishning adresli chora-tadbirlari va regionlar boôyicha turistik xizmatlarni eksport qilish potensialini oshirish Dasturiò tasdiqlandi.

Oôzbekistonda chet el turistik kompaniyalari va ommaviy axborot vositalari vakillari uchun ñMega ï info ï turò tanishuv sayohatlari marketing loyihasi ishga tushgan. Oôtgan 22-yil ichida ñOôzbekturizmò M.K si tomonidan jahon andozalari talablariga javob beradigan qator ñShodlik Palaceò, ñAfrosiyob Palaceò, ñBuxoro Palaceò, ñGrand Buxoroò, ñShahrizabz Yulduziò kabi mehmonxonalar ishga tushirilgan.

Ayni paytda 850 ga yaqin tashkilotlar turistik faoliyat boôyicha litsenziyaga ega. Ulardan 340 tasi mexmonxonalar boôlib xisoblanadi.

Oôzbekistonning turizm sohasi qator afzalliklarga ega. Turistik potensial raqobatga asoslangan boôlib, keng imkoniyatlarga qodir. Mamlakatda turizm sanoati rostakamiga mustaqillikka erishganimizdan soông ravnaq topib ketdi.

Hozirgi kunda Oôzbekistonda turizmning milliy modeli shakllanib bormoqda. Uning milliy gôoyaviy siyosiy tusi ishlab chiqilmoqda. Bu tus oôzida Oôzbek xalqining mentalitetini, sharqona mehmondoôstlik anôanalarini, gôarbona xizmat standartlarini mujassamlashtirilgan.

Turistik xizmatlar soxasi shuningdek, aviakompaniyalar, avtomobil transport assotsatsiyalari, temir yoôl kompaniyalari, madaniyat hordiq tashkilotlari, telekomunitsiyalar, savdo, ovqatlanish, mahalliy sanoat, ommaviy axborot vositalari kabilar bilan chambarchaslikda milliy turizm modelini yaratdi.

Butun turistlar oqimining 80% ni turizm yaxshi rivojlangan Buxoro, Samarqand, Xorazm, Toshkent viloyati, Toshkent shahri tashkil qiladi. Soônggi yillarda Fargôona vodiysi, Jizzax, Qashqadaryo, Surxandaryo viloyatlariga boôlgan qiziqish oôsib borib u 20 %ga toôgri kelgan.

Oôzbekiston oôzining koôp asrlik tarixi, betakror madaniyati, anôanalari tufayli Buyuk Ipak yoôlidagi muhim bir mamlakat boôlib, turistik firma va turistlarning diqqatini oôziga jalb qilib kelmoqda. Germaniya, Yaponiya, Fransiya, Italiya, Turkiya, Rossiya kabi davlatlardagi turistlarning katta oqimi tashrif buyurmoqda.

Chet el investorlari uchun, Oôzbekistonlik tadbirkorlar uchun xalqaro turizm sohasidagi imtiyozlar katta va kichik mexmonxonalar, firmalarning eôtiborini oôziga jalb qilib kelmoqda.

Bugungi kun turizm tizimini tashkil qilish turizm koôrsatkichlarining oôsishini qayd qilib kelmoqda. Bu esa oôtkazilgan islohotlar, chora-tadbirlar, sohaning moddiy-texnik bazasini qayta qurilishi, xizmat turlarining takomillashuvi natijasidir.

Har bir chet ellik turist turistik firmadan tashqari Respublikada yana ancha xizmatlar uchun pul toôlaydi. Bu suvenirlar xarid qilindi, boshqa xizmat va predmedlari haqqini toôlashda aksini topadi.

2011-yil 17-yanvarda Respublikada tasdiqlangan turizmning yordamchi xisob dasturini ishga solishi koôzga tutilgan edi. Unga asosan 2011-2012-yillarda jamlangan asosiy mablagô haqida maôlumotga ega boôlish mumkin. 2012-yilning birinchi yarmida turizm eksporti 285,4 mln AQSh dollarini tashkil etgan.

ñOôzbekturizmò Milliy kompaniyasi xalqaro darajada faol ishlab kelyapti. U Germaniya, Angliya, Fransiya, Italiya, Ispaniya, Yaponiya, Turkiya, Rossiyadagi yirik xalqaro turistik birja yarmarkalarda ishtirok etib kelmoqda.

Yuklatilgan vazifalarga muvofiq ravishda kompaniya quyidagilarni amalga oshiradi:

Å Oôzbekiston Respublikasida turizmni rivojlantirishning asosiy strategik yoônalishlarini ishlab chiqadi;

Å turizmni rivojlantirish boôyicha meôyoriy-huquqiy hujjatlarning loyihalarini ishlab chiqishda ishtirok etadi;

Å turistik faoliyatni litsenziyalash boôyicha ishchi idorasining vazifalarini amalga oshiradi;

Å ñTurizm toôgôrisidaògi Qonunga muvofiq turistik xizmatlarni sertifikatlashni oôtkazadi;

ÅTurizm sohasida statistik hisobotlarning tizimini takomillashtirish boôyicha takliflarni ishlab chiqadi;

ÅTurizm sohasida marketing tadqiqotlarini tashkil etadi;

ÅRespublikada turizmning rivojlanishi yuzasidan tahliliy ishlarni oôtkazadi hamda uning asosiy rivojlanish yoônalishlarini va istiqbollarini belgilaydi;

ÅTurizmni rivojlantirish boôyicha maqsadli, sohaviy va mintaqaviy dasturlar yuzasidan takliflarni tayyorlaydi va ularning bajarilishini muvofiqlashtirishni tashkil etadi;

ÅTuristik xizmatlarni taqdim etishning reklama-axborot taôminoti boôyicha faoliyatni amalga oshiradi;

Å Chet el davlatlarining milliy turistik maômuriyatlari bilan va ularning Oôzbekiston Respublikasidagi vakolatxonalari bilan hamkorlikni amalga oshiradi;

ÅButunjahon turistik tashkilot (BTT) hamda turizm bilan bogôliq boôlgan boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilishni taôminlaydi, ularda respublikaning manfaatlarini ifoda etadi;

ÅTuristik industriyaga sarmoyalarni jalb etish ishida ishtirok etadi;

Å Turistik infrastrukturani rivojlantirish sohasida sarmoyaviy loyihalarni ishlab chiqadi;

Å Tashqi bozorda Oôzbekiston Respublikasining manfaatlariga rioya etilishini tahlil qiladi va uning asosida turistik sohada salbiy hodisalarni bartaraf etish yuzasidan takliflarni tayyorlaydi;

Å Turistik soha uchun kadrlarni tayyorlash boôyicha xalqaro dasturlarni amalga oshiradi.

"Oôzbj kturizm" MKning tashkiliy tuzilmasi:

Mintaqaviy boôlimlar uchta viloyatda saqlanib qoldi: Samarqand mintaqaviy boôlimi, Xorazm mintaqaviy boôlimi, Buxoro mintaqaviy boôlimi.

Hududiy sayohat va ekskursiya byurolari davlat korxonalari (bundan kj yin SEB dk) esa j ttita viloyatda tashkil etildi: Surxondaryo SEB dk, Qashqadaryo SEB dk, Navoiy SEB dk, Qoraqalpogôiston SEB dk, Jizzax SEB dk, Namangan SEB dk, Fargôona SEB dk.

"Oôzbj kturizm" MK tizimida quyidagi mj hmonxona komplj kslari saqlanib qoldi: "Afrosiyob - Palas" mj hmonxona komplj ksi davlat korxonasi, "Buxoro - Palas" mj hmonxona komplj ksi davlat korxonasi, "Xiva" turizm ekskursiya komplj ksi davlat korxonasi, "Jayxun" mj hmonxona komplj ksi davlat korxonasi, "Xorazm" mj hmonxona komplj ksi davlat korxonasi, "Oôzolmonxotj lz" qoôshma korxonasi.

Xizmat koôrsatuvchi tuzilmalardan "Dispj tcherlashtirish va xizmat koôrsatish markaziyboshqarmasi" davlat korxonasi, "Rj spublika ilmiy - oôquv konsalting markazi" davlat korxonasi, "Qurilayotgan ob'j ktlar dirj ktsiyasi" davlat korxonasi ham milliy kompaniya tizimida saqlanib qoldi.

"Oôzbj kturizm" MK markaziy apparatining tuzilmasi:

Rais - 1 kishi.

Rais yordamchisi - 1 kishi.

Raisning birinchi oôrinbosari - 1 kishi boôlib, unga - Turistik xizmatlar va invj stitsiyalar markj tingi boôlimi - 3 kishi, Xalqaro aloqalar boôlimi - 4 kishi, Litsj nziyalash boôlimi - 2 kishi, shuningdj k, mutasaddiliq qilinadigan tashkilotlardan - Rj spublika ilmiy - oôquv konsalting markazi, Kurilayotgan ob'j ktlar dirj ktsiyasi, Dispj tcherlashtirish va xizmat koôrsatish markaziy boshqarmasi qaraydigan boôldi.

Rais oôrinbosari - 1 kishi boôlib, unga - Mintaqaviy va xususiy turizmni rivojlantirishni qoôllab - quvvatlash boôlimi - 3 kishi, Moliya - iqtisodiyot

boshqarmasi - 5 kishi, Kadrlar va mutaxassislarni qayta tayyorlashni tashkil etish boõlimi - 2 kishi, shuningdÿk, mutasaddiliq qilinadigan tashkilotlardan - Samarqand, Buxoro, Xorazm mintaqaviy boõlimlari, hududiy sayohat va ekskursiya byurolari qaraydigan boõldi.

ñOõzbekturizmò MK tizimiga quyidagilar kiradi:

Å Samarqand, Buxoro, Xorazm mintaqaviy boõlimlari;

Å ñOõzbekiston Respublikasi viloyat markazlaridagi sayohatlar va ekskursiyalar byurosiò davlat korxonasi;

ÅĂRespublika ilmiy-oõquv konsalting markaziò davlat korxonasi;

Å ĂDispetcherizatsiya va xizmat koõrsatish markaziy boshqarmasiò davlat korxonasi;

Åboshqa qoõl ostidagi tashkilotlar.

Kompaniya oõz faoliyatini boshqa davlat boshqaruvi idoralari, joylardagi davlat boshqaruvi idoralari, ijtimoiy birlashmalar va boshqa tashkilotlar bilan uzviy hamkorlikda amalga oshiradi.

Samarqand mintaqaviy filialiga quyidagi viloyatlar: Andijon, Namangan, Toshkent viloyati, Toshkent shahri va Samarqand biriktirilgan.

Xorazm mintaqaviy filialiga quyidagi viloyatlar: Navoi, Qashqadaryo va Qoraqalpogõiston Respulikasi biriktirilgan.

Buxoro mintaqaviy filialiga esa :Fargõona, Sirdaryo, Jizzax va Surxondaryo viloyatlari biriktirilgan. Bu mintaqaviy filiallarning asosiy vazifasi quyidagilardan iborat:

Å turizm sohasida yagona davlat siyosatining oõtkazilishini taõminlash, turistik xizmatlar infrastrukturasining shakllanishiga koõmaklashish;

Åturizmni rivojlantirish davlat dasturlarini, turistlarning himoya etilishini va xavfsizligini taõminlash dasturlarini amalga oshirish, turistik faoliyatning sohalararo muvofiqlashtirilishi;

Åchet ellik kreditlar va sarmoyalarning turizmni rivojlantirish sohasiga jalb etish, shuningdek u yerdagi kompaniyalar bilan hamkorlik qilishning uzoq muddatli dasturlarini rivojlantirish;

Åturizm sohasi uchun kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish choralarining majmuasini amalga oshirish, sohaviy turistik fanlaring rivojlanishiga koômaklashish.

## 3.2. „O'zbekturizm'' MKni turizmni rivojlantirishdagi asosiy vazifalari va mavjud imkoniyatlari.

Quyidagilar Kompaniyaning asosiy vazifalari hisoblanadi:

-turizm sohasida yagona davlat siyosati oótkazilishini ta'minlash, turistik xizmatlar infratuzilmalarini shakllantirishga koómaklashish;

-turizmni rivojlantirish davlat dasturlarini, turistlarning muhofaza qilinishini va xavfsizligini ta'minlash dasturlarini amalga oshirish, turistik faoliyatni tarmoqlararo va mintaqalararo muvofiqlashtirish;

-turistik xizmatlarni sertifikatlashtirish;

-turizm sohasida reklama-axborot siyosatini amalga oshirish;

-turizmni rivojlantirish sohasiga xorijiy kreditlar va investitsiyalarni jalb etish, xorijiy mamlakatlar, shuningdek xorijiy kompaniyalar bilan hamkorlikning uzoq muddatli dasturlarini rivojlantirish;

-turizm sohasi uchun kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish chora-tadbirlari kompleksini amalga oshirish, turizm tarmoq fanini rivojlantirishga koómaklashish.

Kompaniya oóziga yuklangan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

-Oózbekiston Respublikasida turizmni rivojlantirishning asosiy strategik yoónalishlarini ishlab chiqadi;

-turizmni rivojlantirish boóyicha normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqishda qatnashadi;

-turistik faoliyatni litsenziyalash boóyicha ishchi organ funksiyasini amalga oshiradi;

-ñTurizm toógórisidaògi Qonunga muvofiq turistik xizmatlarni sertifikatlashtirishni amalga oshiradi;

-turizm sohasida statistik hisobot tizimini takomillashtirish boóyicha takliflar ishlab chiqadi;

-turizm sohasida marketing tadqiqotlarini tashkil qiladi;

-tahliliy ishlarni amalga oshiradi va respublikada turizmni rivojlantirishning asosiy tendensiyalari va prognozlarini belgilaydi;

-turizmni rivojlantirish boóyicha takliflar tayyorlaydi hamda maqsadli, tarmoq va mintaqaviy dasturlar bajarilishini muvofiqlashtirishni tashkil qiladi;

-turistik xizmatlarning amalga oshirilishini reklama-axborot bilan ta'minlash faoliyatini amalga oshiradi;

-xorijiy davlatlarning milliy turistik ma'muriyatlari va ularning Oózbekiston Respublikasidagi vakolatxonalari bilan hamkorlikni amalga oshiradi;

-Jahon turizm tashkiloti hamda turizm bilan bogóliq boshqa xalqaro tashkilotlar bilan oózaro hamkorlikni ta'minlaydi, ularda respublika manfaatlarini ifodalaydi;

-turizm industriyasini rivojlantirishga investitsiyalar jalb etish ishlarida qatnashadi;

-turizm infratuzilmasini rivojlantirish sohasidagi investitsiya loyihalarini ishlab chiqadi;

-tashqi bozorda Oózbekiston Respublikasi manfaatlariga rioya etilishini tahlil qiladi hamda uning asosida turizm sohasidagi salbiy holatlarni bartaraf etish boóyicha takliflar tayyorlaydi;

-turizm sohasi uchun kadrlar tayyorlash boóyicha xalqaro dasturlarni amalga oshiradi.

Kompaniya oóziga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bevosita, shuningdek mintaqaviy boólimlar, tasarrufidagi boshqa tashkilotlar orqali bajaradi.

Oózbekiston Respublikasi Prezidentining ñOózbekiston Respublikasida turizmni 2005 yilgacha rivojlantirish dasturi toógórisidagiò 1999 yil 15 aprelidagi, ñTurizmni rivojlantiish uchun malakali xodimlarni tayyorlash haqidagiò farmonlariga binoan 2000 yil 14 iyunda ñOózbekturizmò AK qoshida Respublika Ilmiy-Oóquv Konsalting markazi tashkil etildi.

Tashkilot vazifasi: turizm sohasi boóyicha malakali xodimlarni tayyorlash, qayta tayyorlash, malakalarini oshirish, turizm sohasini rivojlantirish boóyicha ilmiy ishlarni qoôllab-quvvatlashdan iborat.

Biz ñOôzbekturizmò MKsining tuzilishi, asosiy vazifalarini, tarkibiga kiruvchi boôlimlarini yani boshqaruvini toôliq tavsifini keltirdik. Qaysiki tashkilotda boshqaruv yaxshi yoôlga qoôyilsa rivojlanish tez suratlarda boôladi, yuqori darajada tashkil etilgan boshqaruv va jahon tajribasida oôzini oqlagan menejment strukturalari va boshqaruv oganlarini oôrganish va ijobiy jihatlarini oôzimizda qoôllash orqali sifatli va samarali natijalarga erishish mumkin.

Buni amalga oshirish uchun esa biz avvalo menejment yaxshi yoôlga qoôyilgan mamlakatlar yoki turistik hududlar tajribasini oôrganib chiqishimiz lozim. Shundan kelib chiqqan holda ularning yutuqlaridan oqilona foydalanib, bizning turistik hududlar bilan solishtirish va yaxshi jihatlarini oôzimizda qoôllay olishdan iborat.

Mana shunday davlatlardan biri bu Kipr hisoblanib, oôzining turizmida boshqaruvning puxta oôylanganligi va toôgôri yoôlga qoôyilganligi sabab, turizm sohasida ancha katta yutuqlarga erishgan boôlib hisoblanadi. Avvalambor Kipr turizm tashkiloti haqida gap ketar ekan, birinchi navbatda bu tashkilotning Kipr turizm sohasida yetakchi tashkilotlardan biri ekanligini taôkidlash kerak.

Kipr turizm tashkiloti mamlakatning turizm salohiyatini oôrganib, marketingning yaxshi ishlaganligi va puxta oôylangan menejment evaziga Kiprda turizm rivojlanishiga katta turtki berdi. Hozirga kunda aynan shu tashkilotning xodimlari mehnati va aql ï idroki evaziga Kiprning turizm industriyasi yildan ï yilga rivoj topib bormoqda.

Endi esa Kiprni turizmni boshqaruv apparatini tavsiflab, ikkalasini qiyosiy tahlilini keltirmoqchimiz. Shu yoôl bilan bu tashkilotni afzal tomonlarini oôzimizga tatbiq qilsak maqsadga muvofiq boôlardi.

**3.2.1-rasm. Kipr turistik tashkiloti bosjqaruvining tuzilishi.**[52]

[52] Manba: www.visitcyprus.com


BOARD OF DIRECTORS
DIRECTOR GENERAL
GENERAL ADMINISTRATION
INTERNAL AUDITOR
ADMINISTRATION DEPARTMENT
MARKETING AND COMMUNICATION DEPARTMENT
STRATEGY DEPARTMENT
QUALITY ASSURANCE DEPARTMENT
ACCOUNTS OFFICE
OVERSEAS OFFICES
TECHNICAL SERVICES
TECHNICAL SERVICES
REGISTRY OFFICE
LOCAL INFORMATION OFFICES
LARNAKA MARINA
INSPECTORS OFFICES
Board of Directors Secretariat
Personnel Issues
Tenders and Contracts
Legal Issues
Computerization Information Technology
Economic services
Study Center - Human Resources
Organisation and operation of the Registry
Advertising
Public Relations
Print and Audiovisual media of Promotion
Hospitality
International tourist exhibitions
Press and Public relations issues
International Organisations
Organisation and supervision of tourist information offices
E-Marketing
Organisation of seminar conferences
Implementation of Strategic Plan
Studies/Surveys
Regional Strategies
Tourist Development Planning
Planning and execution of projects of tourist infrastructure
Tourism Advisory Committee Secretariat
Consideration of hotel and tourist accommodation plans
Larnaka Marina Management
Cultural events
Statistics
Information Centre
European Union
Preparation and implementation of legislation regarding hotels and other tourist accommodations, recreational establishments, tourist and travel agencies and tourist guides
Inspection of Tourist Enterprises
Inspectors' services
Licensing for the operation of tourist enterprises
Studies for the construction of new hotel units and recreation centres
Licensing of tourist guides
Implementation of quality systems

Yuqoridagi 3.2.1 ї jadvalni batafsil yoritar ekanmiz, Kipr turizm boshqaruv organi yuqoridagi boshqaruv strukturasiga ega boўlib, oўzaro uzviy bogўlangan ierarxik va matritsaviy koўrinishdagi tizimni tashkil etadi. Uning yuqori boўgўini boshqaruv apparati hisoblanib, u oўz ichiga direktor va uning sohaviy oўrinbosarlarini oўz ichiga oladi. Keyingi 2 ta alohida shtabli boshqaruv strukturasiga ega boўgўin umumiy maўmuriyat va ichki audit hisoblanadi. Umumiy maўmuriyat boўlimi bir nechta vazifalarni oўz ichiga oladi:

- boўlimlar faoliyatini muvofiqlashtirish;
- ichki tashkiliy vazifalarni amalga oshirish;
- boўlimlar faoliyatini nazorat qilish;
- kuzatilayotgan xato va kamchiliklarni aniqlab, ularni bartaraf etish;
- boўlimlar ustidan monitoring faoliyatini amalga oshirish va boshqa vazifalarni amalga oshiradi.

Umumiy maўmuriyat ushbu vazifalarni amalga oshirishdan tashqari oўz faoliyati yuzasidan yuqori boўgўinga hisobot taqdim etadi.

Ichki audit boўlimi ham umumiy maўmuriyat singari shtabli boshqaruv strukturasiga ega boўlib, boўlimlar faoliyati yuzasidan ichki audit nazoratini amalga oshiradi. Ichki audit boўlimi quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

- boўlimlar hujjatlarini taftish qilish;
- hujjatlashtirishda kuzatilgan xato va kamchiliklarni aniqlash;
- tashqi taftish va audit uchun hujjatlarni tayyorlash;
- xato va kamchiliklarni tuzatish boўyicha yoўriqnomalar tayyorlash va boshqa professional xizmatlarni amalga oshirish;

Keyingi quyi boўlim administratsiya boўlimi boўlib, mijozlarni roўyxatga olish faoliyati bilan shugўullanadi. Bu boўlim korxonada alohida oўringa ega boўlim hisoblanadi. Zero, korxona yuzi aynan adminstratsiya xodimlari hisoblanadi va ular asosan mijozlar bilan ish yuritadi.

Administratsiya boўlimining asosaiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- roôyxatga olish xizmati;
- tenderlar oôtkazish, ularda qatnashish va shartnomalar tuzish;
- bevosita oôqish markazlari bilan ishlash;
- roôyxatga olish tashkilotlari bilan ishlash;
- xodimlar bilan ish olib boradi va boshqa shunga oôxshash xizmatlarni bajaradi.

Hisob ï kitob boôlimi ï mijozlar bilan boôladigan operatsiyalar va bevosita korxona ichki faoliyati hisobini yuritadi va har oyning oxirida tuzilgan hisobotlarni kvartallar boôyicha va yil yakuni boôyicha yuqori boôgôinga taqdim etadi. Hisob ï kitob boôlimi faoliyati ancha murakkab boôlib, hisobning operativ, kunlik va boshqa turlari bilan bevosita faoliyat olib boradi. Hisob ï kitob boôlimi quyidagi asosiy vazifalarni bajaradi:

- korxonaning va ishchi ï xodimlarning qonuniy daromadlar hisoblash;
- korxona shaxsiy daromadlarini koôrib chiqish;
- barcha hisob ï kitoblarni kompyuterlashtirish;
- korxona hisobini yuritish va boshqa xizmatlarni bajaradi.

Keyingi quyi boôgôin marketing boôlimi hisoblanib, u oôz ichiga bevosita aloqa boôlimini ham qamrab oladi. Marketing boôlimi korxonaning bozordagi faoliyatini tahlil qilish va bozor talabiga mos yangi turdagi xizmatlarni ishlab chiqish va tadbiq qilish faoliyati bilan shugôullanadi. Marketing boôlimi oôz faoliyatida turli statistik soôrov va omma bilan aloqa kabi metodlardan foydalanadi. Uning omma bilan aloqa va tashqi aloqa funksiyasi korxonada muhim sanalganligi tufayli u oôz ichiga aloqalar boôlimini ham qamrab olgan. Marketing va aloqa boôlimi quyidagi vazifalarni oôz ichiga oladi:

- reklama;
- xalqaro turistik koôrgazmalarni tashkil etish va qatnashish
- mehmondoôstlik;
- E ï marketing;
- bozorni oôrganish va boshqa shu kabi vazifalarni bajaradi.

Tashqi aloqalar boôlimi ï bevosita marketing va aloqa boôlimiga boôysunadi

va uning tashqi faoliyati boôyicha vazifalarni amalga oshiradi.

Tashqi aloqa boôlimi nafaqat mamlakat hududi boôyicha, shuningdek boshqa davlatlar bilan ham xalqaro munosabatlarni tashkil etishda ishtirok etadi. Tashqi aloqalar boôlimi chet davlatlar va ularning kompaniyalari bilan oôzaro hamkorlik oôrnatishda, invistitsiyalarni jalb qilishda muhim rol oôynaydi. Tashqi aloqalar boôlimi quyidagi vazifalarni bajaradi:

- ommaviy aloqa;
- xalqaro tashkilotlar bilan aloqa oôrnatish;
- bosma va ommaviy aloqa qoôllab ï quvvatlash;
- mahalliy informatsiyalar tezkorligini taôminlash;
- seminar va konferensiyalar tashkil qilish va ularda qatnashish;
- turistik information ofislarni tashkil etish va ular faoliyatini rivojlantirish;
- boshqa davlatlar bilan turizm sohasida hamkorlikni yoôlga qoôyish;

Kipr turizm tashkiloti strategiya boôlimi ï uning faoliyatida muhim qarorlarni qabul qilishda asosiy rolni oôynaydi va strategik loyihalarni ishlab chiqish bilan birga, uning tadbiq etilishi va amalga oshirilishi ustidan nazoratni oôz qoôliga oladi. Strategiya boôlimi asosan korxonaning uzoq muddatli, asosiy maqsadiga xos rejalarini ishlab chiqadi. Uning strategic maqsadga erishishi uchun kompleks chora ï tadbirlar dasturini yaratadi. Startegiya boôlimi quyidagi vazifalarni bajaradi:

- hududiy strategiya;
- turistik rivojlanish rejasi;
- oôrtaga tashlangan maôlum vazifani oôrganish va muhokama qilish;
- strategik rejaning bajarilishini amalga oshirish;

Kipr turizm tashkilotining texnik boôlimi ï bevosita strategiya boôlimiga boôysunib, strategik maqsadlarni amalga oshirishda texnik jihatdan qoôllab ï quvvatlash vazifasini bajaradi. Kipr turizm tashkilotida ikkita texnik boôlim boôlib, bu boôlim asosiy faoliyati korxonaning tashkiliy ishlari va omma bilan ishlash hisoblanadi. Bundan tashqari bu boôlim tomonidan korxonaning ichki statistikasi hamda turistik hududning statistikasi ham olib boriladi. Texnik boôlimda maqsad

qilingan, oʻylanagan va rejalashtirilgan barcha ishlar va tadbirlar strategiya boʻlimi tomonidan amalga oshiriladi. Texnik boʻlimning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- turli koʻrinishdagi madaniy tadbirlar;
- informatsion markazlarni tashkil etishda ishtirok etish va ularning faoliyatini qoʻllab ï quvvatlash;
- turistik infrastrukturaning proyektlarini rejalashtirish;
- barcha statistik hisob ï kitoblarni amalga oshirish;

Sifatni sertifikatlash boʻlimi ï korxonaning faoliyatida muhim rol oʻynaydigan boʻlimlardan biri boʻlib hisoblanadi. Bu boʻlimda barcha ishlar bevosita shu sohada faoliyat koʻrsatadigan, ularning faoliyatini qonuniylashtirib, turistlarga xizmat qiladigan yuridik va jismoniy shaxslar bilan amalga oshiriladi.Albatta bu kabi ishlar aynan shu boʻlimda ishlaydigan va xizmat qiladigan xodimlarga katta masʻuliyat yuklaydi. Chunki ular shu sohada ishlayotgan va ishlamoqchi boʻlgan barchani turizm sohasida litsenziyalar berish va ularning faoiyatini oʻrganib chiqib sertifikatlashni amalga oshirishadi. Sifatni sertifikatlash boʻlimi quyidagi asosiy vazifalarni bajaradi:

- turistik tashkilot faoliyatini oʻrganib chiqish;
- kuzatuvchilik faoliyatini olib boorish;
- gidlarga litsenziya berish;
- yangi mehmonxona komplekslari va rekreatsion markazlarning sistemasini oʻrganish;
- sifat sistemalarini takomillashtirish;

Yana bir boʻlimlardan biri ikkinchi texnik boʻlim boʻlib, bu boʻlim bevosita sifatni sertifikatlash boʻlimiga boʻysunadi va ular bilan ish olib boradi. Ushbu boʻlim vakillari barcha texnik jihatlar bilan bogʻliq holatlarda bevosita qatnashishadi va faoliyat olib borishadi. Boʻlimning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- kuzatuvchilarning xizmatini tashkillashtirish;
- turistik va sayohat agentliklarinig sertifikatlanishida qatnashish va boshqa

vazifalarni bajaradi.

Biz yuqorida ikki davlatning yaôni Kipr va Oôzbekistonning turizmida boshqaruv strukturalari , ularning faoliyati qanday yoôlga qoôyilganligi va ularda amalga oshirilayotgan vazifalar bilan tudan tanishib chiqdik. Bu ikkala boshqaruv strukturasining bir ï biriga oôxshash jihatlari, shu bilan birga bir qator farqli tomonlari ham namoyon boôldi.

Avvalo, Kipr turizm boshqaruv sistemasini oôrganishim va uni ñOôzbekturizmò Milliy kompaniyasi bilan solishtirib, taqqoslashimga asosiy sabab, Kipr respublikasida turizm uchun qulay shart ï sharoitlar yaratilgan boôlib, davlat tomonidan turizmga katta eôtibor berilayotganligi, turistik soha vakillari oôz xizmatlari bilan barcha turdagi segmentlarni qamrab olayotganligi, boshqaruvning toôgôri yoôlga qoôyilganligi, dunyoning asosiy tiristik maskanlaridan biri boôlib qolayotganligi va biz uchun oôrganadigan jihatlari koôp ekanligini koôrsatib oôtishim mumkin.

Kipr turizm boshqaruv strukturasi ( menejmenti ) har tomonlama chuqur oôylanib, aynan oôsha region, mamlakatning turizm sohasining boshqaruvida muhim oôrin egallaydi. Chunki bu boshqaruv strukturasida korxonaning barcha boôgôinlariga ular bajaradigan ishlar toôgôri yuklatilganligi, boôlimlar oldiga hududni rivojlantirish boôyicha aniq maqsad va vazifalar qoôyilganligi bilan farqlanadi. Aynan mana shunday jihatlarni hisobga olgan holda bu ikki boshqaruv strukturasida bir qator oôxshashliklar va farqli tomonlar koôrishimiz mumkin.

Kipr boshqaruv strukturasi va ñOôzbekturizmò Milliy kompaniyasi oôrtasida oôxshash jihatlar quyidagilarda namoyon boôladi. Har ikkalasining tashkiliy tuzilmasi va xodimlar shtatiga hamda boôlimlar maqsadiga eôtibor qaratadigan boôlsak, boshqaruv boôgôini deyarli bir xil yaôni boshqaruvchi (rais), uning sohalar boôyicha oôrinbosarlari, ulardan soông oôz qiladigan vazifasiga qarab boôlimlardan tashkil topgan.

Bu boôlimlar oôziga yuklatilgan vazifalardan kelib chiqqan holda faoliyat olib boradi. Bu olib borayotgan faoliyatlari maôlum mintaqada turizmni oôrganish, sohaga yangiliklarni jalb qilish, turizm korxonalari oôrtasida oôzaro hamkorlikni

yoʻlga qoʻyishdan iborat. Boʻlimlar oʻrtasida oʻxshashliklarni yana ularning faoliyatidan kelib chiqqan holda aytish mumkin. Masalan: Kipr turizm boshqaruvining marketing va aloqa boʻlimi ï turistik xizmatlar, xalqaro turistik koʻrgazmalarni uyushtirish va ularda qatnashish tadbirlari, mahalliy bozorni oʻrganish, mehmondoʻstlik, E ï marketing, reklama va boshqa shunga oʻxshash jarayonlar bilan shugʻullansa, ñOʻzbekturizmò Milliy kompaniyasida deyarli shu va shularga oʻxshash vazifalar bilan Turistik xizmatlar va invistitsiyalar marketingi boʻlimi shugʻullanadi.

Yana Kipr turizm boshqaruvining tashqi aloqalar boʻlimi ï ommaviy aloqa, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorliklar va kelishuvlar, bosma va ovozli axborot, oʻz faoliyatidan tushadigan daromadlar, xalqaro darajada seminar va konferensiyalarni tashkil etish va qatnashish, turistik informatsion ofislarni ochish kabi vazifalarni bajarsa, ñOʻzbekturizmò Milliy kompaniyasida shunday vazifalar bilan Xalqaro aloqalar boʻlimi ish olib boradi.

Kipr turizm boshqaruvi tarkibida sifatni sertifikatlash boʻlimi boʻlib, bu boʻlim quyidagi ishlarni amalga oshiradi ï turistik faoliyatni yuritish uchun litsenziyalar bersih, yangi mehmonxona kompleksi va rekreatsion markazlarning sistemasini oʻrganish, kuzatuv, gidlar va tarjimonlarga litsenziyalar berish, turistik tashkilotlar faoliyatini oʻrganish kabilarni bajarsa, ñOʻzbekturizmò Milliy kompaniyasida bu vazifalarning barchasi bilan litsenziyalash boʻlimi shugʻullanadi. Bulardan tashqari Kipr turizm boshqaruvida strategiya boʻlimi ham ï turistik rivojlanish rejasi, mintaqada turizm holatini oʻrganish va muhokama qilish, hududiy strategiyani ishlab chiqish va strategik rejaning bajarilishi kabi vazifalarni bajarsa, ñOʻzbekturizmò Milliy kompaniyasida shunga oʻxshash ishlarni Mintaqaviy va xususiy turizmni rivojlantirishni qoʻllab ï quvvatlash boʻlimi oʻz zimmasiga olgan.

Umuman olganda, ñOʻzbekturizmò Milliy kompaniyasi boshqaruv organi sifatida oʻz oldiga asosiy maqsad qilib butun turistik mintaqada turizmni rivojlantirish, turistlarning barcha segmentlarini jalb qilish, mahalliy turistik va mehmonxonalarni ish faoliyatini nazorat qilish, turistik hudud marketingi bilan

shugʻullanish, korxonalarda menejment boshqaruvini toʻgʻri tanlashda koʻmaklashish va shu kabi boshqa vazifalarni bajarishi maqsadga muvofiq boʻlar edi.

Kipr turizm tashkilotining yana bir ustun tomoni shundaki, ular tomonidan turistik mintaqada turistik information ofislarining tashkil qilinishi turistlarga bir qator qulayliklarni yaratadi. Avvalambor, oʻsha mintaqaga yoki mamlakatga tashrif buyurayotgan turistlar oʻsha joy haqida maʼlumot olish, u yerning qonunchiligi bilan tanishib chiqish, turistlarga tegishli yengilliklar, kerakli maʼlumotlar va turistlarga ruxsat etilgan huquqlar, favqulotda vaziyatlarda , baxtsiz hodisalarda, shaxsiy muammolar vujudga kelganda qayerga borishni, kimga murojaat etishni va oʻzlari uchun sayohat davomida kerak boʻladigan barcha manbalarni olishlari mumkin. Bu holat turistlarning manfaatinin oʻylab qilingan va ularni turli vaziyatlarda qoʻllab – quvvatlashlari, ularga yordam koʻrsatilishi, turistlarning tashrif buyurilgan joylarida hotirjam sayohat qilishlariga imkon yaratadi.

Yana bir farq qiluvchi jihat bu turistik infrastrukturaning proyektlarini rejalashtirish va amalga oshirish hisoblanadi. Bunda asosiy maqsad qilib, Kipr turizm tashkiloti turistik mintaqada boʻlayotgan har bir oʻzgarishga, yangilanishga bevosita qatnashishi va qoʻyilgan talablar yuzasidan barcha ishlar qonun doirasida boʻlishini taʼminlashi lozim. Bu esa turistik mintaqaning rivoj topib, oʻz jozibadorligini yoʻqotmasligida muhim ahamiyat kasb etadi.

Kipr turizm tashkilotining yana bir ustun tarafi shundaki, bu tashkilotda iloji boricha koʻproq informatsion texnologiyalardan foydalanishni toʻgʻri yoʻlga qoʻyilganligi va deyarli barcha ishlarda informatsion texnologiyalardan keng foydalanilayotganligi tashkilotning rivojlanishida, ishchi – xodimlarning ishini yengillashtirishda va asosiysi turistlarning qimmatli vaqtini tejashda muhim ahamiyatga ega.

**3.2.2 –jadval.**

**“O’zbekturizm” Milliy kompaniyasi va Kipr turizm tashkilotining farqli va o’xshash jihatlari.**

| **Kompaniyalarning bo’limlari va vazifalari** | **O’xshash tomonlar** | | **Farqli jihatlar** | |
|---|---|---|---|---|
| | ñOôzbek turizmò Milliy kompaniyasi | Kipr turizm tashkiloti | ñOôzbekturizmò Milliy kompaniyasi | Kipr turizm tashkiloti |
| Boshqaruv | Boshqaruv raisi | Kompaniya prezidenti | | |
| Umumiy maômuriyat | Boshqaruvchi sohaviy oôrinbosarlari | Sohalar boôyicha oôrinbosarlar | | |
| Audit | Moliya ï iqtisodiyot boshqarmasi | Hisob ï kitob boôlimi | Auditorlik xizmatlarini qisman moliya ï iqtisodiyot boshqarmasi zimmasida | Ichki auditor |
| Buxgalteriya | | | | |
| Marketing va aloqa | Turistik xizmatlar va invistitsiyalar marketing | Marketing va aloqa boôlimi | Bu vazifani boshqa boôlimlar faoliyatiga qoôshib yuborilgan | Texnik taôminot boôlimi |
| Texnik taôminot | | | | |
| Rejalashtirish | Mintaqaviy va xususiy turizmni rivojlantirish ni qoôllab ï quvvatlash boôlimi | Strategiya boôlimi | Kadrlar va mutaxassislarni qayta tayyorlash | Bunday faoliyat bilan qisman strategiya boôlimi shugôullanadi |
| Kadrlar tayyorlash | | | | |
| Sertifikatlash tirish | Sifatni sertifikatlash boôlimi | Litsenziyalash boôlimi | Samarqand, Xorazm, Buxoro mintaqaviy boôlimlari, hududiy sayohat va ekskursiya byurolari | Turistlar uchun joylarda information markazlar mavjud |
| Mintaqaviy boôlimlar | | | | |
| Xalqaro aloqalar | Xalqaro aloqalar boôlimi | Tashqi aloqalar boôlimi | 5 ta mehmonxona ish yuritadi | Bu yoônalishda ish olib bormaydi |
| Tashkilotga tegishli yirik mehmonxonalar | | | | |

3.2.2-jadvalda Kipr turizm tashkiloti va ñOôzbekturizmò Milliy kompaniyalarining oôrtasidagi qiyosiy jadvalda barcha boshqaruv strukturalari, boôlimlar va vazifalaridan kelib chiqqan holda bir ï biriga oôxshash tomonlar va farqli jihatlar batafsil koôrsatib oôtilga

Xulosa qilib aytganda, Kipr turizm tashkiloti va ñOzbekturizmò Milliy kompaniyasi oôrtasida bir qator oôxshashliklar boôlgani kabi bir qancha farq qiladigan jihatlar ham mavjud. Albatta biz ularning koôp yillik tajribasi bilan oôrtoqlashishimiz, ularning yaxshi jihatlarini oôzimizda ishlatishimiz, ularda boôlayotgan yangiliklarni bizning bozorda mukammalashtirib qoôllashimiz, soha mutaxassislari bilan bevosita ishlar olib borishimiz, ishchi ï xodimlarni chet ellarda oôqishi va amaliyot oôtashini taôminlashimiz lozim.

Bu kabi ishlarni amalga oshirishda nafaqat Kipr tajribasi bilan, balki boshqa turizm sohasi rivojlangan mamlakatlar bilan ish olib borishimiz, ulardan mutaxassislarimiz malaka oshirib, oôz turistik hududlarimiz, mehmonxonalarimiz, turistik tashkilotlarimiz va asosiysi ñOzbekturizmò Milliy kompaniyasi ravnaqi yoôlida turizmga oid bilimlarni oôrganishimiz va mehnatlarimizni toôgôri qoôllashimiz muhim ahamiyat kasb etadi.

### 3.3. „O’zbekturizm’’ MKning turizmni rivojlantirishdagi strategik dasturlari va faoliyatini takomillashtirish istiqbollari. (Respublika va Xorazm viloyati misolida)

Oôzbekiston uchun Fransiya eng katta bozor hisoblanadi, uning ketidan boshqa davlatlar turadilar. Sohada turoperatorlar ustinlik qiladi, ammo individual turistlar kamdan kam keladilar. Dunyo moliyaviy inqiroz moboynida Yevropadan keladigan turistlardan ham Osiyodan keladigan turistlar soni koôpaydi. Natija koôrsatkichi yaxshi boôldi va oqibatida shu davlatlar turistlar dam olish va sayoxat qilish uchun asosiy manbay boôldilar. Rus turistlarini doôstlar va qarindoshlarni koôrib kelish pasayganiga qaramasdan, dam olishga keladigan badavlat turistlarni soni koôpaygan. Oôrtachada olganda bir turist Uzbekistonda boôlish vaqtida kuniga 175 ï 200 AKSH dollar sarflaydi (aviabiletlar, mehmonxona,ovqatlanish va transport). Turizm sohasining YaIMdagi ulushi balandmas, pulda olsak 816,5 mln.

AQSH dollarga teng. (2010). Solishtirish uchun bu koơrsatkichni Iordaniyaga, turistik aktiv bazalari oơxshagan davlatlar bilan taqqoslash mumkin, lekin turistik sohasi ancha rivojlangan. Yalpi ichki maxsulotdagi hajmi 7,7% boơlgan, yoki 2,16 mllrd. AKSH dollar (2011 yilda.). Oơzbekistonda YaIMni oơsishi yetarlicha baland ï 8%, boshqa davlatlar orasida deyarli ikki baravar koơp, ammo, past darajadagi boshlangơich rivojlanishni hisobga olganda, u ancha baland boơlishi kerak edi. [53]

Qiyin raqobat sharoitida sayyohlik xizmati bozorida barcha mamlakatlar sharoitlarni hamisha yengillashtirishlari shart, shu bilan turistik kelishlarni sonini koơpaytirish mumkin. BTT ining tajribalari va tadqiqotlari shuni koơrsatadiki soddalashtirilgan tartibdagi viza rejimi turistik sayohatlar sonini 5% dan 25% gacha koơpaytirishi aniq faktdir. Misol qilib Buyuk Britaniya hamda Iordaniya mamlakatlarini keltirishimiz mumkin. Buyuk Britaniya Xitoylik sayyohlarga viza rejimini liberallashtirdi, natijada sayyohlar soni boơyicha Xitoy boshqa davlatlardan oơzib ketdi. Iordaniya esa Hind sayyohlariga besh va undan koơp boơlib sayohat qiladigan sayyohlar uchun vizalarni mamlakatga kirayotganda chegara kesib oơtadigan joylardan olishga ruxsat berildi, Iordaniya sayyohlik agenti vakolati orqali harakat qilgan holda. Viza toơlovlari bekor qilindi va zarur hujjatlar uchun minimal oơrnatilgan toơlovlar qoldirildi (passport va viza qiymati viza anketasi) davlat sertifikatidan oơtgan tarjimonlar guruh bilan kirib, guruh bilan chiqib hamrohlik qildi. Islohot shunchalik muvaffaqiyatli boơldiki, (kiruvchi turizm koơrsatkichi 92% ga oơsdi 2010 yilning birinchi olti oyida) keyin uni jismoniy shaxslar uchun kengaytirishga qaror qilishdi, shuningdek boshqa mamlakatlar fuqorolari uchun ham. 2012 hind fuqorolarini yetib kelishi 45%ga oơsganligi qayd qilindi. Hozirgi vaqtda har qanday mamlakat fuqarolari (taqiqlash oz mamlakatlarda bor) kirish vizasini 30 dollarga, pasportini koơrsatish va vizaga arizasi sharti bilan sotib olishlari mumkin. Agarda Oơzbekiston shunga oơxshagan liberallashgan viza rejimini yoơlga qoơysa, aholi 2 yil davomida 40%ga koơpayishi mumkin.[54]

---

[53]ñOơzbekistoni ekspress baholashò Jahon Banki hisoboti. 2003 yil.
[54]Manba:Jahon banki maơlumotlari

Viza ushbu mamlakatlar  fuqarolari uchun talab qilinmaydi: Armaniston, Azarbayjon, Belarusiya, Gruziya, Qozogâiston, Qirgâiziston, Moldaviya, Rossiya va Ukraina. Boshqa mamlakat mehmonlarida viza boâlishi shart.Viza rejimi bir nechta mamlakat uchun yaqinda soddalashtirilganiga qaramasdan, viza rejimi Oâzbekistonga sayyohlar kelishi uchun butunligicha oágir va toásiqlarni yaratuvchi xisoblanadi.

Oâzbekistonga tashrif buyuradigan sayyohlarninng katta qismi guruh boâlib safar (85% atrofida)qilishadi va shu sababli vizani sayyohlik agentliklari koâmagida, oâzlarining sayyohlik ramkalarida olishadi, bu tizim ishbilarmon odamlar va  chet ellik sayyohlar uchun jiddiy toâxtatuvchi omil hisoblanadi. Mamlakatga  shaxsiy ishbilarmon sayyohlar tashrif buyursa foyda,chunki ular koâproq sarf qilishadi (oddiy sayyohga qaraganda , turar joyi yoki ovqatlanishini hisobga olganda ular ikki hissa koâp sarflashi mumkin) va qoidaga koâra ularni sarfi standart qolipdan tashqarida sodir boâladi. Muhimi qoâshimcha ravishda ular mamlakatga tashrifi haqida maâlumot tarqatuvchi manba sifatida tashrif vaqtida yoki keyin malumotlarni ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirishadi va katta guruhdagi insonlarga tavsiya qilishadi.

Bugungi kunda davlat tasarrufidagi  koápchilik mehmonxonalarning  daromad olib kelmayotganini va kundan-kunga bu mehmonxonalar narxi arzonlashib borayotganligini kuzatish mumkin. Oázbekiston Respublikasi hukumati oáz mulkchilik huquqlarini bu aktivlarga berishni istasa, uning bozordagi narxi bundanda tushib ketmasdan oldin bu ishni amalga oshirishi maksadga muvofiq.

Bozorda har yili yangi mehmonxonalar paydo boâladi. Masalan, Samarqandda maâlumotlarga koâra, har yili 5 ga yaqin yangi mehmonxona paydo boâladi; Xivada 1-2 ga yaqin mehmonxona ochiladi. Odatda ular 50ta xonaga moâljallangan, 2/3 yulduzli, va ñyevropacha usulò nuqtai nazaridan hech nimasi bilan boshqa mehmonxonalardan farq qilmaydi. Aksariyat hollarda arzon koârinishdagi plitali pol va gulqogâoz bilan bezatilgan devorli, va sintetik mebelli (laminat, plastik, poliestr va b.) intererlar  koâp uchraydi. Ularga chiroyli oâziga xos milliy dizayn yetishmaydi, keyingi kamchiligi ular bir xil tipda. Masalan oilaviy turistlar uchun

imkoniyatlar yoʻq, yoki qaysidir jihati bilan oʻzgacha, mehmonlarni qiziqtiradigan va hayratlantiradigan yangilik yoki oʻziga xoslik yoʻq.[55]

Viloyatimizda turizm sohasida ishlovchilar qishda elektroenergiya muammosidir. Elektrga boʻlgan talab oshishi bilan uni tez-tez uzib qoʻyishga toʻgʻri keladi,bu esa elektrogeneratorga muxtoj mehmonxonalar sarf-xarajatlarini oshirdi. Maʼlum tipga mansub Xorazmdagi mexmonxonalar soatiga 70-80 kilovatt sarflaydi. Mehmonxona xoʻjayinlarining soʻzlariga koʻra qishda gaz 4-5 soatgacha uchadi, natijada sovqotgan mexmonlarga katta noqulayliklar keltirib chiqaradi, bir qancha mehmonxonalar shu sababli qishda yopiladi ham. Bu paytda talab pasayadi, mahalliy turistlar toʻlovlarni 15 % gacha pasaytirganlar. Bu pullar faqat issiqlikni taminlash va generatorlar uchun sarflanib, oqibatda esa iqtisodiy tanglikka olib kelyapdi. Shusiz ham mamlakatimizdagi koʻpgina mehmonxonalar orasida zararga ishlash ananasi saqlanib kelmoqda. Chunki bizda turistik kelishlar mavsumiydir. Ammo bu ñqotibò qolgan tendensiyani oʻzgartirish lozim. Quyida bu borada bir necha takliflarni berib oʻtamiz.

Oʻzbekiston 1991 yil mustakillikka erishganidan soʻng energetik oʻzini-oʻzi taminlashga erishdi, hozirda Oʻrta Osiyo davlatlari orasidagi yirik elektroenergiya tabiiy gaz, koʻmir, neft va gidroenergetik resurslarni (13%) kombinatsiya kilib ishlab chikaruvchi davlat hisoblanadi. Bular bilan bir vaqtning oʻzida yetkazish va taqsimlashni oʻz ichiga olgan elektroenergiya quvvatinining asosiy qismi eskirgan va samarasiz ishlamoqda, keyingi yillarda uning texnik xizmat koʻrsatish darajasi pasaygan. Ushbu sohadagi muammolarning yechilishi sinergatik ravishda turizmning rivojlanishiga olib keladi.

Bundan tashqari turistik mavsumni uzaytirish yoki yil boʻyi xizmat koʻrsatishni taskil etishimiz kerak. Chunki bizning iqlimimiz keskin kontinental emas, yani yoz juda issiq, qish qattiq sovuq emas. Agarda yuqoridagi kabi muammolarni hal qila olsak, boshqa mavsumlarda ham turoperatorlarimiz yangi yoʻnalishlarni ishlab chiqqan holda turistlarni jalb qila olardi. Buning uchun

---

[55] ñOʻzbekistonni ekspress baholashò Jahon Banki hisoboti. 2003 yil.

turistik maxsulotlarimizni maksimal darajada diversifikatsiya qilish kerak. Masalan Shvetsariya va Avstriya davlatlarini taklifimizga isbot tariqasida keltirishimiz mumkin. Yozda rekreatsion turizm boôyicha turistik mavsum qaynasa, qishda Alp toôgôlarida turizmning aktiv turlari, sport turizmi qaynaydi. Biz ham yozgi mavsumlarda agroturizm, tarixiy-madaniy, ekologik turizm, diniy turizm, gastranomok turizm, sayllar (qovun sayli, vino sayli) kabi turlarni yozgi mavsumda oôtkazib, qishda ishbilarmonlik turizm boôyicha konferensiyalar, sport musoboqalari, xalqaro tashkilotlar yigôilishlariga mezbonlik qilish kabi turlarni taklif qilishimiz kerak.

Bizga sayyohlar 85% holatda jamoa boôlib kelishadi. Bunday olib qaraganda bu foydali (Nazorat qilish va boshqarish tufayli qulayroq chunki pul avans shaklida toôlanadi) biroq bu guruhlarni tashkil qilishda boshqa xil kamchiliklar ham boôlishi mumkin. Birinchidan, alohida sayyoh boôlib kelgan mehmonlarga qaraganda jamoa boôlib kelgan sayyohlar tomonidan kam mablagó sarflanadi. Jamoa sayyohlar sayohatida oósha shaxslar jamoa shartiga jalb qilinadi, chunki barcha toôlovlar avans shaklida toôlangan shu sababli sayyohlar oóz hamyonidan toôlashga ishtiyoq emas.

Ikkinchidan tur operatorlar mehmonxona va yoôl xarajatlarini oldindan belgilab qoóyadi shu sababli koóproq toôlaydigan yakka sayyohlarga joy qolmaydi. Raqobatni yengish imkoniyatiga ega boôlish uchun mehmonxona va taôminlovchilar guruhli turistlarni olish uchun yirik narx kamaytirish majburiyatini oladi, qoidaga koóra davlat standartlariga binoan jamoa guruhi uchun 25 % dan 40% gacha chegirma boôlib, shu joyda yakka sayyohlar odatda toôliq qiymatni toôlaydilar. Qatiy talablarga koóra, jamoadagi sayyohlar baôzi xil oózgaruvchan qarorlardan mahrum qilinadi, yani, agar toósatdan yana bir sutkaga qolishni qaror qilgan boôlsa yoki boshqa yoónalishni tanlagan boôlsa,boshqa diqqatga sazovor joylarni koôrmoqchi boôlsa mahrum qilinadi, vaqt nuqtayi nazaridan yoki asosiy yoónalishdan qolib ketish imkoniyati yoóq. Bu shuni bildiradiki sayyoh dollarlari xizmat koórsatish va diqqatga sazovor joylar uchun katta boôlmagan sonlar atrofida aylanadi. Yakka tartibda keluchi turistlarda esa koôproq aylanish va mablagô

sarflash imkoniyati koôproq. Ammo avans pulni olgan turoperatorlar mehmonxona nomerlari va  chiptalarni oldindan bron qilib qoôyishadi. Oôz oôzidan maôlumki turistik mavsumda yakka sayyohlarga boôsh oôrin qolmaydi.

Yillar davomida turistik mavsumda mehmonxona bandligi 100%ga, samolyotlar bandligi, bir oy oldin buyurtma qilishadi va natijada koôpgina turoperatorlar oôz mijozlarini rad qilishadi. Ayni mavsum paytida mehmonxona xonalari yetmaydi. Agar turistik oqimni koôpaytirishni istasak bunday muammolarni bartaraf qilish kerak.

Mamlakatning turistik imidji bu hamma narsa. Chunki turist borayotgan mamlakati haqida aniq tasavvurga ega boôlmasa, bunda asosiy roôlni imidj oôynaydi. Oôzbekiston 193 ta mamlakat orasidan 139-oôrinni egallaydi va bunga internet  soórovnomalarida davlatimiz tarixi haqida qarama ï qarshi va salbiy fikrlar sabab boôlmokda. Albatta, ñ olovsiz tutun boôlmaydi ò deyishimiz mumkin, ammo, koôpchilik yurtimiz bilan qiziqqan sayyohlar mamlakatimizning matbuotda bu tarzda yoritilishini noxaqlik deb xisoblaydilar. Oózbekistonning Xalkaro OAV bilan munosabatlari koóp yillar davomida keskin va ogóir boólib kelgan va bu aloqalar hozirgacha mustahkamlangani yoóq.

Shunga karamasdan, bu narsa sayyoxlarni qoórqitayotgani yoóq, chunki ular vositachilar tomonidan berilgan ijobiy takliflarni qabul qilishmokda va ularning xavfsizligi taminlanganligiga ishonishmoqda. SHunday boôlsada, bu narsa yakka sayyohlarni sonini kamaytirish bilan birga chet el investorlari  va xalqaro institutlar investitsiya darajasini pasaytirmokda.

- Oózbekistonni maôlum va mashxur qiluvchi  xalqaro tashkilotlar va hurmatga sazovor shaxslar, agentlik va birlashmalar bilan aloqalarni yaxshilash va mustahkamlash;
- Davlat brendini belgilash;
- Liberallashtirish va matbuotga erkinlik berish;
- OAV ni faollikka jalb kilish.

Endi esa ñOôzbekturizmò MKsi turizmni rivojlantirish sohasidagi faoliyatini takomillashtirish yoôllarini Xorazm viloyati misolida koôrib chiqsak.

Hozirgi kunda Xorazm viloyati boóyicha arxitektura, arxeologik va meômorial ekskursiya obôektlari soni 209 tani tashkil etgani holda, shundan 53 ta madaniy meros obôektlari Xiva»Ichan-Kalôa» Davlat muzey qoóriqxonasi hududida joylashgan. Qolgan obôektlar viloyatning turli tumanlarida joylashgan. Bu esa viloyatda turizmni rivojlantirish potensiali, uning imkoniyatlari kengligidan dalolat beradi. Kuzatishlar shuni koórsatdiki, hozirgi kunda viloyatda joylashgan ayrim turistik obôektlar taômirtalab ahvolga kelib qolgan. Baôzi obôektlar turistik yoónalishlar dasturiga kiritilmagan. Taômirtalab ahvoldagi obôektlarni taômirdan chiqarib, turistik yoónalishlar dasturiga kiritilsa viloyatga turistlar oqimni koópaytirish imkoniyati yuzaga keladi. Bu bilan qoóshimcha valyuta tushimiga erishiladi, mahalliy aholi vakillarining ish bilan taôminlanish imkoniyati yuzaga keladi. Buning uchun viloyatda turizmni rivojlantirish borasida hududda joylashgan madaniy meros obôektlar boóyicha quyidagi takliflar inobatga olinsa maqsadga muvofiq boólar edi;

SHuningdek, milliy va tarixiy meroslarimizni kelajak avlodga etkazish, ularning asl holatini saqlab qolish, taômirga muhtoj obôektlarlarni qaytadan oóz holatiga keltirish maqsadida malakatimiz raxbarlari tomonidan bir qancha amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. SHunga qaramasdan Xiva shahrida joylashgan, tarixiy ahamiyatga ega boólgan obidalardan boshqa maqsadlarda foydalanish holatlari ham koózga tashlanmoqda. Jumladan:

- 1 asrdan koóproq tarixga ega boólgan Matniyoz Devonbegi madrasasi ichida ñOrient-Star Xivaò MCHJga qarashli restoran faoliyatini olib borishi;
- 1851-1853 yillarda qurilgan Muhammad Aminxon madrasasidan mehmonxona sifatida foydalanish;
- 1834-1835 yillarda qurilgan Olloqulixon madrasasidan restoran sifatida foydalanish;
- Xoójamberdiboy madrasasi hovli tomoni yopilgan hamda undan restoran sifatida foydalanish holatlarining mavjudligi achinarli holdir. Ushbu obôektlardan foydalanishda xorijiy sarmoyadorlarni jalb qilib, tender oótkazilsa maqsadga

muvofiq boʻlar edi. Ushbu obʻektlarning san-uzellaridan notoʻgʻri foydalanish kechirilmas oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Turistik korxonalar tomonidan ishlab chiqilgan sayyohlik yoʻnalishlari va hamroh-tarjimonlar, ekskursiya olib boruvchilar uchun turistik yoʻnalishlar boʻyicha beriladigan maʻlumotlar «Oʻzbekturizm» MKsi Respublika turizm va ekskursiya xizmati Konsalting Markazi tomonidan tayyorlanadi.Hozirgi kunda hududda turistlarga xizmat koʻrsatuvchi hamrox-tarjimonlar va ekskursiya olib boruvchilar uchun yagona mavsumiy libos (uniforma) mavjud emas.

Mehmonxonalardagi maxsus xizmat mutaxassislari (mehmonxona maʻmuri, ofitsiant, barmen, shveysar-dasyor, qavat va xonalar bekasi, farroshlar) ishlarining sifati qoniqarli darajada yoʻlga qoʻyilgan. Shu bilan birga hududda ekskursiya jarayonini olib borish uchun malakali kadrlarni tayyorlashda quyidagi takliflar inobatga olinsa maqsadga muvofiq boʻlardi;

- hozirda Osiyo mamlakatlaridan kelayotgan turistlarning koʻpligini inobatga olgan holda Yapon, Italiyan, Xitoy, Koreys va Ispan tillarida ekskursiya beradigan gid-tarjimonlarning etishmasligi biroz qiyinchilik tugʻdirmoqda.
- hududda malakali gid-tarjimonlar va ekskursovodlarni tayyorlashda Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xorazm viloyatlari Oliy oʻquv yurtlaridan malakali mutaxassislarni jalb qilgan holda doimiy 10-16 oylik maxsus kurslar tashkil qilish zarur;
- Xorazm viloyatidagi tarixiy obidalar toʻgʻrisidagi axborotlarni Xiva «Maʻmun» akademiyasi va Urganch Davlat Universiteti tomonidan tayyorlanishi maqsadga muvofiq. CHunki viloyatda joylashgan obʻektlar va obidalar boʻyicha maʻlumotlar mazkur oliy oʻquv yurtlarida yetarli darajada mavjud;
- gid-tarjimonlar va ekskursovodlar uchun turistlar diqqatini jalb qilish maqsadida mavsumga qarab milliy hamda zamonaviy liboslarni uygʻunlashtirib yagona uniforma tayyorlash maqsadga muvofiq;
- hamroh-tarjimonlar va ekskursiya olib boruvchilarni Hukumat darajasida yagona akkreditatsiyadan oʻtkazish masalasini hal etish zarur;

- Ichon-qaålada joylashgan muzeylarda faoliyat olib boruvchi xodimlarning aksariyati 40 yoshdan oshganlar tashkil etadi. Muzeylarda faoliyat olib boruvchi xodimlarni yosh hamda xorijiy tillarni biladigan mutaxassislar bilan toåldirish maqsadga muvofiqdir;

- hududda ñOåzbekturizmò MKsi Xorazm mintaqaviy boålimi qoshida hukumat delegatsiyalari va oliy martabali mehmonlarga ekskursiya xizmatini beradigan maxsus guruhlarni tashkil etish lozim;

- hududga tashrif buyuradigan xorijiy mehmonlar va sayyohlarga ekskursiya xizmatini koårsatishda malakaga ega boålmagan hamroh-tarjimon va ekskursovodlar tomonidan xizmat koårsatilishiga yoål quymaslik uchun Soliq idoralarini jalb qilgan holda joylarda monitoring oåtkazilishi va aniqlangan qonun buzilishlar toågårisida tuzilgan dalolatnomalarni tegishli idoralarga taqdim qilish orqali choralar koårish lozim. SHuni inobatga olgan holda ñOåzbekturizmò MKsi hamda Davlat Soliq qoåmitasi hamkorlikda qoåshma qaror qabul qilishsa maqsadga muvofiqdir;

- hududdagi mutasaddi tashkilotlar bilan kelishilgan holda xorijiy mehmonlar va sayyohlarga xizmat koårsatiladigan transport vositalari haydovchilarini maxsus tayyorlov kurslarini tashkil qilish, har kuni marshrutga chiqadigan haydovchilarni koårikdan oåtkazish tartibini joriy qilish zarur;

- viloyatning turizm sohasida mehnat qilayotgan xodimlar va mutaxassislarni chet ellarda va xalqaro tashkilotlarning granti orqali oåqitish, tayyorlash va malakasini oshirish;

- xodimlarning ish samaradorligini oshirishlari uchun xorijiy davlatlar tajribasini oårganish maqsadida Toshkent shahrida joylashgan mehmonxonalarga xizmat safarlari uyushtirish orqali malakalarini oshirish maqsadga muvofiq

Viloyatda reklama taâminoti va yodgorlik buyumlari mahsulotlarini ishlab chiqarish. Xorazm viloyatida reklama faoliyati bilan shugåullanadigan bir qancha tashqi reklama mahsulotlarini bosmadan chiqaradigan xususiy korxonalar mavjud. Ularda asosan turistik firmalar, mehmonxonalar oåz turistik mahsulotlarini bukletlar, broshyuralar, kataloglar, xaritalar, plakatlar, kitoblar va boshqalar.

Reklama mahsulotlari oćzbek, rus, ingliz, nemis, yapon, koreys va boshqa tillarda chop etilgan. Ishlab chiqarilayotgan reklama mahsulotlarida yagona milliy ñUZBEKISTANò turistik brendidan foydalanish sust olib borilmoqda.

Viloyatda sayyohlarga meditsina xizmati koćrsatilishi va xavfsizlikning taĉminlanishi. Sayyohlarga meditsina xizmatlarini tashkil qilish va ularning xavfsizligini taĉminlash eng muhim masalalardan biridir. Turistik obĉektlarda asosan Xiva shahridagi ñIchan Qalĉaò davlat muzey qoćriqxonasi ichida va ñDishan Qalĉaò atrofida meditsina punktlarini tashkil etish va chet tillarini biladigan meditsina xodimlari jalb qilinsa maqsadga muvofiq boćladi. Undan tashqari xalqaro magistral yoćllari boćyida har 100 km.da talabga javob beradigan meditsina punktlarini tashkil qilish lozim. Turistik marshrutlarda sayyohlarni transport vositalarida xavfsizliklarini taĉminlash maqsadida ichki ishlar vazirligi bilan kelishilgan holda hamkorlikda ishlar olib borilgan. Turistik xizmat koćrsatish obĉektlarida yongćin xavfsizligini kuchaytirish, avtotransport vositalarida birinchi yordam koćrsatishni uchun kerakli dori darmonlar va jihozlarni taĉminlash lozim.

Dissertatsiya ishimni Prezidentimizning turizm haqida aytilgan ushbu soćzlari bilan yakunlamoqchiman.

ñSayyohning kayfiyati turistlarni qabul qiladigan har qanday mamlakatning, aytish mumkinki, asosiy brendi, yaĉni, tovar belgisi boćlishi kerak. Agar odamlar bizning diyorimizga yaxshi kayfiyat bilan kelib, shunday kayfiyat bilan ketadigan boćlsa, Oćzbekistonda turizm sohasi mustahkam asosga qoćyilgan, deb aytishga haqlimiz.[56]

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

### 1. O‘zbekiston Respublikasi qonunlari

1. Oćzbekiston Respublikasi Konstitustiyasi. -T.:Oćzbekiston.2005 yil. -36 b.

2.Oćzbekiston Respublikasining ñTurizm toćgćrisidagiò qonuni. Oćzbekistonning yangi qonunlari. T.22.-T.: Adolat, 2000.b.131-140.

---

[56]Karimov I.A. Oĉzbekiston Respublikasi prezidenti I.Karimovning BMT Jahon sayyohlik tashkiloti Ijroiya Kengashi 99-sessiyasining ochilish marosimidagi nutqi. Xalq soĉzi, 2014-yil 3 oktyabr.

**2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari**

3. Oózbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 15.04.1999 yildagi PF-¯ 2286 farmoni.// ñXalq soóziò, ¯ 74 16 aprel 1 bet.

4. Oózbekiston Respublikasi Prezidentining 1995 yil 2 iyundagi 1162 raqamli òBuyuk Ipak yoóliòini qayta tiklashda Oózbekiston Respublikasining ishtirokini avj oldirish va respublikada Xalqaro turizmni rivojlantirish borasidagi chora ï tadbirlar toógórisidagiò Farmoni. //Xalq soózi, 1995.3- iyun.

5. Oózbekiston Respublikasi Prezidentining ñOózbekturizmò MKsining tashkil topishiò toógórisidagi farmoni ¯ PF-447 27 iyulya 1992 yil. //Xalq soózi.1992. 27 iyul.

**3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari**

6. Oózbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ¯ 346 8 avgustda qabul qilingan ñTuristik tashkilotlarning faoliyatini takomillashtirishò toógórisidagi farmoyishi. - Xalq soózi 9-avgust 1998 y

**4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari**

7. I.Karimov. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. ñXalq soóziò gazetasi, 22 yanvar 2011 yil.

8. Karimov I. Inson, uning huquqi va erkinliklari hamda manfaatlari ï eng oliy qadriyat. Oózbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning Oózbekiston Respublikasi Konstitustiyasi 16 yilligiga bagishlangan tantanali marosimda 2008 yil 7 dekabrda soózlagan maóruzasi.

9. Karimov I. Bizning bosh maqsadimiz ï jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. ï T:.Oózbekiston, 2005 -92

10. Karimov I. ñBiz tanlagan yoól demokratik taraqqiyot va maórifiy dunyo bilan hamkorlik yoóliò Toshkent Oózbekiston 2005y -318b.

11.Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, Oózbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yoóllari va choralari / I.A.Karimov ï T: ñOózbekistonò, 2009. ï 56 bet.

12. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. Vazirlar Mahkamasining 2009 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2010 yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yoónalishlariga bagóishlangan majlisidagi maôruzasi. // Xalq soózi. ï 2011. - 22 yanvar.

13. Karimov I.A. Oôzbekiston Respublikasi prezidenti I.Karimovning BMT Jahon sayyohlik tashkiloti Ijroiya Kengashi 99-sessiyasining ochilish marosimidagi nutqi. Xalq soôzi, 2014-yil 3 oktyabr.

## 5. Darsliklar

14.Tuxliyev I.S., Qudratov Gô. X., Pardayev M.Q. Turizmni rejalashtirish. Darslik. ï T.: Iqtisod-Moliya, 2010.

15.Tuxliyev I.S., Pardayev M.Q. Turizmda xizmat koôrsatishni rivojlantirish -aholi bandligini oshirish manbasi. Risola. - T., 2008.

16. Abidova.D.I. Restoran servisini tashkil qilish. oóquv qoóllanma 249 bet Toshkent, TDIU 2007y M.T. ñTuristik mƟmlƟkƟtlƟr iqtistsdiyotiò dƟrslik, Toshkent, TDIU 2009 yil.

17.Tuxliyev I.S. Qudratov Gô.X. ñTurizm asoslariò T: 2012.

18. KƟmiltsvƟ F.K., TƟshjvƟ I.M., SƟyfutdintsv SH.S. ñTurizm industriyasiò. Oôquv qoôllƟnmƟ Ttsshkjnt. TDIU 2007 yil.

19.KtsLʳ tɕjɘ Ɉ. M., ɿtstɐʆʤ ʀ. Ɉ., ʉʒtɐʆʤ ɸ. ʀ. ʗ ʜtɕ Mjʤʜʮʤʒʤs lsʒtɐʆʟʤƷ ʕ ʕtsʤsʤʆʕƟlsʒtɐʆʟʤƷ ʊ ʯʙʤʆʕ. -M: ʌ ʆʤƟʤɲ ʗ fnjsƟsʆfnjsʆʕƟ, 2004.

20.ʉ Ɵʤtsʔʤʤts ɸ. ɸ. ɻj tsɢtɐƟʷ ʗʷ lsʒtɐʆʟʤƷ ʊ ʯʙʤsj ʧtsfnjsʙʗj. ï ʈ tsfnjstsɘ ʤɼ tsʤʒ: «ʌ jʤʆʕfn». 2006.

## 7.Doktorlik, nomzodlik va magistrlik dissertatsiyalari

21. Fayzieva SH.R. Oóz bekistonda turizm rivojlanishining iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish. I.f.n.diss. ï TDIU, 2006. ï 140 b.

22. Norchaev A.N. Xalqaro turizm rivojlanishining iqtisodiy oósishiga taôsiri (Ispaniya misolida) Iqtisod fanlari nomzodi darajasini olish uchun dissertatsiya. Toshkent, 2004y. -135 b.

23. Karimov Tohir To‘lqin o‘g‘li „Buxoro turistik hududini rivojlantirishda menejmentning zamonaviy konsepsiyalarini qo‘llash imkoniyatlari" diss-BDU, 2014. 48 -56-b.

**9. Xisobotlar va statistik materiallar**

24. Compendium of Tourism Statistics. WTO. Madrid, 2002. Tourism Highlights Edition, WTO, Madrid, Spain 2003 - 123 p.

25. UNWTO-World tourism barometr-2014.

26. „O‘zbekturizm" MKsi hisobotlari va ma‘lumotlari.

**10. Internet saytlari**

27.www.jamiyatgzt.uz - Jamiyat ijtimoiy – siyosiy gazetasi.

28.www.uzbekistonovozi.uz – O‘zbekiston ovozi ijtimoiy siyosiy gazetasi.

29.www.uza.uz – O‘zbekiston milliy axborot agentligi.

30. www.visitcyprus.com – Kiprning rasmiy turizm veb sayti.

31.www.narod.ru - O‘zbekistonning tarixiy obidalari veb sayti.

32.www.infoman.uz – eng so‘nggi yangiliklar.

33.www.Uzreports.uz – bussines news of Uzbekistan.

34.www.Uzbektourism.uz – „O‘zbj kturizm" MK stGtistik mG‘lumtstlGridGn.

35.www.library.uz – Alisher Navoiy kutubxonasi.

36.www.uzbektourism.uz – „O‘zbj kturizm MK" veb – sayti

37.www.discovenger.uz – dunyo bo‘ylab sayohat

38.www.tour.uz – O‘zbekistondagi mehmonxonalar va turlar sayti

39.www.visitkhorezm.uz – Xorazm viloyati rasmiy veb – sayti

40.www.statistics.uz – yillik statistika ma‘lumotlari.

41.www.OrexCA.com – Markaziy Osiyoning turistik onlayn kompaniyasi.